O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRIGI MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI MAGISTRATURA BO'LIMI

"Himoyaga tavsiya etilsin"

Bo'lim boshlig'i:

_____ t.f.n.dotsent B.U.Aminov

"__20__" ____05____ 2019-yil

Magisrtatura bo'limi

5A110601- Tarix o'qitish metodikasi II bosqich magistranti Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'lining **"Rishton kulolchiligi tarixi"** mavzusida yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

_____ t.f.n I. Yo'ldashev

"Himoyaga tavsiya etilsin"

Tarix o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri:

_____ t.f.n Q. Akbarov

"__22__" ____04____ 2019-yil

QO'QON-2019

Muqumiy nomidagi Qo`qon Davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Tarix o'qitish metodikasi kafedrasi yig'ilishi bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Qo`qon shahri **2019 yil 29-may**

Qatnashdilar: kafedra mudiri – Q.Akbarov, dotsent: I.Yo'ldashev, R.Xolmatov, G.Rahimova katta o'qituvchilar: T.Nuriddinov, T.Madaminov, SH.Qambarova o'qituvchilar: Z.Esonov, M.Temirova, B.Qodirov va boshqalar.

Kun tartibidagi masala:

1. 2018-2019 o'quv yilida Tarix o'qitish metodikasi magistratura ta'lim yo'nalishi bitiruvchi bosqich magistrantlarining magistrlik dissertatsiya ishlarini himoyaga tavsiya etish to'g'risida

Eshitildi: Kafedra mudiri so'zga chiqib Tarix o'qitish metodikasi magistratura ta'lim yo'nalishi bitiruvchi bosqich barcha magistrantlarining magistrlik dissertatsiya ishlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 22 maydagi 160-sonli O'zbekiston Respublikasi oily ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'risidagi"gi Nizom asosida talab darajasida bajarilganligini aytib o'tdi.

Kafedra yig'ilishi MD holatini o'rganib chiqib, quyidagicha qaror qabul qildi.

QAROR QILADI:

1. Tarix fakulteti Tarix o'qitish metodikasi magistratura ta'lim yo'nalishi II bosqich magistranti Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'lining "***Rishton kulolchiligi tarixi***" navzusida yozilgan Magistrlik dissertatsiya ishi tugallangan deb hisoblansin.
2. Mazkur MD DAK himoyasiga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi: **Q.Akbarov**

Kotib: **T.Nuriddinov**

Qo`qon Davlat Pedagogika insitituti Magistratura bo`limi Tarix o`qitish metodikasi 5A110801 yo`nalishi magistranti Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o`glining "Rishton kulolchiligi tarixi" mavzusidagi magistrlik desertatsiyasiga

Taqriz

Magistr I.Usmonaliyevning desertatsiyasi "Rishton kulolchiligi tarixi" mavzusida amalgam oshirilgan bo`lib, ushbu tadqiqod jarayonida Rishton kulolchiligi tarixi, shakllanish bosqichlari hamda ananalarini atroflicha yoritishga harakat qilgan.

Magistrlik desertatsiyasi kirish, asosiy qism, xulosa, ilovalar, foydalanilgan adabiyotlar royhatidan iborat.

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi masalasiga alohida to`htalib, bugungi davr tarix faniga qo`yilgan talablardan kelib chiqqan holda yondashilgan. Shu asosda ilmiy ishda Rishton kulolchiligining o`ziga hos uslublari hamda rivojlanish bosqichlari asos qilib olingan. Ishning kirish qismi: maqsad va vazifalar, tadqiqotning predmeti, obyekti, o`rganilganlik darajasidan iborat.

Mavzuning yoritilishidagi asosiy qism uch bob, yetti rejadan iborat bo`lib, birinchi bobi "Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon" deb nomlanib, uning birinchi rejasida kulolchilik sanatining vujudga kelishi va uning o`ziga hos maktablarining shakllanishi masalalari yoritilgan.

Ishning birinchi bob ikkinchi rejasida O`zbekistonda kulolchilik maktablarining shakllanishi hamda ularning o`xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Magistrlik desertatsiyasining ikkinchi bobi "Rishton kulolchiligi shakllanishida "Buyuk ipak yoli" ning ahamiyati va kulolchilik maktabining vujudga kelishi" deb nomlanib, uning birinchi rejasida Rishton kulolchilik san`atining shakllanishi va taraqqiy etishida "Buyuk ipak yo`li" ning ahamiyati yoritilgan.

Magistrlik desertatsiyasining ikkinchi bob ikkinchi rejasida Rishton kulolchiligi maktabining shakllanishi va bezak berish uslublari masalalari bayon qilingan. Ushbu bobda Rishton kulolchiligining bezak berish uslublari va ularning o`ziga xos jihatlari taqqoslashlar bilan ko`rsatib berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining uchinchi bobi "Rishton kulolchiligining mustaqillik yillaridagi rivoji" deb nomlaning uning birinchi rejasida milliy hunarmandchilik hususan kulolchilik sohasining

istiqlol yillaridagi yangi bosqichga ko`tarilishi masalalari ko`rib chiqilgan.

Ishning uchinchi bob ikkinchi rejasida milliy hunarmandchiligimizning jahon yuzini ko`rishi va usta kulollarning hurmat qozonishlari hamda ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar atroflicha yoritilgan.

Magistrlik desertatsiyasining uchinchi bobining uchinchi rejasi zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda kulolchilik san`atining tutgan o`rniga alohida to`htalib otilgan. Muhtaram yurtboshimizning yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlaridan unumli foydalanish barobarida ularni milliy hunarmandchiligimizga mehr-muhabbat tuyg`ularini oshirishga alohida e`tibor berib otilgan. Rejalar bir-birini uzviy ravishda to`ldirgan va ilmiylikka asoslangan deb hisoblanadi.

Dissertatsiyaning hulosa qismida magistr Ikromjon Usmonaliyev yuqoridagi boblarni umumiy hulosasini berishda ma`lumotlarning uzviy bog`liqlik darajasini belgilab bergan holda o‘z fikr mulohazalarini berib otadi.

Taqrizchi: **FarDU Tarix fakulteti dotsenti T.F.N B.Usmonov**

Qo'qon Davlat Pedagogika insitituti Magistratura bo'limi Tarix o'qitish metodikasi 5A110601 yo'nalishi magistranti Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'lining "Rishton kulolchiligi tarixi" mavzusidagi magistrlik desertatsiyasiga ichki

Taqriz

Magistr I.Usmonaliyevning desertatsiyasi "Rishton kulolchiligi tarixi" mavzusida amalgam oshirilgan bo'lib, ushbu tadqiqod jarayonida Rishton kulolchiligi tarixi, shakllanish bosqichlari hamda an'analarini atroflicha yoritishga harakat qilgan.

Magistrlik desertatsiyasi kirish, asosiy qism, xulosa, ilovalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Tadqoqodning kirish qismida mavzuning dolzarbligi masalasiga alohida to'htalib, bugungi davr tarix faniga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda yondashilgan. Shu asosda ilmiy ishda Rishton kulolchiligining o'ziga hos uslublari hamda rivojlanish bosqichlari asos qilib olingan. Ishning kirish qismi: maqsad va vazifalar, tadqiqotning predmeti, obyekti, o'rganilganlik darajasidan iborat.

Mavzuning yoritilishidagi asosiy qism uch bob, yeti rejadan iborat bo'lib, birinchi bobi "Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon" deb nomlanib, uning birinchi rejasida kulolchilik san'atining vujudga kelishi va uning o'ziga hos maktablarining shakllanishi masalalari yoritilgan.

Ishning birinchi bob ikkinchi rejasida O'zbekistonda kulolchilik maktablarining shakllanishi hamda ularning o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Magistrlik desertatsiyasining ikkinchi bobi "Rishton kulolchiligi shakllanishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati va kulolchilik maktabining vujudga kelishi" deb nomlanib, uinign birinchi rejasida Rishton kulolchilik san'atining shakllanishi va taraqqiy etishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati yoritilgan.

Magistrlik desertatsiyasining ikkinchi bob ikkinchi rejasida Rishton kulolchiligi maktabining shakllanishi va bezak berish uslublari masalalari bayon qilingan. Ushbu bobda Rishton kulolchiligining

bezak berish uslublari va ularning o'ziga xos jihatlari taqqoslashlar bilan ko'rsatib berilgan.

Magistrlik desertatsiyasining uchinchi bobi "Rishton kulolchiligining mustaqillik yillaridagi rivoji" deb nomlaning uning birinchi rejasida milliy hunarmandchilik hususan kulolchilik sohasining istiqlol yillaridagi yangi bosqichga ko'tarilishi masalalari ko'rib chiqilgan.

Ishning uchinchi bob ikkinchi rejasida milliy hunarmandchiligimizning jahon yuzini ko'rishi va usta kulolllarning hurmat qozonishlari hamda ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar atroflicha yoritilgan.

Magistrlik desertatsiyasining uchinchi bobining uchinchi rejasi zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda kulolchilik san`atining tutgan o`rniga alohida tohtalib o'tilgan. Muhtaram yurtboshimizning yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlaridan unumli foydalanish barobarida ularni milliy hunarmandchiligimizga mehr-muhabbat tuyg'ularini oshirishga alohida e'tibor berib o'tilgan. Rejalar bir-birini uzviy ravishda to'ldirgan va ilmiylikka asoslangan deb hisoblanadi.

Desertatsiyaning hulosa qismida magistr Ikromjon Usmonaliyev yuqoridagi boblarni umumiy hulosasini berishda ma'lumotlarning uzviy bog'liqlik darajasini belgilab bergan holda o'z fikr mulohazalarini berib o'tadi.

Taqrizchi: Phd., dotsent G.Rahimova

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
MUQUMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSITITUTI
5A110801-"TARIX O'QITISH METODIKASI"
MAGISTRATURA MUTAHASISLIGI BITIRUVCHISI
USMONALIYEV IKROMJON MURODJON O'G'LINING
"RISHTON KULOLCHILIGI TARIXI" MAVZUSIDAGI
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASIGA

ILMIY RAHBAR XULOSASI

Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'li tomonidan bajarilgan "Rishton kulolchiligi tarixi" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi Oliy ta`lim muassalari magistratura mutaxassisliklarining magistrlik dissertatsiyasi to`g'risidagi nizom talablari asosida yozilgan va mavzu to`liq yoritib berilgan.

Ishning asosnomasida mavzu muammosining o`ziga xos dolzarblik jihatlari ishonchli dalillar bilan asoslangan, muammoning o`rganilganlik darajasi, Rishton kulolchilik san`atining kelib chiqishi, tarixi va bugungi kundagi holati ilmiy jihatdan talqin etilgan.

Ishning birinchi bobi " Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon"-deb nomlanib, unda kulolchilik san`atining rivojlanishi, tarkib topgan uslub va maktablar, amaliy san`atdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi, kulolchilik san`atida etnik-madaniy an`analar yoritib berilgan.

Ikkinchi bobi "Rishton kulolchiligi shakllanishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati va kulolchilik maktabining vujudga kelishi"-deb nomlanib, unda Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xos tomonlari, "Buyuk ipak yo'li" ning rishton kulolchiligi vujudga kelishida va rivojlanishidagi ahamiyati, kulollar maktabining shakllanishi yoritib berilgan.

Uchinchi bobi "Rishton kulolchiligining mustaqillik yillaridagi rivoji" masalasiga qaratilgan bo`lib, unda usta Alisher Nazirov, usta Odiljon

Nigmatov, Shamsiddin Yusupovlar ijodi hamda zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb – hunarga yo`naltirishda kulolchilik san`atining tutgan o`rniga alohida e`tibor qaratilgan. Ishni bajarishda Rishton kulolchilik san`ati haqidagi ilmiy manbaalar, gazeta va jurnal materiallari, ustalarning avloddan-avlodga o`tib kelayotgan o`ziga xos an`analari, ustoz-shogird tizimi, kulolchilik texnologiyasi muallif tomonidan yetarli darajada o`rganib chiqilgan. Muqaddam biror marotaba qilinmagan ustazodalarning shajarasi tuzib chiqilgan. Ko`plab ustalarning uy-muzeylari bilan yaqindan tanishib, ularga tashrif buyurayotgan xorijlik mehmonlarning ham fikr-mulohazalari berilgan. Xorijda tashkil qilinayotgan ko`rgazmalarda Rishtonlik kulolar tomonidan erishilgnan yutuqlar ham bayon qilingan. Yuqoridagilar asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan va kerakli tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mavzu materiali asosida to'rtta maqola chop qilgan.

Ish ayrim stilistik va orfografik hato va kamchiliklardan holi emas, shunga qaramasdan mustaqil izlanish natijasi va tugallangan tadqiqot ishi sifatida e`tiborga molik hisoblanadi.

Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'li tomonidan bajarilgan "Rishton klolchiligi tarixi" mavzusidagi dissertatsiya ishi oliy ta`lim va o`rta maxsus ta`lim vazirligining magistrlik dissertatsiyalarini bijarishga qo`yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman.

Ishni shu tarzda ochiq himoyaga tavsiya etishni lozim deb topaman hamda dissertatsiyani yuqori saviyada tayyorlanganligini tasdiqlayman.

Ilmiy rahbar: **t,f,n, Yo'ldashev I .**

Annotatsiya

Kulolchilik san'ati qadimdan shakllanib, o'zining ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan badiiy san'at turlaridan biridir. Olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, kulolchilik neolit davridan buyon insonlarning o'ziga hos kasb-koriga aylangan. Kulolchilik san'atining avloddan - avlodga o'z qadr-qimmatini yo'qotmay yetib kelishida usta kulollarning o'rni benihoya ulkandir. Istiqlol yillarida hunarmandchilikka, hususan kulolchilik san'atiga bo'lgan e'tibor bir pog'onaga yuksaldi. Usta kulollarimiz yaratgan mahsulotlar jahon nigohini o'ziga qaratib kelmoqda.

Аннотация

Искусство керамики является одним из видов художественного искусства, каторое сформировалось с древних времен и теряет свое значение. Согласно выводам ученыхб керамика стала своего рода личностью со времен неолита. Роль художественных керамистов значительно возросла, когда исскуство керамики заслужило уважение своих предков. За годы независимости внимание к премеслу, в частности к гончарному искусству, возросло. Изделия, созданные нашими шедеврами, превликают внемание всего мира.

Annotation

Art of ceramics is one of the types of artistic art that has been formed fromed from ancient times and loses its importance. According to scientists' findings, pottery has become a kind of profession for many people since the Neolithic era. The role of master potters is remarkable in the fact that pottery art has come to the fore in deserving of its value. During the years of independence, the attation to craftsmanship, in particular pottery art, increased. The product created by our masterpieces are attracting attention of the world.

GLOSSARY

1	**Kulolchilik-ceramica**	Hunarmandchilikning serjiloligi bilan ajralib turadigan hamda badiiy san'at turlaridan biri	Craftsmanship is one of the types of arts that is distinguished by its sophistication
2	**Bilim- knowledge**	Haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Talabalar hodisa, voqea, qonuniyatlar tog'risidagi ma'lumotlarni o'rganadilar va ularning yutug'i bo'ladi	Really being reflected in the total. Student events, learn information about the laws and their achievement.
3	**Vaziyat- situation**	(situatsiya)(keyingi lotinchadagi stuation-ahvol)- muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar uyushmasi	(Stuato)(the stuation in Latin-the stuation)-specific situation, the stuation creates the conditions and circumstances of the Association
4	**Individual o'qitish-individual teaching**	O'quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta'lim-tarbiya berish	Give the person the reader with a particular approach to education
5	**Kasb- profession**	Bu mehnat faoliyatining barqaror turi, u nafaqat aniq bilim va ko'nikmalarni bo'lishini talab qilmay, balki bir xil bo'lgan umumiy kasbiy bilimlarni ham bo'lishini talab qiladi.	This type of stable activity, it not only does not require specifie knowledge and skills, but also requires the same general professional knowledge
6	**Kreativlik(ijodiylik)-creative**	O'quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta'lim-tarbiya berish	Give the person the reader with a particular approach to education
7	**Ko'nikma- the ability to**	Insonning ma'lum sohadagi tushunchalarga ega bo'lishi	To the knowledge of human in a particular subject
8	**Hamkorlikda o'qitish-concordance teaching**	Mashg'ulotlar jarayonida talabalar bilan axborot, shaxsiy va kasbiy tajribalarni almashish asosisdagi guruhiy o'qitish shakli	Information sharing, personal and professional experiences among the students in the process of group face-to-face classes

9	**Kulol- potter**	Oddiy loydan g'ozal san'at asarini yaratuvchi shaxs	A person who creates wonderful art from simple clay
10	**Innovatsiya- innovation**	Yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib qoidalar, tehnologiyalar va yangiliklar	From included new concepts, rules of procudere and texnology news
11	**Innovatsion vaziyat- innovation state**	Pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan vaziyat	Creation of pedagogical innovations development and iningbementation aimed at the stuation of
12	**Baho-**	Ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining miqdoriy baholashda ball yoki raqamlar vositasida shartli ifodalanishi	Education buyers knowledge, skills and qualifications in quantitative evaluation expressed by means of points or numbers example
13	**Kulolchilik mahsuloti- ceramics product**	Usta kulol tomonidan tayyorlangan hamda sayqal berib ishlangan mahsulot	It is a product manufactured by a master ceramist
14	**Ko'rgazma- exhibition**	Hunarmandlar tomonidan yasalgan mahsulotlar namoyishi	The presentation (or intreducing) of prepared products by craftsmen

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I bob. Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon

1.1. Kulolchilikning vujudga kelishi tarixidan..... 11
1.2. O'zbekistonda kulolchilikning rivojlanishi 21
I bob bo'yicha holosa..... 39

II bob. Rishton kulolchiligi shakllanishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati va kulolchilik maktabining vujudga kelishi

2.1. Rishton kulolchiligi vujudga kelishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati..... 40
2.2. Rishton kulolchiligi maktabining shakllanishi va bezak berish uslublari..... 56
II bob bo'yicha hulosa..... 75

III. Rishton kulolchiligining mustaqillik yillaridagi rivoji

3.1. Istiqlol yillarida kulolchilik sohasining yangi bosqichga ko'tarilishi..... 76
3.2. Rishton kulololllari – jahon nigohida..... 88
3.3. Zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda kulolchilik san`atining tutgan o`rni..... 98
III bob bo'yicha hulosa..... 105

Xulosa..... 111
Foydalanilgan adabiyotlar..... 114

KIRISH

Magistrlik disertatsiyasining dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng Vatan tarixini o'rganish va tadqiq etish, o'zlikni anglashga qiziqish ortdi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan"[1]. Shubhasiz, tarix shohidligi shaxs kamoloti uchun saboq bo'lib, insonga tegishli ta'lim-tarbiya beradi. O'z navbatida haqqoniy tarixni o'rganish va tarixiy merosni tiklashda inson tarixiy xotirasining o'ziga xos o'rni bor. Tarixiy xotira bu – hayot mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorislik tuyg'usini anglash demakdir[2].

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi.

Hunarmandchilikning bir bo'lagi bo'lgan kulolchilik tarixi ana shu hunarmandchilikning paydo bo'lishidan to hozirgi zamon bosqichigacha bo'lgan davr kulolchilik taraqqiyotini o'rganadi, shu davr mobaynida yashab ijod etgan va ijod qilayotgan kulollar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishadi, ularning asarlarini tahlil etadi, taqqoslaydi. Kulolchilik tarixi taraqqiyotida sodir bo'lgan turli badiiy maktab, yo'nalish, oqim va uslublar kurashining mohiyatini yoritadi.

O'zbekiston kulolchiligi – badiiy ish uslublari eng qadimiy turlaridan hisoblanadi. Kulolchilik san'ati asari sirlangan va sirlanmagan ish uslublari asosida yuzaga keladi. Sirlanmagan

---

[1]Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 4.
[2]Каримов И.А. Тарихий хотира ва инсон омили – Буюк келажагимизнинг гаровидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 18.

kulolchilik hajmi jihatidan katta bo'lgan, xo'jalik uchun kerak bo'ladigan buyumlarni o'z ichiga oladi. Masalan, suv va mevalar solish uchun mo'ljallangan xumlar, ko'zalar, non yopish uchun tandir va boshqalarda buni ko'rish mumkin.

Usta kulollar o'zbek milliy kulolchilik an'analarini asrab avaylab, yangi ijodiy qirralarini va boy ma'naviy merosimizni o'rganib, uni Toshkent shakllanib ulgurgan. Xorazm, Rishton, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, G'ijduvon va Toshkent kulolchilik san'atining mashhur maktablarini misol keltirish mumkin[1].

Haqiqatan ham, insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Kulolchilik san'ati tarixini o'rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish o'tmish odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda xayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi.

Magistrlik disertatsiyasining o'rganilishi darajasi.

Mamlakatimiz kulolchilik tarixini yoritishda XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklarida bo'lgan rus harbiylari hamda evropalik sayyohlar tomonidan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar muhi o'rin tutadi. Ulardan N.Xaniqov, A.Vamberi, M.Bichurin, A.Xoroshxin, N.Maev, V.V.Krestovskiy, S.A.Artyunov, N.A.Aristov va boshqalar o'sha davrlardagi hunarmandchilik turlari qatori kulolchilikka ham qisman to'xtalib o'tganlar.

---

[1]Мирзаҳмедов Д.К. Глазурированная керамика Бухары XIX вв. / Из истории культурного наследия Бухары. - Ташкент, 1990. – С.36

1917-1991 yillarda O'rta Osiyo tarixiga doir qimmatli ilmiy asarlar yaratib, asarlarida kulolchilik tarixi bo'yicha ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tgan olimlar sirasiga A.A.Semyonov, S.Ayniy, V.L.Vyatkin. P.P.Ivanov, B.I.Iskandarov, V.V.Bartold, E.M.Masson, O.A.Suxarev, G.A.Pugachenkova, P.A.Goncharova, H.Ziyoev, M.K.Raximov, D.K.Mirzaahmedov va boshqalarni kiritish mumkin[1].

Mustaqillik davrida yaratilgan xonliklar tarixiga oid turkum adabiyotlar tashkil etadi, hunarmandchilik va savdoning ahvolining ma'lum jihatlarini ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan tadqiq etayotgan olimlardan H.Ziyoev, O'.Ahmadjonov, H.G'ulomov, H.Bobobekov, Sh.Vohidov, Q.Rajabov, N.Abdurahimova, G.Agzamovalarni[2] ta'kidlash o'rinli.

G.Agzamova O'rta Osiyoning medievistik tarixini o'rganishda savdo-sotiq va hunarmandchilik masalalariga ham qisman to'xtalib o'tgan, hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy tarixda tutgan o'rnini manbalar tahlili orqali yoritib berishga harakat qilgan[3].

E.M.Pesherova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyo hududidagi kulolchilik ishlari tarixini o'rganishga e'tibor qaratib, qadimgi va o'rta asrlardagi kulolchilik ishlari tarixiga baho bergan[4].

---

[1]Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент, 1961. – 221 с.; Мирзаахмедов Д.К. К истории художественной керамики Бухары. – Ташкент, 1990. – 230 с.ва ҳ.

[2]Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милоддан аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001; Аҳмаджонов Ғ.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент, 2003. – 270 б; Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.

[3]Агзамова Г.А. XVIII асрнинг биринчи чорагида Бухоро хонлиги: элчи Флорио Беневени талкинида // Ўрта Осиёнинг қадимги ва ўрта аср шаҳар маданияти анъаналари. Ўзбекистон Миллий университети археология кафедрасининг 70 йиллигига бағишланган илмий анжуманга йўлланган маърузалар тўплами. "Yangi nashr", 2010.;Ўша муаллиф. Бухара – Амуль - Ургенч: к истории караванной дороги // Туркменская земля – колыбель древних культур и цивилизаций. Материалы международной научной конференции. Ашхабад, 1-3 октября 2008 г.;Ўша муаллиф. Ўрта Осиё хонликлари тарихи: манбаларга оид айрим чизгилар//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – Б.118-124.

[4] Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – 240 с.

N.A.Dmitrieva va L.I.Akimovalar qadimgi dunyo tarixida san'atning tutgan o'rnini tahlil qilib, antik davr kulolchiligiga ham baho bergan[5].

M.S.Hamidova XVIII-XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixshunosligiga oid tadqiqotlarida voha tarixini yorituvchi manbalar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib bergan[1].

Magistrlik disertatsiyasining maqsad va vazifalari.

Magistrlik disertatsiyasining maqsadi insoniyat tarixida kulolchilikning tutgan o'rniga qisqacha ta'rif bergan holda, mamlakatimizda shakllangan kulolchilik maktablari hususan, Rishton kulolchilik maktabi tarixi va an'analarini tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili orqali o'rganish va yoritib berishdan iborat.

Magistrlik disertatsiyasining quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- kulolchilik san'ati tarixi, an'analari va antik davrda kulolchilikning vujudga kelishi tarixini o'rganish;
- O'zbekistonda kulolchilikninng rivojlanishi tarixi, bosqichlarini to'plangan manbalar ma'lumotlari asosida tahlil qilish;
- mamlakatimizda shakllangan kulolchilik maktablari va ularning an'analarini o'rganish;
- Rishton kulolchilik maktabining vujudga kelishi, o'zbek milliy hunarmandchiligiga qo'shgan hissasini yoritib berish;
- Rishton kulolchilik maktabi tarixi va an'analarini o'rganish va tahlil qilib berish;
- Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi tarixi va uning Farg'ona vodiysi xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga qo'shgan hissasini manbalar tahlili orqali yoritib berish;

---

[5] Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.: Детская литература, 1988. – 256 с.

[1] Ҳамидова М.С.XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008. – Б.132-134.

- Rishton kulolchiligining o'ziga xosligi hamda bezak berishdagi usullarni misollar yordamida yoritish;

- O'rganilgan ilmiy materiallar asosida ilmiy maqolalar yozishdan iboratdir.

Magistrlik disertatsiyasining yangiligi va amaliy ahamiyati.

Magistrlik disertatsiyasida to'plangan manbalar va ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida O'zbekistonda shakllangan kulolchilik maktablari tarixi, jumladan Rishton kulolchiligi an'analari qiyosiy tahlil orqali o'rganilib, bosqichlarga ajratildi. Mazkur magistrlik disertatsiyasidan kulolchilik tarixiga qiziquvchilar, umumta'lim maktablari, AL va KHK lari tarix o'qituvchilari dars o'tishda, shuningdek, oliy o'quv yurti talabalari seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda foydalanishlari mumkin.

Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot metodlari.

Mazkur magistrlik disertatsiyasida Rishtonda shakllangan kulolchilik maktabi tarixi, an'analari ob'ekt sifatida tanlandi. Mavzu ustida ishlash jarayonida, umumlashtirish, tahlil qilish metodlari, tarixiylik, xolislik, tarixiy taqqoslash kabi tamoyillardan foydalanildi.

Magistrlik disertatsiyasining nazariy-uslubiy asoslari.

Tadqiqotning nazariy uslubiy asoslarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida bayon qilingan xolislik, tarixiy xotira, haqqoniy tarixni yoritish[1] kabi tamoyillari muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida O'zbekiston tarixi fanining rivojlanishini asosiy uslubiy yo'nalishlari ifodalangan "O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi"

[1]Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Тошкент: Шарк., 1998. – 168 б.

kontseptsiyasiga va og'zaki tarixning nazariy va amaliy masalalarini yorituvchi tadqiqotlarga murojat etildi.

Magistrlik disertatsiyasining tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya - 115 betda bayon etilgan bo`lib, kirish qismi, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o`rganganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Birinchi bob - "Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon"da kulolchilik san`atining rivojlanishi, tarkib topgan uslub va maktablar, amaliy san`atdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi, kulolchilik sohasidagi etnik-madaniy an`analar to`g'risidagi ma`lumotlar, ilmiy manbaalar taxlil qilingan.

Ikkinchi bob – "Rishton kulolchiligi shakllanishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati va kulolchilik maktabining vujudga kelishi" da Rishton kulolchilik san`atining vujudga kelishi hamda rivojlanishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati va Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi yoritilgan.

Uchunchi bob - "Rishton kulolchiligining mustaqillik yillaridagi rivoji"- deb nomlanib, unda Rishtonlik kulollar Alisher Nazirov va Shamsiddin Yusupovlar ijodi orqali ochib berilgan. Suuningdek, zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga o`rgatishda kulolchilik san`atining tutgan o`rni tahlil qilingan.

Magistrlik Dissertatsiyasining **xulosa** qismida bajarilgan ishlar natijalari umumlashtirilib, mavzu bo`yicha tavsiya va takliflar keltirilgan.

Ishning ilova qismida kulolchilik namunalarining rasmlari, shuningdek, "Power Point" dasturi asosida tayyorlangan taqdimotning elektron varianti diskda ilova qilingan.

I bob. Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon

1.1. Kulolchilikning vujudga kelishi tarixidan

Kulol aylantirar charxin,
Qora loy ulg'ay, san`at chin.
Bujur, lek san`ati zebo,
Bu qo`llardir, bu qo`llar.

Erkin Voxidov

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojitni o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-birdan farq qiladi.

Kulolchilik buyumlari sopol va keramika deb atalmish chinni, loyum hamda mayolikalardan tayyorlanadi. Sopoldan buyum ishlab chiqarish birinchi bor Misrda miloddan avvalgi 4 ming yillikda boshlangan. Chinnidan buyum ishlab chiqarish sirlarini xitoyliklar miloddiy asr boshlarida bilib olishgan. Mayolika so'zi Ispaniyadagi Mayorka oroli va fayans so'zi Italiyadagi Faens shahri nomlaridan olingan[1].

Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, sopcha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idishg'tovoqlar

---

[1] Мухамедов Д.К. Глазурированная керамика Бухары XIX вв. / Из истории культурного наследия Бухары. - Ташкент, 1990. – С.36

yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlaridan bo'lgani uchun kulolchilikning keng tarqagan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar[1]. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Neolit yoki yangi tosh asrida odamlar faqat tabiat in'om etgan mahsulotlarni iste'mol qilish bilan chegaralanmay, balki o'zlari ham uni yaratishga, ko'paytirishga harakat qila boshlaydilar. Endilikda ovchilikdan tashqari, chorvachilik va dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshladilar. Ishlab chiqarish jarayoni kuchaya bordi, shu bilan birga, kishilarping ma'naviy olami, dunyoqarashi ham murakkablasha bordi. Bu asrda ham toshlardan qurol yasash muhim rol o'ynadi. Lekin endilikda toshni qayta ishlash, uni pardozlash, shu asosda juda nozik buyumlar yaratishga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Kulolchilik (keramika) ning paydo bo'lishi ham yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanib, ba'zan yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir[2].

Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, kontsentrik aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka — quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq—

---

[1]Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988. – С.25

[2]Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент:Ўкитувчи, 1986.- Б.118

harakat, suv ramzi va h. k. Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo'yilgan. Eneolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlangan. Ayrim yerlarda kulolchilik dastgohlarining vujudga kelishi sopol buyumlar shaklining tekis va ko'rimli bo'lishini ta'minladi.

Temir asrida kulolchilik buyumlari qo'lda hamda dastgohda yaratilgan bo'lib, ularning yuzasini bezashda, o'yma va bo'rtma naqshlar, band va tepa qismlari uchun haykalchalar ishlatilgan.

O'tmishda tuproqdan, qorachiroq, shamdon, sarxona, jamashov, xum xamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib bularga ehtiyoj bo'lmagani uchun ular yo'qolib bormoqda. Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko'p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha guruxlarga bo'linadi[1].

Loy guldon - sershirali loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, juda loyi qo'shilgan bo'ladi.

Chinni loy - yoki oq loy - yarimfoyans bo'lib, qoramtir loy oqtosh va ishqor qo'shilib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan boshqalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy - o'tga chidamli qoramtir loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy - shirachli loyga kvars qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

---

[1] Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – С.140.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qozg'og'ini aralashtirib tayyorlanadi[2].

Ko'zgar loy – 60%-70% plastik yog'li loy va 30-40% sog' tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar tayyorlanadi. Kulolchilikda shamod, gulvata, bo'yoqlar, angob, charx, mo'yqalam, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip, labgir, lagan qolip, pargor qalam, kojkord, taroq, tagi qalam, g'ujmak, tuppa va boshqalar ishlatiladi. Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib uni tepib, mushtlab pishiradilar. Loyni nam matoga loy tayyorlaydigan xona bo'lib uyni ichki qismidan hovuzga o'xshash uncha chuqur bo'lmagan jon bo'lgan. Bu hovuz pishiq g'ishtdan to'shaladi. Loyni har kuni, ya'ni 20 kungacha suv sepib pishiriladi va nam sholchani ustiga yopib qo'yilgan. Kerakligicha loyni tepib, mushtlab pishiriladi. Loyni yulib olib stol ustiga urib-urib pishitiladi, shunda loy ichida to'planib qolgan havo yo'qoladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni pechkada pishirganda o'sha bo'shliq yana kattalashib idish teshik bo'lib qolishi mumkin.

Shuning uchun qancha ko'p loyni pishitilsa shuncha sifatli maxsulot olinadi. Kulolchilik charxida idishlar tayyorlanadi. Charx asosiy qurol bo'lib, u katta va kichik yog'och g'ildirakdan iborat bo'ladi. Yog'och o'q bilan birlashtiriladi. Kulol charxning pastdagi katta g'ildiragini oyog'i bilan aylantirib turadi. Yuqoridagi g'ildirakka loy qo'yib undan idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar yaxshilab quritiladi. Chunki yaxshilab quritilmasa keyin pechda yorilib ketishi mumkin. Quritilgan idishlarni xumda qizdiriladi. Sirlanadigan idishlar sirlanadi yana xumdonda qizdiriladi. Qadimdan kulollar ma'lum idish yoki buyum bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladi. Masalan, kosagar,

---

[2]Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988. – С.134

tandirchi, ko'zagar va boshqalar deb yuritiladi. Xorazm badiiy kulol ustalari qadimda o'ziga xos texnologiyasiga ega bo'lganlar. Ular koshin, bodiya xum va boshqa kulolchilik maxsulotlari ustida beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida ko'hna Urganch tomonlaridagi qum etaklariga chiqib haftalab chog'on o'simligini to'plab uni yoqib, kulini olib kelganlar. Hozir bu o't juda kamayib ketgan. Bu o'simlikdan tashqari qora o'roqdan ham foydalangan. Sentyabr oylarida qora o'roq ayni shirachga to'lgan vaqtida faqat yashil patini yoqib kulidan ishqor tayyorlaganlar. Ustaxonaga olib keltirilgan chog'on va qora o'roqqa qum aralashtirib qo'lni namlab guvala qilinadi va xumbuzga qo'yildadi hamda uni yuqori darajada issiqlikda qizdiriladi[1]. Natijada u toshga aylanadi. Keyin esa ikkinchi marta xumbuzning tokchasiga qo'yiladi. Yuqori darajada qizdirish natijasida u pastki oxirga oqa boshlaydi va u oppoq rangga o'tgan bo'lsa tayyor bo'lgani. Agar u qoramtir tusda bo'lsa shu jarayon yana qaytadan davom ettiriladi. Hosil bo'lgan oq toshsimon ishqorni tegirmonda un holiga keltirib maydalanadi. Bu ishqor uniga yangi bug'doy unidan atala pishirib qozonda qorishtiriladi. Qozonga suv solinib bulg'ab suyuqlik holiga keltiriladi. Hosil bo'lgan xom ashyo tabiiy ishqor siri deb aytiladi. Tabiiy ishqor siridan tayyorlangan mahsulot yuziga cho'mich bilan beriladi. Pechda bu sir 1000-1200 daraja issiqlikda loyga shunday kirishib ketadiki u issiqlikka ham, sovukda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydigan bo'lib qoladi. Kulolchilikka xos bo'yoqlar tayyorlash ham o'ziga xos texnologiyaga ega.

---

[1]Темирходжаев Дж., Пўлатов Б. Ўзбекистоннинг машҳур кулолчилик мактаблари/ Тарих тафаккури. Тарихчи олимларнинг илмий-амалий маколалар тўплами. VIII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.155

Oq rang – bu rang oq tuproq gilvati va 11% gacha oqtoshni mayda qumini qo'shib tayyorlanadi. Uni aralashtirib atala holda tayyorlab buyum yuziga tekis suriladi va keyin naqsh chiziladi.

Yashil rang - mis kuyundisi kukuni qo'rg'oshin sir va o'tga chidamli tuproq, ya'ni gilvata qo'shib tayyorlanadi. Mis kukuni avval qizg'ish rangda bo'ladi, xumbuzda pishirilgan yashil rangga aylanadi.

Qora rang – qora rang 15% gilvata, marganets oksidi, lazur va qo'rg'oshin sirlarini qo'shib tayyorlanadi.

Sariq rang – yongan temir sop yoki mayda temir chikindilaridan foydalanib temir kukuni mis kozonga solinadi va unga gulvata, qo'rgoshin siri xamda suv solib ezg'ilab tayyorlanadi.

Havo rang - lojuvard, oq tosh yoki oq qum va gilvata qo'shib tayyorlanadi.

Maxsus loydan buyumlar qo'lda yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerlarida mavjudligi deyarli hamma xalqlarda kulolchilikning keng tarqalishini ta'minladi. Kulolchilik bilan dastlab ayollar shug'ullangan, kulollik charxining paydo bo'lishi bilan erkaklar ham bu ishga jalb qilingan. Idishlar maxsus o'choq va xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog'liq hududlarida yashovchi xalqlarda hozir ham mavjud. Neolit davriga oid qarorgohlarning qazib topilgan qoldiqlari o'sha davrda idishlarning tagi uchli qilib tayyorlanganligini ko'rsatadi (idishlar yerga suqib qo'yilgan). Eneolit davrida Sharq mamlakatlarida, Yunonistonda vafis sopol idishlar tayyorlash, sopoldan me'morlikda foydalanish avj oladi. Sirlash usullari kashf etilgach, kulolchilik buyumlarining badiiy qimmati osha bordi.

Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini ko'rsatadi. Davr kulolchilik

mahsulotlariga, uning turi va bezaklariga katta o‘zgarishlar kiritdi. O‘tmishda tayyorlangan shamdon, qorachiroq, sarxona, jomashov, xum singari sopol idishlarga ehtiyoj qolmadi. Guldon, tovoq, lagan kabi sopol idishlar va buyumlarga ehtiyoj katta. Me’morlikda ham kulolchilik mahsulotlari (koshin, parchin va boshqalar) keng ko‘llanilmoqda.

Kulolchilikning vujudga kelishi va taraqqiyoti tarixini qadimgi Xitoy va Gretsiya davlatlari misolida yaqqol ko’rish mumkin[1].

Xitoyning eng qadimgi san’at namunalari bizgacha kulolchilik buyumlari orqali etib kelgan. Qo’lda, dastgohsiz yasalgan turli xum, ko’za, tovoq, vazalar rangdor naqshlar bilan bezab chiqilgan. Bu kulolchilik buyumlarining yuzasi spiralsimon, to’lqinsimon, to’rsimon chiziqlar bilan bezalgan, soddalashtirilgan odam, hayvon va qushlar rasmi ham ishlangan. Bunday kulolchilik yodgorlikларn Yanshao manzilidan topilgani uchun ham ular «Yanshao madaniyati yodgorligi» deb yuritiladi. Shu madaniyat keyingi Xitoy kulolchiligi rivojida ham muhim o’rinni egalladi. Xitoyning ayrim viloyatlarida kulolchilik buyumlari qora loydan dastgohda ishlangan. Bu buyumlar nafisligi va nisbatlarining qat’iyligi bilan ajralib turadi. Bunday idishlar Lunshan manzilidan topilgani uchun «Lunshan madaniyati yodgorliklari» deb yuritiladi[2].

Miloddan avvalgi 4—3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlanib, olovda toblab pishirilgan odam haykallari (terrakotalar), odam boshini eslatuvchi ko’zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi. Bular qadimgi Xitoy madaniyatining boy va rang-barang bo’lganligidan dalolat beradi.

---

[1] Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – С.24

[2] Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988. – С.156

Miloddan avvalgi 2 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida Xitoyda birinchi bor davlat paydo bo'ldi. Bu davlatni Shan (yoki In, taxminan, er. av. XVI asr — er. av. 1027 yillar) dinastiyasi boshqardi. Shan davrida oq loydan yasalib, yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan turli xum va boshqa idishlar ham yuksak mahorat bilan ishlangan.

Antik dunyoning eng qadimgi tarixi «egey» yoki «krit-miken» madaniyati bilan boshlanadi. Bu madaniyat yodgorliklarining dastlabki arxeologik kashfiyotlari Mikena va Kritda topilgan va mo'lligi tufayli bu san'at adabiyotlarda ba'zan krit-miken san'ati deb ham yuritiladi. Kritliklar kulolchilik san'atida katta yutuqlarga erishganlar. Kulolchilik buyumlarini maxsus bo'yoqlar bilan sirlab, yuzasini turli naqsh, dengiz hayvonlari va o'simliklarning tasviri bilan bezaganlar. Meduza surati tushirilgan xum bunga yaqqol misoldir[1].

Gomer davrida hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik va u bilan bog'liq bo'lgan vazaga gul solish san'ati ravnaq topgan. Dastlabki ishlangan kulolchilik buyumlari - vazalarda qadimgi grek amaliy-dekorativ san'atining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'zalar yuzasiga geometrik naqshlar ishlangan bo'lib, ularning shakli ko'rkam, naqshlar kompozitsiyasi aniq, siluetlari qat'iy. Bu xususiyatlar buyumga o'zgacha latofat kiritadi.

Diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi Dipilon vazalari (Afina yaqinidagi Dipilon darvozasi yonidan topilgani uchun shunday deb nomlangan) shunday haraktyerda ishlangan. Gomer asri kulolchilik buyumlari ko'zalarida geometrik naqshlardan tashqari, o'simliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar uchraydi[1].

---

[1]Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўкитувчи, 1986.- С.39

[1]Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988. – С.156.

Arxaik davri amaliy-dekorativ san'at hamda hunarmandchilikning haqiqiy gullagan davridir. Ayniqsa, ko'za va boshqa kulolchilik buyumlariga surat ishlash san'ati sohasida bu davr san'atkorlari juda katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Grek ko'zalari shakl va hajm jihatidan rang-barang bo'lib, turli maqsadlarda ishlatilgan va shunga qarab turlicha nomlangan. Ko'za yuzasiga ishlangan suratlar tematikasi, asosan, mifologiyadan olingan syujet yoki hayotiy voqealarga bag'ishlangan.

Arxaika davrining ko'zaga surat solish san'ati dastlab qora figurali vazalarda namoyon bo'ldi. Bunday vazalarga qoralak bilan turli tasvirlar ishlaganlar. Ayniqsa, qora figurali vazalar ishlash san'ati VI asrning II—III choragida rivojlanib, bu sohada attikali kulollar va rassomlar nom chikarishgan[1]. Shunday mashhur ustalardan biri, rassom Klitiy bo'lgan. U jahonga mashhur bo'lgan «Fransua vazasi»ni bezagan. Vaza yuzasiga 200 dan ortiq odam tasviri tushirilgan. Qora figurali uslubda ishlangan mashhur rassomlardan yana biri miloddan avvalgi VI asrning II choragida yashab ijod etgan Eksekiy bo'lgan. Uning yaratgan kompozitsiyalari goh sokin hikoyanavislik bilan, goh o'ta harakatda tasvirlanganligi bilan harakterlanadi[2].

Rassom shu san'atda birinchi marta o'z qahramonlarining psixologik kechinmalarini yoritishga harakat qiladi. Eksekiyning ishlagan obrazlarida chiziqlar nafis, plastik, aniq va tiniqligi bilan xarakterlanadi. Eksekiyning «Qayiqdagi Dionis» deb nomlangan mashhur asari miloddan avvalgi 540 yilda ishlangan. Bu klik (klik—vino ichish uchun mo'ljallangan idish) o'zining juda to'g'ri topilgan shakli va detallarining bir-biriga mutanosibligi, tashqi va ichki bezagi buyumning mazmuniga mosligi bilan harakterlanadi. Klikning tashqi

---

[1] Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўкитувчи, 1986.- С.69
[2] Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство.–М.:Детская литература,1988.С.120

tomonida jang manzarasi va katta qilib ishlangan ikkita ko'z tasvirlangan. Bu ko'z sharob ichuvchini «yomon ko'zdan» saqlashi kerak. Ko'zaning ichki qismida esa qayiqda suzib ketayotgan vinochilik va shodlik ma'budasi Dionis tasvirlangan[3].

Miloddan avvalgi 540—530 yillarda qizil figurali vazalar ishlash keng tarqaldi. Bu vazaga gul solish san'atida realistik tendentsiyalarning ortib borishi sabab bo'ldi. Qizil figurali ko'zalarda tasvirlangan obrazlar, tasvirlar ko'zaning tabiiy rangi — pishirilgan loy rangida (qizg'ish, qizg'ish-jigar rang) qoldirilib, fon, qolgan bo'shliq esa qora lak bilan bo'yab chiqilgan. Bu uslub voqelikni real tasvirlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, miloddan avvalgi VI asrning uchinchi choragidan IV asrgacha davom etdi.Qizil figurali vazalarga ishlangan suratlarda hayotiy voqealarni tasvirlashga keng o'rin berilgan.

Klassika davrida amaliy san'at rivojlanishda davom etdi.Vazalar shaklining rang-barangligi ortdi.Ularning yuzasiga rasmlar solish bilan birga, turli bo'rtma tasvirlar ham tushira boshladilar.Rang berishda xam erkinlik sezila boshladi.Xromatik ranglar imkoniyatidan keng foydalanila boshlandi.Kumush, bronzadan turli idishlar ishlandi.Oltin suvi yuritilgan buyumlar hayotda keng qo'llanila boshlandi.

So'nggi klassika shu yutuqlarga yakun yasadi, asta-sekin vazaga gul solish san'ati inqiroega yuz tuta boshladi. Undagi individual o'ziga xoslik, fazilatlar yo'qola bordi. San'at asta-sekin hunarmandlik darajasiga to'sha bordi. Bu so'zsiz, umumellin ijtimoiy-siyosiy, madaniy inqirozi natijasi edi.

---

[3]Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўкитувчи, 1986.- С.79

1.2. O'zbekistonda kulolchilikninng rivojlanishi

Dunyoda eng katta boylik – yoshlikda
olgan bilim va egallagan kasbu hunardir
Shavkat Mirziyoev

Qadimgi O'rta Osiyo san'ati va madaniyatini o'rganishda bizgacha saqlanib kelgan qal'a, saroy, turar joy va qabrlar bilan birga zardushtiylik dini bilan borliq bo'lgan turli ossuariylar (ostadonlar) deb ataluvchi odamlar suyagini saqlash uchun mo'ljallangan sopoldan yasalgan idishlar muhim faktik material bo'lib xizmat qiladi. Bunday ossuariylar bo'rtma va dumaloq tasvirlar bilan bezatilgan bo'lib, ba'zilarida esa hayotiy voqealarni aks ettiruvchi suratlar mavjud.

Afrosiyob va O'rta Osiyoning boshqa yerdarida topilgan arxeologik qazilmalar 9—12-asrlarda kulolchilik bu yerlarda ancha rivojlanganligini ko'rsatadi, 13-asrda mo'g'ullar hujumlari oqibatida nisbatan sekin rivojlangan kulolchilik 14—16 asrlarda ancha taraqqiy etdi. O'rta Osiyoning bo'linib ketishi o'zaro aloqalar susayishini keltirib chiqardi, lekin hunarmandchilik (ayniqsa, kulolchilik) rivojlanishda davom etdi. Turli joylarda kulolchilikning turlicha uslublari vujudga keldi. Xalq ustalari ko'plab idishlar tayyorlash bilan birga ularni yuksak did bilan bezadilar. Rossiyadan ko'plab chinni mahsulotlar keltirilishi O'rta Osiyo kulollari bozorini birmuncha susaytirdi. Biroq arzon sopol idishlarga bo'lgan talab, ayniqsa, me'morlikda kulolchilik mahsulotlarining keng qo'llanilishi kulolchilikning uzluksiz rivojlanishini taqozo etdi.

Qoratog', Panjakent, Samarqand, Kitob, Shahrisabz, G'ijduvon, Xorazm, Toshkent,G'urumsaroy,Rishtonda sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublari vujudga keldi. Bu markazlarda

tayyorlangan kulolchilik buyumlari pishiq, chiroyli, nafis siri, ko‘rkam naqshlari bilan diqqatni tortadi.

XX asrning 20-yillaridan kulollar mehnatini tashqil etishga e’tibor berildi. Toshkentda tajriba kulollik, Samarqandda kulollik ustaxonalari ochildi, Toshkentda o‘quv ishlab chiqarish, badiiy sanati ishga tushdi (1932), qisqa muddatli kurslar tashkil qilindi, kulollar tayyorlash, ularning malakalarini oshirish yo‘lga qo‘yildi.

T. Miraliyev (Toshkent), R. Egamberdiyev, A. Hazratqulov (Shahrisabz), Muhammad Siddiq, Usmon Umarov (G‘ijduvon) singari kulollar yoshlarga ta’lim berdi. Kulolchilikni tadqiq etish, rivojlantirish hamda yoshlardan kulollar tayyorlashda O‘zbekiston xalq rassomi Muhiddin Rahimovning xizmatlari katta.

Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish usullariga ko‘ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg‘ona (asosiy markazlari — Rishton, G’urumsaroy), Buxoro-Samarqand (asosiy markazlari — Samarqand, Urgut, G‘ijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabog‘ qishloqlari), Toshkent. Har bir maktab o‘zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o‘zigagiva xos xususiyatlariga ega bo‘lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan.

Farg‘ona (Rishton)da kulolchilikning an’anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishqorli sir tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. M. Ismoilov, I. Komilov, U. Ashurov, U. Qosimov, Sh. Yusupov, A. Vazirov, M. Saidov va boshqa ustalar yaratgan buyumlar (lagan, kosalar, don mahsulotlari uchun katta xumlar) shakl jihatidan ham, bezak jihatdan ham rangbarangdir.

G‘urumsaroy kulolchilik buyumlariga bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xosdir, bu maktab vakili usta M. Turopov sir

tayyorlashdan tortib to naqsh chizishgacha bo‘lgan barcha ishlarni faqat an’anaviy usulda bajargan, bu an’anani uning shogirdi V. Buvayev va boshqalar davom ettirmoqda, yangi ijodiy yangiliklar yaratishda izlanmoqda (jumladan, mahobatli laganlar hajmini kichraytirish va boshqalar).

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi buyumlarining jarangdor nafisligida qo‘rg‘oshinli sir va sarg‘ish-yashil, jigarrang bo‘yoqlar muhim o‘rin tutadi. "Afrosiyob sopoli" an’analariga asoslanib tayyorlanilgan buyumlar bezagida o‘simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi, handasiy naqshlar, hayvonlar tasvirlari kam ishlatiladi. Ular, asosan, G‘ijduvon kulolchiligida qo‘llaniladi.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi boshqa maktablardan sopol xushtak o‘yinchoqlar ishlanadigan markazining borligi bilan ajralib turadi. H. Raximova an’analarini uning o‘g‘illari va shogirdi K. Boboyeva davom ettirmokda, ularning ijodida an’anaviylikni saqlagan holda o‘ziga xos mahorat ham kuzatiladi, bu ranglarda, shakl mujassamotida, yechimning mukammalligi va o‘lchamlarning barqarorligida namoyon bo‘ladi.

Xorazm kulolchilik maktabi o‘ziga xos badiiyligi, bezaklar rangi va ishlanish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi; uning milliy shaklli o‘ziga xos buyumi bodiyadir; naqsh mujassamoti handasiy va o‘simliksimon naqshlardan iborat, buyumning markaziy qismiga arabeska girih tushirish ushbu maktabga xos uslublardan. Usta R.Matchonov (Madir qishlog‘i) buyumlarga to‘q rang ishlatgan, buyum bezagida havo rang yoki rangning o‘ziga xos to‘q tusi ustunlik qiladi. S.Otajonov (Kattabog‘ qishlog‘i) oq angobdan ko‘proq foydalanadi.

XX asrning 80-yillarida kulolchilik markazlarida ishlar birmuncha susaydi. 1990-yillarda O‘zbekistonda an’anaviy

qadriyatlarga e'tiborni qaratilishi bu sohaning rivojlanishini ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasida an'anaviy amaliy san'at asarlari ko'rgazmasi (Respublika yarmarkasi)ga asos solindi. 1995 yildagi 1-Respublika yarmarkasida (BMTning 50 yilligiga bag'ishlandi) barcha kulolchilik maktabining vakillari ishtirok etdi. Ustalardan R. Zuhurov (Denov), M. Turopov (G'urumsaroy), I. Komilov (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullayevlar (G'ijduvon), Namoz va No'mon Oblokulovlar (Urgut), R. Matchonov (Xorazm), A. Raximov (Toshkent) maxsus tayyorlangan "Usta guvohnomasi"ga sazovor bo'ldi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni barcha sohalar qatorida kulolchilik an'analarini rivojlanishiga samarali turtki bo'ldi.

O'zbekistonda kulolchilik mahsulotlari Toshkent, Samarqand, Quvasoy, Bog'ot chinni, Sherobod kulolchilik va Rishton badiiy kulolchilik zavodlari hamda Angren kulolchilik kombinatida ishlab chiqariladi. Yurtimizda Angren, Olmaliq, Oqtosh va Nurobodda kaolin konlari, Sho'rsuvda kuydirganda oqaradigan gil, Chotqol va Langarda pagmatit, Zirabuloq, Ziyovuddinda dala shpati, Dehqonobod va Ғuzorda dolomit konlari mavjud.

O'zbek kulolchiligi uzok tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning ko'rinishi qismlarning aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmuninig birligi, uygunligi o'zbek kulollarining jahonga tanitib kelmoqda[1].

---

[1]Мукминова Р.Г.Социальная дифференциация населения городов Узбекистана в XV-XVI в. -Тошкент: Фан, 1985.- С.102.

Kulolchilik (keramika) ning paydo bo'lishi yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanib, ba'zan yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir.

Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, so'zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilai rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Miloddan avvalgi VI—IV asrlarga oid kulolchilik buyumlari shu davrning birmuncha ko'p faktik materialidir. O'rta Osiyo yerlaridan topilgan ko'pgina sopol buyumlar kulolchilik dastgohlarida ishlangan, maxsus pechlarda pishirilgan. Ular shu asrlarda kulolchilik hunarmandchiligi yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Bular ichida geometrik naqshlar solinib bezatilgan idishlar ayniqsa diqqatga sazovordir[1].

Miloddan avvalgi 250 yillarda Salavkiylar podsholigidan ajralib chikqan Baqtriya keyinroq Hindiston yerlarining katta qismini o'ziga qaratib olib, miloddan avvalgi II asrgacha mavjud bo'ldi. Bu davlatga greklar podsholik qilgani uchun uniig nomi Grek-Baqtriya deb yuritildi.Shu podsholikda grek san'ati ta'siri yaqqol seziladi. Amaliy san'atda ham Gretsiya san'atiga taqlid qilish yoki Gretsiya san'ati namunalaridan foydalanish keng avj oldi. Mahalliy ustalar grek kulolchilik formalaridan o'z ijodlarida keng foydalandilar[2].

Milodiy asr boshlariga kelib, O'rta Osiyo iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida jiddiy jonlanish boshlandi. Undagi qator madaniy markazlarda san'at va madaniyat borasida muhim yodgorliklar yaratildi. Shunday madaniy markazlardan biri Xorazm edi.

---

[1]Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.49

[2]Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар). – Тошкент: Шарк, 2001. – Б.102

Qo'yqirilgan qal'a, Gyaur qal'a, Tuproqqal'a harobalari, u yerlardan topilgan tasviriy va amaliy san'at namunalari shu davrlarda (ilk feodalizm, ya'ni V asrga qadar) Xorazmda ijtimoiy hayotning birmuncha intensiv bo'lganligini ko'rsatadi[3].

Qo'yqirilgan qal'a (To'rtko'lning shimoli-sharqiy qismidan 22 km uzoqlikda) er.av. IV—III asr barpo etilgan bo'lib, u o'ziga xos kompozitsiyaga ega. U dastlab dumaloq shaklda bo'lib, uning markazida diametri 44,4 metrli ikki qavatli bino, undai 14,5 metr uzoqlikda esa mudofaa devorlari bo'lgan. Bu devor keyinchalik mudofaa galereyasiga aylantirilib, tepa qismi ravoqli tom bilan yopilgan.

Bu yerdan topilgan kulolchilik buyumlari ham diqqatga sazovordir. Ular shakl jixatdan rang-barang.Sopoldan ishlangan suv idishlari, turli ko'zalar juda nafis qilib ishlangan.Bu ko'zalarning bandlari hayvon shakllari bilan, yuzasi esa hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi.

IX—X asrlarda amaliy dekorativ san'at ham yuksak bo'lgan. O'rta Osiyoning ko'pgina yerlarida kulolchilik ustaxonalari bo'lgan. Bu davrda kulolchilik ham mashhur bo'lgan. Ko'p hollarda oq fonga bo'yalgan sopol buyum yuzalariga qora qizg'ish —jigar rang bo'yoqlarda tasvirlar tushirilgan.

---

[3]Агзамова Г. Ўрта Осиё хонликлари тарихи: манбаларга оид чизгилар// Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – Б.118

XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoladi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo territoriyasida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san'atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur, go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi[1].

Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli yerlarda turlicha rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo'la boshladi. O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj seziladi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar[2].

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni ishlarni ko'plab olib keltirilishi O'rta Osiyo territoriyasida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ladi. Ular sopol ishlarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga

---

[1] Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар). – Тошкент: Шарк, 2001. – Б.204

[2] Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – С.140

ltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik axsulotlarining sifatliligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va 'sirchanligi bilan shuxrat qozondilar. 1930 yilda Toshkentda ksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari childi. 1932 yilda Toshkentda o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi shkil etilib u er xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar yyorlaydigan kurslar tashkil etildi (1943 yilda Shahrisabzda o'quv-hlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sir-srorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgatdilar. Bular ishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, g'ijduvonlik Muhammad iddiq, Usmon Umarov, Toshkentlik Turob Miraliev, Shahrisabzlik ustam Eganberdiev, Karim Xazratkulov va boshqalar edi[1].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari 'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Sopol buyumlarni sirlab bezashning o'ziga xos uslublari ujudga keldi.

XX asrda boshlaridan bugungi kunlarimizgacha Xorazmda Ko'hna Urganch (marxum Eshmurot usta), Xiva, Madir (Xonka yaqinidagi qishloq) va Kattabog' (Yangiariq) kulollar maktabi foaliyat ko'rsatmokda. Xorazmda bu qadimiy san'at avloddan – avlodga an'ana tariqasida o'tib kelgan va xozirgi kunda ham rivojlanib takomillashib kelmoqda.

XX asrda Xorazm kulolchilik maktabi rivojlanishida Rahimbergan Matchanovning o'rni tengsizdir. Xorazm kulol ustalari qadimda o'ziga xos texnologiyaga ega bo'lganlar. Ular koshin, badya, xum va boshqa kulolchilik maxsulotlari ustiga beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida qum etaklariga chiqib xaftalab «chag'on» o'simligini to'plab uni yoqib kulini olib

[1] Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре. - Ташкент: Фан, 1976. – С.148

kelganlar. Bu o'simlikdan tashqari «qora o'roqdan» foydalanilgan. Sentyabr oylarida «qora o'roq» ayni shiraga to'lgan vaqtida yashil patini yoqib kulidan ishqor tayyorlaganlar.

Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. 40 yillarda G'ijduvondagi "Namuna", Rishtonda "Yangi hayot" artellari faqat jumhuriyatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur edi.

Bundan tashqari bu davrda xususan, 1957 yildan vohada faoliyat yuritgan sovet FA Etnografiya instituti hamda 1963 yildan boshlab esa ToshDU(hozirda O'zMU)ning maxsus ekspeditsiyasi faoliyati natijasida to'plangan moddiy manbalar va ular tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlarda o'lka tarixining turli sohalari va davrlariga oid qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ekspeditsiya a'zolaridan M.E.Masson, S.B.Lunina, K.M.Obruchev,N.S.Sodiqova, A.I.Sidorenko, O.A.Suxareva, K.Tursunaliev, Z.Fayzieva, G.L.Chepelovskaya, T.Abdullaev, V.Balkov, P.A.Goncharova, V.L.Voronina, N.S.Grajdankina, D.Mirzaahmedov, E.M. Pesherova, M.K.Raximov tomonidan Qashqadaryo vohasining so'nggi o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorliklarida keng qamrovli qazish ishlari 1980-yillardan olib borila boshlandi. 1985 yildan Yakkabog' hududidagi Beklitepa yodgorligi, 1989 yildan boshlab esa Shahrisabz hududidagi O'rtaqo'rg'on yodgorligi ko'p yillik tadqiqotlar ob'ekti bo'lib qoldi, bu yerlardan ko'plab kulolchilik buyumlari topilgan[1].

Ayniqsa kulolchilikni tadbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

---

[1]Ҳамидова М.С.XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008. – Б.133.

Muhiddin Rahimov - Toshkent kulolchilik maktabining mashhur kulollaridan biri (1903). Kulol, san'atshunos, Rassomlar uyushmasining a'zosi, xalq rassomi kulolchilik hunarini qarindoshlardan o'rganadi. Turkiston xalq xo'jaligi kengashi qoshidagi Toshkent badiiy hunarmandchilik maktabi (1918-20), Moskva Silikatlar institu (1924-26) da va Leningrad (Sankt-Peterburg) Keramika instituti (1927-29) da o'qigan. U Samarqand va Toshkentdagi qadimiy me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi. Rahimov ijodida an'anaviy o'zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sovet sopolchiligi uyg'unlashgan. Ijodining dastlabki davrida yaratgan buyumlari (yirik shaklli erkin hamda quyuq bo'yalgan naqsh bezaklari) da yorqin zamindagi ko'k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozitsiya hosil qiladi. O'rta asrlar kulolchiligini yaxshi kurgan Rahimov ana'anaviy lagan, guldon va yangi shaklli bezak idishlar, portretli sovg'a buyumlar yaratdi, ularning bezagida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mazmun, hayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalanadi. Sopol materiali va bo'yoqlarini o'rganish yo'lidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keldi, masalan, 1961 yilda rus tilida "Xudojestvennaya keramika O'zbekistana" asari va boshqalar. U Hamza Nomidagi san'atshunoslik institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan (1965-71), Toshkent teatr va rassomchilik san'ati institu (1958-61) va P.Benkov nomidagi Jumhuriyat badiiy bilim yurtida dars bergan (1952-76)[1]. Rahimov yaratgan sopol buyumlar Moskvadagi sharq xalqlari san'ati muzeyi, Leningraddagi etnografiya muzeyida, O'zbekiston jumhuriyat muzeylarida saqlanadi. U Hamza mukofoti laureati (1977).

---

[1]Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиков ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000.- С.178

Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Raimberdi Matjonovdir.

Raimberdi Matjonov – Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezak san'atida alohida o'rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlar kulolchilik maktablaridan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari, koloriti, dinamikligi kishilarga estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi. Xorazmda bu qadimiy san'at avloddan-avlodga an'ana tariqasida o'tib hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ana shunday badiiy kulolchilik an'anasini davom ettirib kelayotgan Xorazm kulolchilik maktabining yirik vakillaridan biri rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekistonda xizmat kursatgan madaniyat xodimi Raimberdi Matjonovdir[1].

Raimberdi Matjonov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog'ida 1909 yili kulolchilar oilasida dunyoga keldi. O'sha davrda Madir qishlog'ida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda saksondan ortiq kulollar ishlar edi. Koshin pishirishda o'sha davrda nom qozongan ustalar Usta Bolta Matrizaev, Bolta Vaisov, Matjon Qulmatovlar bor edi. Matjon kulolning o'g'li Raimberdi o'z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. U avval loydan har xil o'yinchoqlar, shakllar yasagan bo'lsa, keyinchalik ixcham bodiya, koshinni o'rgandi. Kulolchilik sir-asrorlarini olti yil deganda o'rganib, Eshim kulolning oq fotixasini oldi. O'zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi. 1930 yili R.Matjonov kooperativ arteliga kirib kulolchilik ishlarini davom ettirdi. O'sha davrda kulllar juda kamayib ketgan edi. Uning bu og'ir ishlariga turmush o'rtog'i yordam berardi.

---

[1] Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиков ва бошк.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарк, 2000.- С.213

Usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o'rgandi. U shu o'rgangan naqshlarini kulolchilik buyumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX-XX asr Xiva koshinkorlik an'analarini boyitadigan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlangandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida naqsh chiziladi, unga sir berilib oftobda quritilib pechda qizdiriladi. Usta sirni o'zi tayyorlardi. Qoraqmuga borib, chog'on yoki kirchop yig'ib darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib maydalangan shisha uniga qo'shadi. Ya'ni uch qism kulga bir qism shisha shisha kukuni qo'shiladi. Uni biror idishda suv bilan aralshtirib tayyorlangan bodiyaga surtiladi. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlanadi. U o'tda bodiyaga urilib rangini o'zgartiradi. O'sha qum poroshogini suv bilan aralashtirib, sovitiladi hamda tozalanadi. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlaydi, so'ngra bodiya sirtiga surkaydi. Kulol Raimberdi Matjonov shu texnologiya asosida loydan xum, ko'za, tog'ora, chanoq, choynak, piyola, oftoba, bodiya va boshqa xilma-xil badiiy buyumlar tayyorladi. Xalqimiz "shogirdsiz usta mevasiz daraxt" deb bejiz aytmagan. Ustani Xorazmda sermeva daraxtga o'xshatishadi, chunki juda ko'p shogirdlar etishtirib chiqaradi. O'zbekiston xalq ustalari birlashmasi Raximberdi Matjonov ustaxonasida xunarmandchilik maktabi ochtirib, u yerda xunarmandchilik sir-asrorlarani o'rgatdi. Uning shogirdlari Davron Sa'dullaev, Amin Mirzaev Maryamjon Matjonova, Mukarrama Sa'dullaevalar hozir badiiy kulolchilik san'atini rivojlantirishda katta hissa qo'shmoqdalar. Tarixiy obidalarni ta'mirlashda usta kulolning xizmatlari katta. 1956 yili Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ta'mirlashda qatnashdi. U gumbazning pastki qismi uchun qadimgi uslubda zangori rangda koshinlar

tayyorlab bergan, ular hozirgi kunda avvalgidek rangini yuqotmay turibdi. Kulol yana ko'hna ark darvozasining ikki minorasini va me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi[1].

1975 yili xalq ustasi kumush medali bilan taqdirlandi. 1970 yildan beri rassomlar uyushmasining a'zosi Usta Raimberdi Matjonov sehrli qo'llarida sayqal topgan badiiy kulolchilik buyumlari Respublikamizning va boshqa chet ellarda masalan Vengriya, Frantsiya, Chexoslovakiya, Hindiston, italiya, Mongoliya kabi xorijiy mamalakatlarda namoyish etib faxrli o'rinlarni egalladi. Uning bodiya, ko'zacha, chanoq, koshin va boshqalari Moskva, Leningrad, Toshkent, Xiva shaharlaridagi muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Bugungi kunda kulochilikning yangi turi dekorativ monumental san'at bo'lib, uni manzaraviy kulolchilik deb ham aytish mumkin. Ma'lumki sopolning bu turi O'zbekistonda 70-80 yillarda kirib keldi. Uning eng go'zal namunalari Toshkent shaxrining chiroyiga chiroy qo'shdi. Ayniqsa Toshkentlik ustalar Kedrin, A.Raximov, E.Abramov, Yu.Kim, S.Sultonmurodov, S.Qarlixanova, F.Toshmuhammadov bu san'atning mumtoz namunalarini yaratib ko'p sonli san'at muxlislarining olqishiga sazovor bo'lishdi.

Har bir hunarni o'ziga xos mashaqqatli va o'ziga xos sir-asrorlari bo'ladi. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib o'zga bolalarga o'rgatmaganlar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganib har bir mahsulotni ayniqsa sifatiga, badiiyligicha, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyligiga alohida e'tibor berib kelganlar. Shuning uchun ular tayyorlayotgan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyligi

---

[1]Агзамова Г.А. Бухара – Амуль - Ургенч: к истории караванной дороги // Туркменская земля – колыбель древних культур и цивилизаций. Материалы международной научной конференции. Ашхабад, 1-3 октября 2008 г. – С.28

dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Ha, bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar.

Donishmandlik sharq xalqlarining qon-qoniga singib ketgan fazilat. Qadimgi Kasbi shaharchasini aylanib, ko'zdan kechirgan kishining xayolidan ana shunday o'ylar beixtiyor kechadi.

Kasbining qadimgi imoratlari Qashqadaryo viloyat Kasbi tumanining shundoqqina chekkasida qad ko'tarib turibdi. Uning tarixi mana bunday, shaharcha miloddan avval bunyod etilgan. Bu haqda qo'rg'on yaqinida bir necha bor o'tkazilgan arxeologik qazilmalar guvoxlik beradi. Bu yerda qachonlardir qal'a bo'lgan. Hozirgi mavjud qo'rg'on ana shu qal'aning bir qismi, xolos. Undagi nuragan imoratlar kishi xayolini olis asrlarga etaklaydi.

Ajab, ba'zida tarix xuddi afsona so'zlayotganga o'xshaydi. Bu yerda, shuncha davrlar o'tishiga qaramay, XI-XIV asrlarda qurilgan Sulton Mir Xaydar yodgorlik ansambli va XIV asrda bunyod etilgan machit juda yaxshi saklangan. Kasbilik komil kishilarning kabri ustiga kuyilgan yodgorliklar aloxida qiziqish uygotadi. Did bilan tashroshlangan qabr toshlariga kishilarning ismi sharqona nozik xusnixatda mahorat bilan yozilgan. Marmar yodgorliklarga solingan naqshlar uzoq asrlarda yashagan ustalarning yuksak didi va san'atidan avlodlarga tulib-toshib suzlaydi. Qadimgi Kasbi ko'chalarida yurish juda qiziqarli, har bir hovli, har bir gumbaz, uylarning har bir devori qarshisida bir daqiqa to'xtab qolasan, xayolan o'rta asr voqealari, odamlari bilan uchrashib, ularning tashvishlarini, quvonch va g'amlarini tuyasan. Shundoqqina gumbaz sahnining qarshisidagi baland tepalik necha martalar sayillarning guvohi bo'lgan va necha martalar yulduzlarga elka tutgan. O'rta asrlarda Kasbi ana shunday

bo'lgan va u bizning kunlarimizgacha mavjud obidalarga o'z izlarini saqlab qolgan.

Kasbining yana bir diqqatga sazovor joyi borki, bu sardobadir. Sardoba sharqda suv saqlaydigan birdan-bir joy hisoblangan. Bunday katta suv sig'imli hajmdagi sardobani boshqa biron joyda uchratish qiyin.

Qarshi vohasida Kasbining paydo bo'lishi tasodifiy emas. Chunki u Samarqanddan Hindistonga, Buxorodan Afg'onistonga, Rossiyadan Eronga o'tadigan karvon yulida joylashgan. Yana shu manzillarga otlangan har qanday sayyoh albatta suv ichib, dam olish uchun Kasbiga qo'nmasdan o'tmagan.

Xuddi ana shu munosabat tufayli Kasbida kulolchilik rivoj topgan. Kulol bu erning dastlabki hunarmandi, asosiy kishisi sanaladi. Uning dastgohida sayqal topgan idishlar bu yerdan o'tgan karvonning nazariga tushgan va unga yo'lda asqotgan. Ma'lumki, har qanday bosqinchi ham, har qanday qudratli lashkar ham suvsiz uzoqqa borilmaydi. Shuning uchun ham suvni zarga tenglashtiriladi. Kasbi kulollari yasagan xumlarning har biriga 50-100 litrdan suv ketadi[1].

Kulolchilik hunar ham oson, ham qiyin. Osonligi shundaki, u hamma narsani tuproqdan yasaydi, qiyinligi esa, ta'bir joiz bo'lsa, kulol - insonning mexanizatsiyalashgan mehnatiga asos solgan kishidir. Chunki uning oddiy buyum yasash niyatidan ixtiro qilish fikri tug'ilgan, ya'ni narsalar yasash jarayonida dastlabki mexaniq dastgohni joriy qilgan. Qancha-qancha hukmdorlar beiz o'tgan, qanchalab shohlar unutilgan, lekin kulollarning hunarlari avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. U dastgoh yonida o'tirib, qadim zamonlardan beri tuproqqa sayqal berganibergan.

---

[1]Ҳамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008. – Б.134

Bugungi kunda bu yerda kulollarning o'nlab sulolalari bor. Qishloqdan o'tarkansiz, diqqatingizni hovlilarning devorlariga suyab ko'yilgan ko'zalar tortadi. Ular orasida yarim litrdan tortib, to'rt-besh chelak suv ketadigan xumlar ham uchraydi. Sardoba XIV- XV asrlarda qurilgan, degan taxminlar bor. Uning chor atrofida sopol parchalari tuproqqa qorishib yotibdi. Bu parchalar ko'pgina urushlardan, suronlardan nishona. Shu bilan birga bu yerda katta bozor bo'lganlidan ham dalolat beradi.

Oloviddinning sexrli chirog'i xaqida kim bilmaydi, deysiz. Aytishlaricha, Oloviddin ham Kasbida tug'ilib, shu yerda yashagan ekan. Uning otasi sardoba atrofida suv sotar ekan... shuning uchun bo'lsa kerakki, bugungi kunda ham Oloviddinning o'sha sahrli chirog'ini Kasbidagi har bir xonadonda uchratish mumkin. To'g'ri, bu chiroq bugun uylarni yoritish uchun ishlatilmaydi, u faqat ota-bobolardan qolgan muqaddas yodgorlik sifatida saklanadi[1].

Bu chiroq deyarli har bir kulolning do'koniga osig'liq. Ularning do'koni hamma narsa hisobga olingan holda mohirlik bilan qurilgan bo'lib, eni 2,5-3 metr, uzunligi 5-6 metr keladi. Do'konning burchagida mo''jazgina xumdon o'rtasida dastgoh, xuddi shu yerda yillarning suronini qog'ozga tushiradigan yilnomachiday kulol goh o'tiradi, goh loyga sayqal beradi va buning natijasida xum va ko'zalar yasalib, naqshlar bilan bezaladi. Uning ishi shoshqaloqlikni yoqtirmaydi, unga nechog'li hushyorlik bilan, ko'ngil berib ishlash kerak. Shundagina kulol qo'lidan chiqqan har bir buyumni chertsangiz jaranglaydi.

Kasbi qishlog'i va u yerda mavjud kulollikning qadimiyligi ko'plab yozma manbalarda qayd etilgan. VIII-XII asrlarda yashagan

---

[1]Темирходжаев Дж., Пўлатов Б. Ўзбекистоннинг машҳур кулолчилик мактаблари/ Тарих тафаккури. Тарихчи олимларнинг илмий-амалий мақолалар тўплами. VIII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.157

Arab geograf va sayyohlari Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiylarning yozuvlariga ko'ra, ko'hna Kasbi manzili o'rniga vujudga kelgan Kasbi qishlog'i ilgari Nasafdan ham katta bo'lgan, unda bir necha yodgorliklar saqlanib qolgan. Ular katta tepalik Kasbi shaharchasi ortida bo'lgan; bu haqda Qarshi shaxri gullab yashnagan paytlarda Mahmud ibn Vali shunday yozgan: "Abdullaxon shayboniy hukmronlik qilgan kezlarda ... uning tasarrufida qishloq va ovullar ko'p edi. Ular jumlasida Kasbi xuddi jannat bog'ni eslatardi".

Lekin har qanday kitobdan ko'ra ham Kasbi o'zining o'tmishi haqida o'zi to'laroq ma'lumot beradi, bunga uni borib ko'rgan, ko'chalarda yurgan, saqlanib qolgan yodgorliklari oldida bir lahza turgan odam ishonch hosil qiladi.

Ustozoda Bozor Itolmasov 1947 yil 15 may Kasbi tumani kulol-hunarmand oilasida tavallud topgan. 1954-1964 yillarda Kasbi tumanidagi 20-o'rta maktabda ta'lim olgan. Bozor Itolmasov kulol oilasida tug'ilganligi sababli yoshligida shu kasb ichida o'sib ulg'aydi. Ota-bobosi yasagan sopol ko'za xumlarni ko'rib uning kulolchilik san'atiga bo'lgan qiziqishi erta boshlandi. U kulolchilik san'atini otasi Itolmas Ochilovdan o'rgangan. 1961 yildan boshlab mustaqil ravishda sopol buyumlarni yasay boshladi. 1996 yildan bir qancha respublika, viloyat va shahar ko'rgazmalarida qatnashib keladi. Hozirda Qashqadaryo viloyat "Hunarmand" uyushmasiga a'zo. Ustozoda Bozor Itolmasov ota-bobolaridan qolgan hunarni davom ettirib, Kasbi kulolchilik san'atini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda[1].

Bu ish bilan shug'ullanuvchilarni eng ulug'i sobiq hunarmand uyushmasi a'zosi Anbara Sattorova.Usta 1910 yil Kasbida kulol

---

[1]Ҳамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008. – Б.139

oilasida tug'ilgan. U kishi yasagan uyinchoqlar bilan o'ynamagan Kasbida topilmasa kerak.Bayramlarda, sayllarda usta o'zi yasagan o'yinchoqlar bilan bolalar dilini xushnud etganlar.Bayramlar boshlanaversa ammamizni uzoq joylarga o'z ishlari bilan olib ketishardi - deydi ustaning jiyani Baxtiyor Sattorov[1].

Usta Ochilov Faxriddin 1966 yil 24 may Qashqadaryo viloyat Kasbi tuman Kasbi qishloqida usta kulol Itolmas Ochilov oilasida dunyoga keldi. Uning bolalik yillari shu qishloqda o'tdi. 1972-1982 yilarda Chexov nomidagi 20-maktabda tahsil olgan. Yosh Faxriddinni uyda yasayotgan bir-biridan go'zal ko'zalar, xumlar, kosalar va shunga o'xshash uy-ro'zg'or buyumlari unda kulolchilikka bo'lgan ishtiyoqini uyg'otdi. Otasi yordamida loyna qanday tayyorlash usullarini chuqukr o'rganib oldi. 1972-1982 yillarda Chexov nomli 20-o'rta maktabni tamomladi. Yosh ustaning birinchi yasagan guldoni unda o'ziga xos zavq bag'ishladi. So'ngra ko'za, xum, kosa va boshqa kulolchilik buyumlari yasashni mashq qila boshlaydi. Hozirgi kunda ustani o'z ishining mohir ustasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ustaning qo'l ochtidagi shogirdlari ham ustani izidan borib uning ishlarini davom ettirmoqda[2].

---

[1]Ҳамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008.– Б.134.

[2]Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – С.178

I-bob bo`yicha xulosa

Jahon va O'zbekistonda kulolchilikning vujudga kelishi mavzusiga bag'ishlangan ushbu bobda Qadimgi kulolchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi, O`zbekistonda kulolchilik san`atining rivojlanishi, unda tarkib topgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Shaxrisabz, Andijon, G'urumsaroy, Rishton kulolchilik maktablar haqida ilmiy ma`lumotlarni taxlil qildik. Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqal`a, Varaxsha kabi qadimgi o`nlab yodgorliklarni arxeologik tekshirish natijasida turli uslubdagi noyob kulolchilik buyumlari va ularni bezaklarining qarayib 2000 yil davomidagi taraqqiyot bosqichlarini o`rganib chiqdik. Amaliy san`atdagi xususan kulolchilikdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi, kulolchilik san`atidagi etnik-madaniy an`analar to`g'risidagi ma`lumotlar, ilmiy manbaalar taxlil qilib chiqqanimizda ustoz shogirdiga nafaqat amaliy san`atning sir-asrorlarini o`rgatgan, balki o`z shogirdlarining diliga bir qator insoniy sifatlarni singdirib borib kasbiy va ma`naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdek xayrli ishni bajarib borgani haqida ham qimatli ma`lumotlarga ega bo`ldik. Rishtonga xos bo`lgan loy va sopolga ishlov berishning texnologik jarayoniga alohida to`xtalib o`tdik. Avloddan avlodga o`tib kelayotgan ustlarning merosini yo`q bo`lish va qayta vujudga kelishiga oid tarixi jarayonlar ham o`rganib chiqildi.


II bob. Rishton kulolchiligining shakllanishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati va kulolchilik maktabining vujudga kelishi

2.1. Rishton kulolchiligining vujudga kelishida "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati

Vatanimiz xalqlari tarixida "Buyuk ipak yo`li" katta ahamiyatga egadir. Qadim-qadim zamonlar tarixiga ko'z tashlar ekanmiz, jamiyat taraqqiyotini bronza davridan ham ilgarigi davrlardan boshlab hududlararo bog`lovchi vosita sifatida unga hos ihtisoslashgan yo'llar paydo bo'lganligini ko'ramiz. Tarixda miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Eron ahamoniylari saltanati davrida uning hududi bo'ylab "shoh yo'li" o'tgan. Undan ham ilgariroq O'rta va Yaqin Sharqda Badahshon lazuritiga bo'lgan ehtiyoj "lazurit yo'li"ning vuzudga kelishiga sabab bo'lgan. Badahshon lazuritlari Mesopotamiya va Misr podsholari saroylarini, ibodotxonalarini bezagan, ayollarning turli bezaklarini ishlashda keng qo'llanilgan. G`rb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir- biriga bo'g'lab kelgan qadimga yo'llardan biri "Buyuk ipak yo'li" dir/ Bu yo'lga fanga "Ipak yo'li" nomi bilan faqat XIX asrning 70- yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinant Fon Rixtgofen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo'l "G`arbiy meridional yo'l" deb atalar edi. Ana shu karvon savdo yo'lini asl mazmunini tashkil etgan ipak qachon va qaerda paydo bo'ldi, degan masalada fanda har xil qarashlar bor. Bu to'g'rida turli hilda rivoyat va afsonalar to'qilgan.

Fanda ipakning vatani Xitoy deb tan olinganli sir emas. Ammo hind olimi Mukerji Hindistinda ipakning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq va ishonarli ma'lumot bera olmasada, u ipakning Xitoyda paydo bo'lib u yerdan boshqa yerlarga tarqalganligi haqidagi fikrga qo'shilmaydi. U Hindistonda ham tog'li tumanlarda yovvoyi ipak qurti tut daraxtlari ustuda pilla o'rashlarini ta'kidlaydi. Xitoyda ipakning paydo bo'lishi haqida juda ko'p rivoyatlar bor. Xitoy hukmdori Chin Chong ipak va ipak qurti, tut daraxti maydonlarining kengaytirish haqida katta g'amho'rlik qilgan. Rivoyatlarning birida miloddan avvalgi 2698 yilda, yana bir rivoyatda esa miloddan avalgi 2600 yilda Xitoy malikasi Si Ling Chi bog'da,

tut daraxtlari soyasida choy ichib o'tirgan paytida, uning piyoyalasiga yuqoridan pilla tushib, issiq choyda yumshab, uning tolalari yoyilib ketadi. Malika Si pilla iplarini piyoladan olib tashlashga qancha urinmasin, uning uzundan-uzun tolalari chuvalib bo`lmaguncha choyni ipak ipdan tozalay olmaydi. Rivoyatda aytiliyshcha, pilla tolasini olish usuli ana shu voqeadan so`ng ma'lum bo`lgan. Xitoy xalqi pilla kalavasini topib olishni Osmon xudosi - Si Ling Chiga bog'laydi. Si - bu Osmon xudosining nazari tushgan malika, deb u ilohiylashtirilgan va unga atab ibodatxonayalar qurilgan. Hozirgacha Xitoyda malika Siga atab har yili ipak bayrami, o'tkazilar ekan. Xitoy yilnomalari Fu Gi ismli hunarmandning miloddan avvalgi 3400 yilda musiqa asbobi yasab, uning torlarini ipakdan qilganligini xabar beradi. Xullas, ipakning vatami Xitoy bo`lganligiga shubha yo'q. "Ypak yo`li" Xitoydagi ana shu ipak savdosi bilan bog'langan yo`ldir. Xitoyda ipakchilikning dastlab keng tarqalgan joyi Xuanxe daryosinint quyi havzasida joylashgan Shandun viloyatidir. Qadimgi Xitoydagi Sian shahri (Shensi viloyati) «Ipak yo`li»ning boshlanish nuqtasi hisoblanada. Yunon muarrixlarining ma'lumotlariga qaraganda Xitoy ipagi Shimoliy Qora dengiz tumanlarida va Yaqin Sharq mamlakatlarida miloddan avvalgi V asrdan boshlab ma'lum. O'rta Osiyo hududlarida esa Sopollitepada olib borilgan izlanishlarga qaraganda, ipakchilik janubiy viloyatlarda bronza davridan (miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalaridan) mavjud bo`lgan. Sopollitepadan topilgan ipak matolari Xitoydan keltirilgan matolarmi yoki shu yerning o`zida etishtirilgan matolarmi, degan masala hozircha javobsiz qolmoqda. Akademik A.Askarov ma'lumotlariga qaraganda «Buyuk ipak yo`li» yuqorida ta'kidlanganider Xitoyning qadimti markazi Siandan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga keladi. Bu yerda u ikkiga ajraladi. Ipak yo`lining janubi-garbiy tarmog'i Taklamakon sahrosi orqali Xotanga, undan Yorkentga kelib, Pomir tog'ning daralari orqali Vahonga, undan Baqtriyaning bosh shahi Zariaspga (Balx) kelgan. Balxda yo'l yana uch tarmoqqa ajraladi, g'arbiy tarmog'i Marvga, janubiy tarmog'i Hindistonga, shimoliy tarmog'i Termiz orqali Darband, Nautak, Samarqandga qarab ketadi.



B U Y U K I P A K Y O ' L I X A R I T A S I

«Ipak yo`li»ning shimoli-g'arbiy tarmog'i esa, Dunxuandan Bami, Kuchi, Turfan orqali Tarim vohasiga – Qashg'arga boradi. U yerdan Toshqo'rgon orqdli O`zgan, O'sh, Quva, Axsikent, Popga, undan Asht dashti orqali Xo'jand, Zomin, Jizzaxga, so`ngra Samarqandda Nautak yo`li bilan birlashadi. Yo`l Samarqanddan g'arbga - Dobusiyaga, Malik cho'l orqali Buxoro va Romitanga, undan Varaxsha orqali Boykent va Forobga borib Amul shahriga o`tadi. Amulda Marvdan Urganch tomon Amu buylab ketayotgan yo`lga qo'shilgan. Qadimda Marv shahri o`zining qadimiy an'analari va turli yo'nalishdagi karvon yo'llari tutashadigan geografik qulayliklariga ko`ra ipak yo`lidagi eng yirik shahar edi. Shuning uchun ham Marvda mahalliy din - zardushtiylik ibodatxonalaridan tashqari Hindistonning buddа, Vizantiya xristian olamining tayanchlari bor edi. Qadimgi «ipak yo`li» singacha shu mintaqadan «lazurit yo`li», «shoh yo`li» asosida Marvdan G'arbga tomon katta karvon, savdo yo`li bo'ylab Xiton, Hindiston va O'rta Sharqni Yaqin

Sharq va O`rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lab turadi. Tarixiy yozma manbalar va arxeologiyaga oid ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Marvdan g'arbga tomon yo'nalgan «ipak yo`li» Tabriz va Parfiya davlatining Nisa shahri orqali Eronning Gekotompil, Apaliya va Ekbatana (Hamadon) shaharlariga va ulardan o'tib Mesopotamiyaning Ktesafon va Bog'dod shaharlariga tarqalgan. Undan Dajla, Frot daryosining o'ng sohili bo'ylab shimol tomon yo'nalib, Antioxiya (Antokiya) orqali Damashqqa, undan Tir va Quddus shaharlari orqali Misrga o'tgan. Marvdan chiqqan shimoliy yo`l esa Amul orqali Urganchga, undan Shimoliy Kaspiy bo'ylab Shimoliy Kavkazga, so`ngra Qora dengizning shimolidan Konstantinopolga borib, Bosfor va Dardanell orqali O`rta Yer dengiziga o'tib, Vizantiya shaharlarini oralagan. «Buyuk ipak yo`li» orqali Sharq va G'arb mamlakatlari va elchilik aloqalari qilganlar. Jumladan, Xitoy hukmdorlari o`z elchilarini katta sovg'a-salomlar bilan O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Kichik Osiyo davlatlariga yuborganlar. Manbalarda Xitoy sayohi Gan In 97 yilda Fors qo'ltig'igacha borib etganligi xabar qilinadi. Makedoniyalik May Titsian esa 100 yilda Lanchmodgacha etib borganligi manbalarda ta'kidlanadi. O'rta Osiyoliklarva eronliklar, Xitoy bilan Vizantiya yoki osiyoliklar va eronliklar, Xitoy bilan Yaqin Sharq davlatlari o`rtasida bevosita savdo aloqalarini rivojlanishdan hech qachon manfa'tdor bo'lmagablar. Chuiki bu harakatning «ostida» juda katta iqtisodiy manfaat siyosati bor edi. Shu boisdan ham "Ipak yoli" uchun III asrdan boshlab Eron bilan O'rta Osiyo o'rtasida hayot- mamot kurashi kuchaydi. Eron va Parfiya o'rtasida qattiq janglar bo'ldi. O'rta Osiyo orqali Xitoydan g'arbga o'tadigan savdo karvon yo'llari doimo so'g'diylar nazorati ostida edi. So`g'dlik savdogarlar o'zlarining bu yo'ldagi hukmronliklarini saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Yenisey sohillariga qadar bo'lgan hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shamsiy viloyatida, Dunhuan shahrida III- IV asrlarda ming ho]jalikdan iborat So'g'd qishloqlari qad ko'targan. So'g'dlar IV-V asrlarda tarkib topgan va Turfondan Shimoliy Mo'g'ulistonga tomon ketgan uyg'ur yo'li, VIII asrda qaror topgan va Sharqiy Turkistondan Jung'oriya orqali Xaqasiyaga borib yetgat qirg'iz

yo'lidan ham foydalanganlar. Bu yo'llar ichida Dunhuandan shimoli- g'arbga ketgan ipak yo'li alohida ahamiyatga ega edi. Bu yo'lning ahamiyati Xitoy hukumatiga Xan sulolasining hukmdori U- di tomonidan Sharqiy Turkiston xunnlariga qarshi ittifoq izlabm, Qang'uyga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi, saroy zobiti Chjan Syan orqali ma'lum bo'lgan. Bungacha Xitoy G'arbiy meridional yo'lidan foydalanilgan. Bu yo'l oraqali Xotan nefriti Xitoyning markaziy viloyatlariga miloddan avvalgi II ming yillikdan kela boshlagan edi. Nefrit savdosi yuedji qabila ittifoqi asosiy vositachi bo'lgan. Xan sulolafsi davrida ana shu nefrit savdo yo'li orqali Sharqiy Turkistonga ko'plab ipak matolari borardi. Xitoy bu yo'lni iqtisodiy zaruruiyat tufayli qo'lga kiritishga harakat qildi. Biroq miloddan avvalgi 165 yilda bu yo'l hunlar qo'liga o'tdi. Ular bu yo'l uchun kurashib yuejiylarni Xotan, Turfon, Qashg'ar vohasidan g'arbga siqib chiqardilar. Xunllar hatto Shimoliy Xitoy erlariga ham da`vogarlik qildilar. Natijada Xitoy o'sha davrning qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Qang'uyga yaqinlashishga majbur bo'ldi. Shu boisdan ham Xitoy hukumdori U-di Chjan Syanni miloddan avvalgi II asrda Qang'uyga yuborgan. Ammo yo'lda hunnlar qo'lida 10 yil asirlikda bo'lib, Qang'uyga etib brogan bo'lsada o'z maqsadiga eta olmagan. Shundan keyin Xan podshosi U-di Farg'ona (Davanga) ko'z tikib, miloddan avvalgi 104- 101 yillarda bu hududga ikki marta harbiy yurish qiladi. Shimoliy – g'arbiy ipak yo'li faqat iqtisodiy jahatdagina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, ayni payitda u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta`minlovchi yo'l ham edi. Budda dini huddi mana shu yo'l bilan Xitoyga Markaziy Osiyo orqali kirib kelgan. IV-III asrlarda Xitoyning tashqi olam bilan har sohada aloqalari kengayadi, buddizim kebg yoyiladi, O'rta Osiyobibg moddiy va manaviy qadiryatlari keng ko'lamda Xitoyga tarqakadi. Xitoyda ipakchilik hususan ilk feodalizm davrida yuksak darajada rivojlandi. Xitoy hukumdorlari yollagan turkiy suvoriylariga ipak parchalaridan hom ashiyo tarzida maosh to'laganlar. Ipaklar Xitoydan arzon narhlarda O'rta Osiyoga So'g'd savdogarlari orqali olib kelingan. Xususan Samarqandlik so'g'dlar halqaro

savdoda ustasi farabg bo'lganlar. Qadim zamonlarda savdogarlar halq orasida eng nufuzli, obro'li, mo'tabar insonlar edilar. Chunki ular faqat mol olib, mol sotuvchi va undan foyda oluvchi jamiyatni boy qatlamigina emas edilar, balki uzoq safarlarga katta savdo karvonlari bilan boruvchi savdogar elchilar, ziyo va madaniyat, yangiliklar tarqatuvchilar, u yoki bu hududdan yangi joylarga ilg'or ho'jalik ihtirolarini olib boruvchi nufuzli kishilar ham bo'lganlar. Ayni vaqtda o'zga mamlakatlarning urf-odatlari, kuci va qudrati, hududiy joylashishi, tabiyati va davlatni boshqarish tizimini chuqur bilishda o'ta hushiyor davlat ayg'oqchilari ham bo'lganlar.

Rishton – Buyuk Ipak yo'lida tashkil topgan, Farg'ona vodiysining eng qadimiy shaharlaridan Biri. Qadim zamonlardan Markaziy Osiyodagi eng yirik ajoyib sirlangan sopol buyumlar markazi hisoblanadi. Shahar nomi joylashuv joyiga ko'ra, kulol tuprog'i qizil gil – qizil rangga ega bo'lib, qadimiy so'g'd "Rash" ("Rush", "Rushi") – "qizil yer" so'zidan paydo bo'lgan.

O'rta asrlarda bir tomondan Xitoy va Hindiston, boshqa tomondan Eron va Yaqin SHarq karvon yo'llari chorrahasida joylashgan Rishton tez sur'atlarda rivojlanib, Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy to'xtash joyi hamda savdo-sotiqning asosiy markaziga aylangan. Keyinchalik bu yerda jome masjidi qurilgan. Shaharda kulolchilik: Daxbed, Chinnigaron, Kuzagaron, Kulolon mahallalari joylashgan.

XIV asrda ko'plab kulollar Amir Temur va avlodlarining Buyuk qurilish loyihalarida ishtirok etish uchun Samarqand shahriga ko'chib kelishlariga to'g'ri kelgan. Biroq, Temuriylar sulolasining tanazzulga uchrashi bilan, Rishton ham inqirozga uchradi.

Vatanimiz xalqlari tarixida «Buyuk ipak yo`li" katta ahamiyatga egadir. Jamiyat taraqqiyotining bronza davridan ham ilgari davrlarda ham hududlarni bog`lovchi vosita sifatida unga xos ixtisoslashgan yo`llar bo`lganligini va bo`layotganligiga tarix guvoh. Tarixda VI-IV (Miloddan avvalgi v) asrlarda Eron ahamoniylari saltanati davrida uning hududi bo`ylab, «SHoh yo`liga" o`tgna. Undan ham ilgariroq o`rta va Yaqin Sharqda Badaxshon lazuratiga bo`lgan

ehtiyoj "lazrut yo`li"ning vujudga kelishiga sabab bo`lgan. Badaxshon lazurutlari Messopotamiya va Misr podsholari saroylarini ibodatxonalarini bezagan, ayollarning turli bezaklarini ishlashga keng qo`llanilgan. Yana takroriy suratda aytish mumkinki, Bronza davridagi (miloddan avvalgi III-II ming yillar) ana shunday yo`llardan biri "Lojuvard yo`li" deb atalib. Uning bir tarmog`i Badaxshon, Baxtriya va Marg`iyona hududlarini Xorazm, So`g`d. Markaziy Qozog`iston va Ural Bilan bog`lagan yana bir tarmog`i esa, Baxtriya va Marg`iyonani Mesopotamiya bilan bog`lagan. Badaxshon lojuvardning hind vodiysi. Mesopotamiya va Misrddan topilishi bu qimmatbaxo vodiysi. Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi. Yuqorida aytilganidek, qadimgi yo`llardan biri, Eron, ahmoniylarning yo`li bo`lib, bu yo`lning bir tarmog`i miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O`rta yer dengizi bo`yidagi Efio, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog`langan bo`lsa, yana bir tarmog`i Eron, Baxtriya, orqali So`g`diyonaga, Toshkent vohasi va Qozog`iston hududlaridan o`tib Oltoygacha borgan.Miloddan avvalgi 138 yilda Xitoy imperatori U-di Chjan Tsyanni O`rta Osiyo yerlariga jo`natadi.

Elchi Chjan u-di (Miloddan avvalgi v. 138-126 yillarda) Xitoyning xunlarga qarshi kurashi uchun ittifoqchi izlab kelgan edi. miloddan avv II asrlarga kelib Chjan Tsyan yurgan yo`llarda Xitoyni O`rta va G`arbiy Osiyo bilan bog`laydigan karvon yo`li paydo bo`ladi va nihoyat g`arb bilan Sharqni bir necha yillar davomida bir biri bilan bog`lab kelgan ana shunday qadimgi yo`llardan biri-"Buyuk ipak yo`li"diri. Bu yo`l fanga "Ipak yo`li" nomi bilan faqat X1X asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rityufen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo`l "G"arbiy merednopal yo`l" deb atalar edi. Anna shunday karvon va savdo yo`lining asl mazmunini tashkil etgna ipak qachon va qayerda paydo bo`ldi, degan masalada fanda har xil qarashlar bor.Rivoyatlardan birida miloddan avvalgi 2698 yilda, yana bir rivoyatda esa miloddan avvalgi 2600 yilda Xitoy malikasi Si Ling Chi bog`da tut daraxtlari

soyasida choy ichib o`tirgan paytida, uning piyolasiga yuqoridan pila tushib , issiq choyda yumshab, uning tolalari chuvalab bo`lmaguncha choyni ipak ipdan tozalab olmadi. Rivoyatda aytilishicha, pilla tolasini olish ana shu rivoyatdan keyin boshlangan. Xitoy xalqi pila kalavasini topib olishni osmon xudosi Si Ling Chiga bog`laydi.Si bu osmon xudosi nazari tushgan malika, uni ilohiylashtirilgan, unga atab ibodatxonalar qurgan. Hozirgacha Xitoyda unga atab ipak bayramlari o`tkaziladi.

"Ipak yo'li" savdosida Xitoy manbalariga qaraganda otlar alohida ahamiyat kasb etgan. Otlarning bahosi ipakning bahosi singari juda yuqori bo'lgan. VIII asr boshida bitta otning bahosi 40 tahlam ipakka teng bo'lganligi ta`kidlanadi. IX asrning birinchi yarmida esa 100 ming otga bir million tahlam ipak bergan. Ayniqsa Tuva, Xaqasiya, Oltoy, Farg'ona vodiysi va Ettisuv viloyatlarida yetishtirilgan otlar zotdor va bebaho bo'lgan.

Yozma manbalardagi malumotlarga qaraganda III-VII asrlarda O'rta Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati so'g'dlarning qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asr o'rtalariga kelib, "Ipak yo'li" Temur va Temuriylar nazorati ostida o'tdi. "Ipak yo'li" orqali Xitoydan G'arb mamlakatlariga, asosan, ipak ilk o`rta asrlardan boshlab qog'oz chiqarilgan bo`lsa, g'arb mamlakatlaridan Xitoyga shisha, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, palos, oyna, metall, zebi- ziynat bezaklari, qimmatbaxo toshlar: lazurit, biryuza, serdalik har xil dorivorlar, arg'umoq otlar olib borilgan.

Mil. avv. 1 ming yillikning so`nggi choragida O`rta Osiyoning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida ham qadimgi (antik) davlatlar rivojlanadi. Xususan, mil. avv. II-I asrlarga oid Xitoy manbalari dehqonchilik va chorvachilik, ayniqsa yilqichilik keng rivojlangan **Dovon (Davun, Farg`ona)** davlati haqida ma'lumotlar beradi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Dovon davlati ma'lum siyosiy uyushmani tashkil etgan bo`lib, davlatni boshqaravchi hukmdor manbalarda "van" (podsho) unvoni bilan ish yuritgani ta'kidlanadi. Davlat hukmdori maralakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo`lgan oqsoqollar kengashiga

tayanib ish ko`rgan. Oqsoqoliar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba'zan uiar hukmdorning taqdirini hal etganlar.

Manbalar Dovon davlatining poytaxtlari - bosh shahar Ershi va ikkinchi shahar Yuchen (davlatning sharqida) haqida ma'lumotlar beradi. Tadqiqotchilar bosh shaharni Marhamat (Atvdijon vil.) va ikkinchi shaharni Shurabashot (o`zgand vohasi Qirg`.) o`rnida bo`lgan deb hisoblaydilar. Farg`ona vohasi hududlarida ko`chib yurgan chorvador va ko`chmanchi qabilalar Dovon tarixida muhim ahamiyatga ega bo`lganlar. Bu qabilalar uchun Farg`ona madaniy va hunarmandchillk markazi hisoblangan.

Mil. avv. II asrdan boshlab Qashg`ardan Dovonga shimoliy yo`ldan karvon yo`li harakati boshlanadi. Bu yo`ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xatqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Dovon aholisi ko`paya boshlaydi va ko`plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydp bo`ladi. Savdo yo`lida Dovon muhim ahamiyatga ega bo`la boradi. Tadqiqotchilar fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida ko`pgina qal'alar savdo yo`lini qo`riqlash maqsadidabarpo etiladi.

Mil. avv. 125-yilda Dovonga kelgan mashhur Xitoy sayohatchisi Chjan Syan Dovonning qishloq xo`jaligi haqida ma'-lumot berib, shunday . yozadi: "O`troq aholi yer haydaydi, g`alla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzurn, juda ko`plab yaxshi otlar bor". Bu ma'lumot qadimgi Farg`onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o`zlari uchun notanish bo`lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbada yana shunday ma'lumot bor:"Xitoy elchisi urug` keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy irnperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi".

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg`ona chorvachiligining o`ziga xos tomoni bo`lgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham ma'lumotlar beradi. Dovon o`lkasi qadimgi (antik) davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma'lum bo`lishicha, ularni yetishtirish bilan o`troq aholi shug`ullangan. " Dovonda yaxshi otlar bo`lib ular Ershi

shaharidadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo`lmaydilar". Dovonning mashhur "samoviy otlari" tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O`shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovdagi qoya adirlarda 30 ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o`xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Dovon o`zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo`lganligini tasdiqlabgina qoJmay, farg`onaliklarning yuksak tasviriy san'at sohiblari bo`lganligidan ham dalolat beradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, qo`shni davlatlar, xususan Xitoy imperatorlari Dovon otlarini nihoyatda qadrlaganlar. Otlar va Dovonning serunum yerlari uchun mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy va Dovon O`rtasida harbiy to`qnashuvlar ham bo`lib o`tgan. Bu to`qnashuvlarda dovonliklar o`z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo`lganlar.

Milodning I-II asrlarga kelib qadimgi Farg`ona aholisining o`troq dexqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko`tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg`ona vodiysida bu davrga oid ko`p sonli aholi manzilgohlari, qal'alar, qo`rg`onlar, ko`hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyning turli hududlarida keng yoyilishi sug`orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilik markazlari bo`lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Bu davrga oid arxeologik topilmalar dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunaimandchilikning ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Bu jarayon o`z navbatida hunarmandchilik va tog`-kon sanoatining (turli ma'danlar qazib olish) yanada rivojlanishi uehun keng imkoniyatlar yaratdi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi va qadimgi yo`llarning mavjudligi tufayli Farg`ona vodiysida Sharqiy Turkiston bilan olib borilgan tashqi savdo bilan bir qatorda, atrofdagi tog` vodiylarida yashovchi chorvadorlar bilan ham o`zaro

almashinuv rivojlanadi. Antik davr Farg`ona yodgorliklarining ayriralarida Xitoy tangalari (u-shi) uchrasa ham mahalliy tangalar uchramaydi. Bu hol natural xo`jalik (mahsulot ayirboshlash) ustunligidan dalolat beradi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Yaqin va O`rta Sharqdagi turli o`lkalar va tarixiy-madaniy viloyatlarni bog`lab turuvchi ma'lum ma'nodagi karvon yo`llari tartibi hamda madaniy, siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy aloqalari ildizi neolit davri (mil. avv. VI-IV ming yilliklar) bilan bog`lanadi. Chunki aynan mana shu davrda O`rta Osiyoda iik dehqonchilik madaniyati paydo bo`lib yangi yerlar aholi tomonidan jadallik bilan o`zlashtirib boriladi. Bu jarayon bronza davriga kelib yanada kuchayadi.

Bu davrga kelib O`rta Osiyoda ko`p sonili qabilalar va etnik guruhlar joylashgan bo`lib, Qoraqum va Qizilqum cho`llarining ichki hududlari hamda Pomir va Oloyning yuqori mintaqalaridan tashqari barcha hududlar o`zlashtirib bo`lingan edi. Bu hududlardagi moddiy madaniyat umumiy holatda ikki guruhga-chorvachilik xo`jaligi sohiblari bo`lgan Andronovo tarixiy-madaniy jamoalari (shimoliy mintaqa) va dehqonchilik xo`jaligi yuritgan Namozgoh tarixiy madaniy jamoalariga (janubiy mintaqa) bo`linadi. Ular va ularga qo`shni bo`lgan hududlar o`rtasida turli aloqalar mavjud edi. Ushbu aloqalar chorvador va o`troq dehqoncbilik aholisi o`rtasida almashinuv-savdo munosabatlarining jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Ma'lum hududlarda tayyorlangan mahsulotlar yoki xom ashyoning boshqa bir hududlardan topilishi shu jarayondan dalolat beradi. Misol uchun, Andronovo madaniyatiga xos idishlar Marg`iyona, Baqtriya. So`g`diyona hududlaridan topilgan bo`lsa, Xorazmda tayyorlangan sopol va metall buyumlar shimoliy hududlarda ko`plab uchraydi. Zamonbobo va Gujayli yodgorliklaridan Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan mahsulotlar topilgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi savdo-tranzit yo`llari bronza davridayoq paydo bo`ladi. Ko`pchilik tadqiqotlar bu yo`lni "Lojuvard yo`li" deb ataydiiar. Bronza davridagi O`rta Osiyoning savdo yo`llaridan biri Baqtriya va Marg`iyonani qadimgi Xorazm, So`g`diyona,

Markaziy Qozog`iston va Ural bilan bog`langan. Mil. avv. III ming yillikda Mesopotamiyada Badaxshon lojuvardi mashhur bo`lgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bronza davridagi yana bir yo'l Badaxshondan janubi-sharqqa tomon Afg`oniston orqali O`rta Osiyoning qadimgi xalqlarini Mesopotamiyaning shaharlari-Ur, Uruk, Kish, Lagash va boshqalar bilan bog`lagan. Bronza davrining uchinchi yo`li O`rta Osiyoning janubidagi Baqtriya va Marg`iyonani Hindistondagi Xarappa va Erondagi Mohinjo Daro madaniyat markazlari bilan bog`langan. Mil. avv. II ming yillikka kelib Farg`ona va Choch hududlari ham Qadimgi Sharq bilan aloqalar o`rnatadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko`ra bu davrda Mesopotamiya shaharlaridan chiqqan savdo yo`llari Eron va Janubiy Turkmaniston orqali Baqtriya va So`g`diyonadan o`tib Farg`onaga kelgan. Bu yo`lning bir tarmog`i Farg`onadan g`arbga Qozog`iston cho`llari orqali Ural va Volga bo`yiga ketgan. Yana bir tarmog`i esa Farg`onadan sharqqa Dovon orqali Sinszyan, Shimoliy Xitoyga ketgan.

Agar geografik xaritaga e'tibor beradigan bo`lsak O`rta Osiyotri qadimgi sivilizatsiyalar o`zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. 1987-yilda YUNESKO BMTning butunjahon dekadasi doirasida madaniy rivojlanish bo`yicha "Buyuk ipak yo`li-muloqot yo`li" dasturini qabul qildi. Ushbu dasturda O`rta Osiyo sivilizatsiyasi tarixini har tomonlama va chuqur o`rganishga katta e'tibor qaratildi. Undan tashqari, bu dasturning asosiy maqsadi-Sharq va G`arb o`rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirib mustahkamlash, bu ulkan mintaqalarda yashayotgan ko`p sonli xalqlarning o`zaro munosabatlarini yanada yaxshilashdan iborat edi. 2000-yilga qadar mo`ljallangan ushbu dastur asosida ko`pgina ekspeditsiyalar ("Marko Polo izidan", 1987, Istambul-Pekm; "Dengiz" ekspeditsiyasi, 23.X.90y.-23.11.91; Xivada yakunlangan "Markaziy Osiyo respublikalari bo`ylab", 1991; "KO`chmanchi madaniyatlar yo`nalishi bo`ylab ekspeditsiya", iyun-avgust, 1992; "Yevropa ipak yo`li", 1995, Istanabul-Leon) ko`plab ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlar (Samarqand, 1990; Turku, Finlandiya, 1993; Kipr, 1994; Buxoro,1996; Boku, 1998) o`tkazildi.

Buyuk ipak yo`lini o`rganish va qayta tiklashda O`zbekiston rahbariyati ham
ıida e'tibor qaratmoqda. Chunonchi, respublikamiz hududlarida uyushtirilgan
ɔeditsiyalar natijasida ko`pgina tarixiy- madaniy obidalar o`rganildi. Qadimgi
lar va yo`nalishlar aniqlandi,! milliy-ma'naviy boyligimiz batnda an'analarimiz
anildi. Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro Instituti ochilgan
ib, uning asosiy yo`nalishlaridan biri Buyuk ipak yo`li va uning bo`ylarida
ashgan shaharlarni o`rganishdir. 1997-yilning mayida O`zbekiston ham o`z
asini qo`shgan Mashhad-Saraxs, Saraxs-Mashhad temir yo`li ochildi. Bu bilan
a Osiyo mamlakatlari Fors qo`ltig`iga, Yevropa xalqlari esa O`rta Osiyoga
yo'l orqali chiqish imkoniyatiga ega bo`ldilar. 1998 yil Boku shahridagi
k ipak yo`lini quruqlikda Yevropadan Yaponiyagacha qayta tiklash
lalariga bag`ishlangan xalqaro anjuman bo`lib o`tdi. Yevropa-Kavkaz-
oni bog`laydigan ushbu transport yo`li (TRASEKA) qurilishida O`zbekiston ,
ishtirok etmoqda va bu yo'l butun dunyo iqtisodiyotini yuksaltirishiga xizmat
lishi shubhasizdir. Antik davr O`rta Osiyo tarixida madaniy hayotning turli
omonlama taraqqiy etganligi bilan izohlanadi. Butun dunyo xaiqlari tarixiy-
adaniy rivojlanishida bo`lgani kabi bu davr O`rta Osiyo jamiyatining ijtimoiy va
a'naviy hayotida diniy mafkura katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bu davrda O`rta
siyoning asosiy hududlarida zardushtiylik va buddaviylik dinlari ustunlik
ilishiga qaramasdan ular bilan bir qator yunon dinlari, moniylik ham yoyilgan edi.
Makedoniyalik Iskandar yurishlari davri va uning vorislari (Salavkiylar, Yunon-
Baqtriya) davrida O`rta Osiyo hududlariga Ellinizm madaniyati kirib keldi. Yunon
inlarining keng yoyilishi Yunon-Baqtriya davriga to`g`ri kelsa, Budda dinining
eng yoyilib davlat dini darajasiga ko`tarilishi Kushonlar davriga to`g`ri keladi.
Kushon davri oxirlariga kelib esa Moniy dini yoyiladi. O`rta Osiyoda mil. avv. II-I
srlarga kelib yunon-makedonlar hukmronligi tugagan bo`lishiga qaramay ellinizm
adaniyati moddiy va badiiy madaniyatda o`z ahamiyatini saqlab qoldi. Yellin
udolari-Gerakl, Gefest, Dionis, Afina kabilarga sig`inish kuchliligicha qolaveradi.
u xudolar tasvirlari Kushon podsholari tangalari va haykallarda o`z aksini topgan.

Undan tashqari, yunon alifbosi asosida tashkil topgan baqtriya yozuvi ham saqlanib qoldi. Kushon davri ellinizm madaniyatiga oid topilmalar O`rta Osiyoning,ko'pgina hududlaridan topib o`rganilgan. Yuqorida eslatib o`tganimizdek, antik davr o`lkamiz hududlaridan ko`plab ibodatxonalar ochib o`rganilgan. Asosan kushon davriga oid bo`lgan bu ibodatxonalar rejaviy tuzilishi jihatdan turlicha bo`lib, ulardagi topilmalar orasida turli kattalikdagi haykallar ko`pchilikni tashkil etadi.

Xullas, «Buyuk ipak yo`li» O'rta Osiyo xalqlarini siyosiy, iqtisodiy madaniy va savdo soxasidagi hayotida katta o`rin tutgan, o`lka xalqlari bu yo`l tufayli G'arb va Sharq dunyosi hamda ularning xo`jalik ixtirolaridan keng baxramand bo`lganlar.

«Ipak yo`li» O'rta Osiyo Sharq bilan Garb o`rtasida vositachilik qilgan. Bir so`z bilan aytganda, «Ipak yo`li» Sharq va G'arb xalqlari xayotida g`oyatda muhim va tarixiy o'rin tutgan. U xalqlarni siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarda bogl'abgina qolmasdan, balki ayni zamonda bu yo`l dunyo xalqlari o`rtasida tinchlik osoyishtalik totuvlik qo`shnichilik do`stlik va qardoshlarcha birodarlik yo`li ham bo`lgan. Qadimiy avlod-ajdod ruxlarini shod etib «Buyuk ipak yo`li» an'analarini tiklash va unta sayqal berish ozod, xur, erkin va yashashdan manfaatdor bo`lgan barcha sof vijdonli fuqarolarning millati, irqi, diniy e'tikodidan qat'i nazar, muqaddas burchidir.

Buyuk ipak yo'li sekin-astalik bilan o'z mavqeyini yo'qotib borishi oqibatida Rishton shahri hamda kulolchilik o'z o'rnini yo'qotib bordi. Qadimdan shakllangan kulolchilik an'analariga ham bir muncha putur yetdi.

XVIII asrdan boshlab Rishton (Rushdon, Roshidon) shahri asta-sekin qayta tiklangan va XIX asr o'rtalarida hududdagi sirlangan idishlarni ishlab chiqarish bo'yicha yirik markaz nomini qaytadan qaytarib olgan.



Rishtonda o'rta asrlarda yo'qolib ketgan ganch – chinni ishlab chiqarish texnikasini XVIII asrda qayta tiklagan aka-uka Abdu Jalol ("Usta Abdujalol", "Usta Jalil") va Abdujamil ("Usta Abdujamil", "Usta Kuri") o'z ishlarining Buyuk ustalari hisoblanganlar. Kulollar chinni ishlab chiqarish usulini Kashg'ar va Eron davlatlaridan olib kelishgan. Ularning shogirdi Kalli Abdullo ("Kal Abdullo") laqabi ostidagi – chinni mutaxassisi Abdulla Kulol (1797-1872) oqibatda Rishtonning Barcha kulollari uchun Usta-oqsoqol bo'lib yetishgan.

XIX asr boshlarida Rishtonning kulol mahsulotlari nafaqat Farg'ona vodiysida balki butun Markaziy Osiyo bo'yicha yuqori talabga ega bo'lgan. Shahar 300 tadan ortiq kishi ishlaydigan 100 ga yaqin kulol ustaxonalarini o'z ichiga olgan. Ushbu davrda Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston hunarmandlari bilan uzviy aloqalar o'rnatilgan.

XIX asrning 70-yillarida usta Abdulla-Kalli boshchiligida Rishton hunarmandlari bilan birgalikda Qo'qonda Said-Muhuammad Xudoyor xonning saroyi – O'rdani bezagi bilan shug'ullanishgan. Ularning san'ati Qo'qon xonligi hukmdori tomonidan yuqori baholangan. Xudoyor-xon farmoyishi bilan saroyning janubiy qanoti tomonida "kufi" yozuvi tushirilgan.

Taxminan xuddi shu davrning o'zida Xudoyor-xon Rushdonda "Bog'i Xon" nomi bilan mashhur bo'lgan o'zining qarorgohini qurgan bo'lib, u tez-tez shu yerda to'xtab, shaharning barcha kulollari uchun bazm uyushtirar edi.

Rossiya imperiyasi davrida kulol ishlab chiqarishi bevosita qo'llab-quvvatlangan. XX asr boshlarida Rishton 300 ta kishi ishlaydigan 80 tadan ortiq

hunarmandchilikka oid kulol ustaxonalarini o'z ichiga olgan. Rishton kulollaRining mahsulotlari Markaziy Osiyoning Barcha shaharlariga kelib tushgan. Ba'zi hunarmandlar esa Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Samarqand, Toshkent va boshqa shahar bozorlarida o'zlarining shaxsiy savdo do'konlarini ochishni boshladilar. Shuningdek, Rishtonga Konibodom, ayrim paytda G'ijduvon, Qarshi, SHaxrisabz shaharlaridan ustalar o'zaro tajriba almashish uchun tashrif buyurishgan.

XIX asrning oxirlaridagi mashhur chinni ustalari – Abdurasulov Madamin Axun (Usta Mulla Madamin Axun), To'xta-Bachcha (Usta To'xta), Bachaev Sali hamda iste'dodli va rassom xotini bilan birga ishlagan Bobo Boy Niyazmatov Meliboy (Usta Boy Niyazmat) Buyuk ustalarning shogirdi va izdoshlari hisoblanishgan. Mashhur chinnipaz-naqqosh ustalari hisoblanmish G'oziev Mayaqub (Usta Yaqub, 1862-1922), Madaliev Abdul Sattor (Usta Abdusattor, 1862–1943), ko'zagar Ortiqov O'lmas (Usta O'lmas, 1864—1950) Rishton kulollarining oxirgi oqsoqollaridan biri bo'lishgan.

Eng yaxshi hunarmandlar – usta Mulla Madamin Axun, usta To'xta, usta Soli va boshqa ustalar mahsulotlari bir necha marotaba butun Rossiya miqyosidagi ko'rgazma-yarmarkalarida qo'yilgan. 1990 yili Parijda bo'lib o'tgan Butunjahon ko'rgazmada dunyo kulol mahsulotlari qadriga etuvchilari tomonidan Rishton ustalari kulollarini Yevropaning eng zo'r mayolika va xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan mahsulot sifatida yuqori baholashgan ko'rgazma muvaffaqiyat bilan o'tgan.

1904 yili Farg'onadagi sanoat va hunarmandchilik ko'rgazmasida Rishtonlik usta BoBo-xoji Mirsalim kulol samovari tayyorlagani munosabati bilan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori general-mayor V.I.Pokotilo qo'lidan oltin medal olgan.

2.2. Rishton kulolchiligi maktabining shakllanishi va bezak berish uslublari

O'tmishda Farg'ona vodiysida kichik bir qishloq bo'lgan Rishton shahri qadimdan O'rta Osiyoda o'z kulollari bilan shuhrat qozongan. Rishton kulolchiligi uzoq davrlar mobaynida tarkib topgan bo'lib, rivoyatlarga qaraganda, 800 yildan ko'proq vaqtdan buyon mavjuddir. Kulolchilik hunarining rivojlanishiga yaxshi, sifatli qizg'ish loyning va tabiiy bo'yoqlar – minerallar va tpg' o't-o'lanlarining mavjudligi ham yordam berdi. Ko'pgina oilalarda kulolchilik humdonlarining mavjudligi, bu kasbning avloddan-avlodga o'tib kelganligidan dalolat beradi. Rishton kulolchilik ishlab chiqarish rivojining barcha bosqichlari- honaki kulolchilik dastgohlaridan to davlat sanoat korhonasigacha bo'lgan yo'lni o'z ichiga oladi. Rishtodan asta sekin buyumlarning o'zgarmaydigan shakllari ishlab chiqildi, ularni bezashning an'anaviy tuzulmasi tarkib topdi. Xozirgi Rishton sopol buyumlari uchun o'simlik va natyumort mavzusidagi murakkab naqshlarni sirlab qoplash harakterlidir, bu naqshlar erkin rangtasvir usulida mo'yqalam bilan bajariladi. Ranglar ichida quvnoq havorang va feruza ranglarni oq rangga qorishtirib ishlatishdan ko'proq foydalanishadi. Rishton sopol buyumlari naqshining nafisligi bilan, rang tasvirligi hamda o'zining manzaraliligi bilan ham ta'sirchalidir. Texnologiyasining takomillashtirilganligi va naqshining o'ziga xosligi tufayli Rishtonning sirlangan sopol idishlari jahonda ham katta shuhrat qozondi.

Rishtonda kulolchilik vujudga kelgan ilk davrlarida har bir usta kulolning tayyorlagan mahsuloti o'z oilalari doirasida bo'lib kelgan. Sekin astalik bilan kulolchilik taraqqiy etishi bilan ustalar shogirlarni tarbiyalay boshladilar, ularning ishlash texnikasi bilan birga ish faoliyati ham kengayib bordi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Rishton kulollari ustohonalarga va sexlarga birlasha boshladilar. 1900-1910 yillarda shunday ustahonalardan 30 tasi bo'lib, ularda 250 ta kulol o'z faoliyatini yuritgan. Ularda kundalik ehtiyojlari uchun bajarilishi oddiy buyumlar yaratdilar, biroq murakkab naqshlarga boy bo'lgan haqiqiy san'at asarlariga bo'lgan ehtiyoj ham katta edi. Sopol buyumlar uy-ro'zg'or ishlarida ishlatilishidan tashqari honalardagi tahmonlarni ham bezab turishini aytib o'tish joizdir.

Bozor raqobati kulol ustalarni texnologik yangiliklar qidirishga, buyum yasashning individual uslubini topishga majbur etdi.

Sopol ishlab chiqarishning tarkib topgan an'analari, bu hanarni tashkil etishga yordam berdi va texnologiya sohasidagi tajribali hamda yangi-yangi bezaklarni kashf etuvchilardan O'zbekiston xalq rassomi, CCJI Davlat mukofotining sovrindori Ibrohim Komilovning nomini birinchi bo'lib tilga olish mumkin. Ibrohim Komilov va uning shogirtlari A.Yo'ldoshev, Sh. Yusupov shunga o'xshash X.Sattorov va B. Nishonov singari ustalar tufayli Rishton kulolchiligining haqiqiy shon-shuhrati yanada yuqori cho'qqilarga erishdi.

Bugungi kunda nodir ustalarning ishlarini kulolchilikning yangi avlodi davom ettirmoqda. A.Nazirov, A.Tojaliyev, Y. Polvonov kabi kulollar anashu avlod vakillaridir.

1970 – yillarning boshlaridan boshlab, bir necha yillardan buyondirektorlik qilib kelayotgan sobiq kulolchilik bo'yicha texnolog G'.T. Zohidov tashabbusi bilan Rishton badiy-sopol buyumlar zavodining mahsuloti Choxoslavakiya, Finlandiya, Fransiya, Shvetsiya, Germaniya, AQSH, Angiliya, Ispaniya, Arabiston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Rishton kulolchilik buyumlari Iroq, Eron, Misr, Afg'oniston, Polsha, Germaniya, Belgiya, Shvetsiya,

Chexiya, Slovakiya, Angliya, Fransiya, AQSH da bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish qilindi.

Hozirgi kunda rassom-kulolchilar ishlab chiqarishga joriy etish uchun buyumlarning yangi turlari va shakllarini yaratish borasida tinimsiz katta izlanishlar olib bormoqdalar. Har yili yangi buyumlarning 50-60 turlari o'zlashtirilmoqda. Bular jumlasiga: servizlar, buyumlar yig'masi, idish – tovoqlar, tuvaklar, manzarali laganlar kiradi. Bu buyumlar hamma yerda o'zining ajoyib naqshlari va ularning serjiloligi bilan insonlarni hayratga solib kelmoqda. Bundan tashqari, usta-rassomlar ko'rgazma va tanlovlar uchun noyob buyumlar yaratmoqdalar, shuningdek, yuqori badiiy saviyadagi buyumlarning takrorlanmas namunalarini tayyorlamoqdalarki, ular O'zbekiston Respublikasi va boshqa chet el davlatlarning firma va do'konlarini bezab kelmoqda.

Rishton kulolchiligi maktabining rivojlanishida o'zining ulkan hissasini qo'shgan usta-kulollarning ayrimlarini keltirib o'taman.

Ibroxim Komilov - kulol, usta-keramist "naqqosh", kulollar sulolasining yettinchi avlodi, buyuk Usta - Farg'ona vodiysidagi kulolchilarning ustozi hisoblangan oqsoqol, O'zbekiston xalq rassomi va O'zbekiston xalq ustasi.
Ibrohim Komilov 1928 yilda Farg'ona viloyatining Rishton tumanida, Usta Komil, buyuk Usta o'g'li - Farg'ona vodiysidagi kulolchilarning ustozi hisoblangan oqsoqol Abdulla Kulol (Kali Abdullo) – oilasida, yettinchi avlod bo'lib dunyoga kelgan.

U kulolchilik san'atini otasi Usta Komildan va amakilari Usta Dodo va Usta Madamin (Mulla Madamin Axun), hamda mashhur kulol ustasi-ko'zagar, XIX asr mashhur ustalaridan bo'lgan Bobo Xoji Mirsalimov shogirdi, Usta Mirsodiqdan o'rgangan.

Usta 60 yil davomida Rishton keramik zavodida faoliyat yuritgan. U kulolchilikning turli yo'nalishlari, chinnipazlik, chizmalar, shakl va turli xil

kulolchilik uchun zarur bo'lgan loy qorishmalari texnologiyalari bo'yicha eng mashhur ustalardan biri bo'lgan.

U kulolchilik uchun ishqor loyini yanada mukammallashtirish va uni ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Toshkentdagi Baranov keramik artelida ta'lim olgan. Rigada ijodiy safarda bo'lgan. O'zbekistondagi va horijiy ko'rgazmalarning faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Ustaning ijodiy ishlari O'zbekiston Davlat muzeyi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi, Farg'ona viloyati muzeyi, Moskva Sharq san'ati muzeyi, Sankt-Peterburg etnografiya muzeyi, Davlat Ermitaji-va xorijiy to'plamlarda uchraydi.

1997 yildan beri "Hunarmand" O'zbekiston xalq ustalari Uyushmasi a'zosi. I.Komilov - Rishtondagi hashar yordamida qurib bitirilgan XII asrning mashhur islom dini targ'ibotchisi Burxaniddin al- Marg'inoniy maqbarasini bezatib turgan yog'och o'ymakorligi dizaynini muallifi sanaladi. I.Komilov 2002 – yilda vafot etgan.

Mukofotlari

- «O'zbekiston xalq rassomi» (1973 y.)
- «SSSR Davlat mukofoti laureati» (1983 y.)
- O'zbekistonning mehnat zafarlari kitobi "Mehnat"ga kiritilgan (1984 y.)
- PROON YuNESKO «Ustoz-shogird» dasturining stipendiyasi sohibi (1996 y.)
- «Narodniy master Uzbekistana» (1998 y.)

Avlodi

- Qizi — Xalima Ergasheva, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.
- O'g'li — Komilov Ismoiljon, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.
- O'g'li — Komilov Isroil, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

•O‘g‘li — Komilov Muzaffar, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

O‘g‘li —Komilov Sharofiddin, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

Shogirdlari

Ashurali Yuldashev, usta-kulol, , Mehnat Qizil Bayrog‘i ordeni, Xalqlar Do‘stligi ordenlari, SSSR VDNX medali bilan taqdirlangan.

Sharafiddin Yusupov, usta-kulol, “naqqosh”, O‘zbekiston badiiy akademiyasi akademigi.

Rustam Usmanov, usta-kulol, “naqqosh”, O‘zbekiston badiiy akademiyasi a’zosi, “Hunarmand” milliy hunarmandchilik ustalari asotsiatsiyasi a’zosi.

Muzaffar Saidov, usta-kulol, “naqqosh”, O‘zbekiston badiiy akademiyasi a’zosi, “Hunarmand” milliy hunarmandchilik ustalari asotsiatsiyasi a’zosi.

Kimsanboy Abduqodirov, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

Nabijon Qodirov, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

Kimsanboy G‘anijonov, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

Eliboyev G‘anijon, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

Yuldashali Ergashev, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

Nimadali Ergashev, usta-kulol, kulolchilikning barcha jarayonlari va tayyorlash texnikalaridan xabardor.

Abdulla Kulol - tahallusi Kali Abdullo (Tepa kal) bo‘lgan 1797 y., Rishton Qo‘qon xonligi - 1872 y., Rishton, Qo‘qon xonligi - Ganchkor, aka-uka Abdu Jalol (Usta Jalil) va Abdu Jamil (Usto Qo’ri) larning shogirdi. O‘zbekiston Halq

rassomi, Halq ustasi, Davlat mukofotlari lauriyati Usta Ibrohim Komilovning bobosi.

Abdulla Kulol 1797 yili Rishtonda, Norbuta-biy xonligi davrida ganchkorlar oilasida tug'ilgan. Aka-uka Abdu Jalol (Usta Jalil) va Abdu Jamil (Usto Qo'ri) larning shogirdi. Farg'ona vodiysidagi ustalarning ustozi bo'lgan.

Xudoyorxon o'z davrida Rishtonda Bog'i-Xon nomli qarorgoh qurdiradi. Bu yerda ganchkorlar uchun bazm uyushtiradi. Bu bazmga Abdulla Kulol kelmaydi, Xudoyorxon g'azab otiga minib, Abdulla Kulolni uyiga boradi. Shunda Abdulla Kulol xonning kelishini eshitib, pechkaningi ichiga berkinib oladi. Xon askarlariga Abdulla Kulolni topishni buyuradi. Abdulla Kulol esa pechka ichidan o'zi yasagan chiroyli ko'za bilan xonning oldiga chiqib keladi va unga "Men Siz uyushtirgan bazmga quruq qo'l bilan bora olmasdim, shuning uchun ko'zani yasashga vaqtim ketdi, ko'zani Sizga sovg'a qilaman" deydi. Shunda xonga uning sovg'asi ma'qul kelib, uni o'zi bilan bazmga olib ketadi va unga tilla tangalar beradi.

XIX asrning arxitektura yodgorliklaridan biri O'rda saroyi bo'lib, unda o'sha davr Qo'qon hukmdori Xudoyorxon istiqomat qilgan. Ushbu saroy qurilishida 16 mingdan ziyod ustalar ishlashgan va u 1863 - 1870 yillar mobaynida qurilgan. Saroyni fasad qismini bezashda Abdujamol, Abdujalol va Abdulla Kulol bajarishadi. Ular saroyni bezash ishlarini 1873 yili nihoyasiga yetkazishadi.

Saroyni bezash mobaynida qadimiy Rishton uslubida yuqori texnologiyalarni qo'llagan holda bajarishgan. Unda keramik texnikasidan samarali foydalanilgan bo'lib, kichik-kichik rangli g'ishtchalar turli shakllarda - kvadrat, romb, yulduzsimon ko'rinishida ishlab chiqilgan. Yana shuni ta'kidlash lozimki, har bir yozuvlarni ishlab chiqishda kufiy shriftidan foydalanganligi chiroy ustiga yana chiroy qo'shib turadi.

Xudoyorxon uchchala ustalarni Abdujamol, Abdujalol va Abdulla Kulollar ishini yuqori baholab, ularni munosib taqdirlagan. Xon topshirig'iga ko'ra saroy fasad qismiga kufiy yozuvida shunday deb yozilgan: "Har bir rassomda Bexzod san'atidek san'at bo'lishi, ular hatto oddiy toshga chiroy baxsh etmog'i kerak." Bu

misralar barcha Qo‘qon xonligidagi ustalar uchun yozilgan edi. Shuning natijasida Xudoyorxon, O‘rda saroyi va ustalar O‘rta Osiyo tarixiga kirgan.

Usta Ubdulla Kulolning asarlari O‘zbekiston davlat muzeyida va Moskva, Sankt-Peturburgdagi muzeylarda saqlanadi. Usta Abdullo 1872 yilda vafot etgan.

Abdulla Kulol shajarasi:

- O‘g‘li - Usta Komil - Rishton ganchkorlari oqsoqoli
- Nevarasi - Usta Ibrohim Komilov - O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Xalq ustasi, Davlat mukofotlari lauriyati
- Evarasi - Halima Ergasheva, sopol idishlar ustasi, ganchkorlikning texnikasi va jarayoni bilimdoni
- Evarasi - Komilov Ismoiljon, sopol idishlar ustasi, ganchkorlikning texnikasi va jarayoni bilimdoni
- Evarasi - Komilov Isroil, sopol idishlar ustasi, ganchkorlikning texnikasi va jarayoni bilimdoni
- Evarasi - Komilov Muzaffar, sopol idishlar ustasi, ganchkorlikning texnikasi va jarayoni bilimdoni
- Evarasi - Komilov Sharofiddin, sopol idishlar ustasi, ganchkorlikning texnikasi va jarayoni bilimdoni

G’oziev Mayaqub (Usta Yaqub 1862-1922) 1862 – yilda Rishtonda tavallud topgan. mohir kulol, ayniqsa sirlash sohasida rishton kulolchiligininhg yetuk nomoyondalaridan biri, sulola davomchisi. 30 dan ortiq shogirtlarning ustozi bo’lgan usta Yoqub Rishton hunarmandchiligida chuqur iz qoldirgan.

Madaliev Abdul Sattor (Usta Abdusattor, 1862–1943), Usta Yoqubning tengdoshi bo’lgan yana bir Rishton kulolchiligining rivojlanishiga ulkan hissa qo’shgan insonlardan biri. Usta Abdusattor kulolchilikning o’ziga hos noyob asarlarini yaratibgina qolmay, ustoz-shogirt an’anasini munosib tarzda davom ettirgan. Bugungi kunda ustaning 50 dan ziyod shogirtlari uning ishini davom ettirib kelmoqdalar.

Ortiqov O'lmas (Usta O'lmas, 1864—1950) Rishton kulolchilik maktabining yana bir yetuk nomoyondasi. Usta O'lmas kulolchilikning ko'zagarlik sohasini san'at darajasiga ko'tardi. U yasagan ko'zalar nafaqat mamlakatimiz balki butun dunyo hamjamiyatini hayratga slogan, Usta AQSH, Germaniya, Fransiya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda turli hil ko'rgazmalarda ishtirok etib, yurtimiz milliy hunarmandchiligini butun dunyoga tanita olgan shaxslardan hisoblanadi.

Sharofiddin Isomiddinovich Yusupov (1945.29.4, hozirgi Rishton shahri) — kulol, sulola davomchisi; zamonaviy rishton kulollik maktabining yirik vakili. O'zbekiston BA akad. O'zbekiston BA akademik. (1997), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1991).

Sharofiddin Yusupov shajarasi :

- Usta Mamayusuf hoji
- Usta Isomiddin
- Usta Salohiddin
- Usta Sharofiddin Yusupov
- Usta Sarfiniso
- Usta Muqaddasxon
- Usta Firdavs
- Usta Suxrob
- Kamron Sharofiddinov
- Muxiddin
- Burxoniddin Qodirov

"Usta Sharofiddin Yusupov Farg'ona ishqorli moviy sopolchiligining o`ziga xos bo`lgan noyob texnologiyasi yo`qolib ketish xavfi bo`lgan murakkab bir paytda bu sohaga chinakam mehri, sadoqatini namoyish qilib, uning qayta tiklanishi va kelgusida ravnaq topishiga salmoqli hissa qo`shgan ajoyib kuloldir"- deb ta`rif beradi san`atshunos olim Akbar Xakimov. Bu gap, bu ta`rif garchi uning jo`shqin va hissiyotga to`la hayot tarziga mos kelmasa-da, Sharofiddin Yusupovni "Rishton kulolchilik san`atining Paganinisi" deyish to`g'riroqdir. Chunki, u erta

saharda turib, qadimdan erkaklar uchun an`anaviy milliy libos sanlagan, oppoq yaxtagini kiyadi-da, oyog'ini sharqona chalishtirib, chordona qurib sevimli taxtasiga o`tiradi va o`ng qo`liga mo`yoqalamini olib, chap elkasini qisganicha idishlarini naqshlashga tushadi. Ustaning bu holatini kuzatib turib, beixtiyor skripkasini qo`liga olib, uning torlariga kamonchasini qo`yib, o`zining maftunkor kuyini chalishni boshlayotgan mashxur san`atkorlarga juda-juda o`xshab ketadi. Sharofiddin akani idishning sirtiga nafis naqshlarni zavq-shavq bilan chizayotganida chindan ham o`sha skripkachi, paganini eslatadi. Darhaqiqat ustoz, san`atshunos - olim Akbar Xakimovni usta-kulol Sharofiddin Yusupovni Paganini bilan qiyoslashi juda ham o`rinlidir. Chunki, usta tomonidan yaratilgan biri-biridan go`zal va betakror kulolchilik buyumlari, buyumlari emas, ularni har birini badiiy asar desak mubolag'a bo`lmasa kerak, ana shu asarlar ham asrlar osha o`zining maftunkor ohangini taratib, rishton kulolchilik san`atinig noyob durdonalari haqida kelajak avlodga so`zlab beradi deyish mumkin. Sharofiddin Yusupov ustazodalar avlodidan bo`lib, u 1945 yili usta-kulol Isomiddin Yusupovlar xonadonida tavallud topgan. Ustaning ta`kidlashicha, ularning xonadonida 50-yillarning o`rtalarida 40 nafar usta va shogird ishlaydigan katta ustaxona bo`lgan. Bundan ko`rinib turibdiki, ustaning bolalik chog'lari ustaxonada o`tgan.


Rustam Usmonov 1954 yili Rishton kulolchilik san`atining markazi bo`lgan Roshidon mahallasida dunyoga kelgan. Yoshligidanoq usta kulollar Ibrohimjon Komilov, Xakimjon Sattarovlarga shogirdlikka tushib, ulardan kulolchilik sir asrorlarini o`rganadi.

O`rta umumta`lim maktabini tamomlaganidan so`ng yoshlik chog'laridayoq kulolchilikka san`atiga uyg'ongan muhabbati unga tinchlik bermaydi. Qo`lidan qalamini qo`ymay ijod qilib, tajriba orttiradi va hayotdagi asosiy maqsadi yo`lidagi katta qadamini tashlab, Toshkentdagi sobiq Nikolay Ostrovskiy nomli Teatr va Rassomlik hozirgi Milliy rangtasvir va Dizayn institutiga o`qishga kiradi va rishtonlik ustalar ichida yagona maxsus oliy ma`lumotli mutaxasssisga aylanadi. Institutda 1980-85 yillar davomida taxsil olib, sanoat grafikasi mutaxassisligiga


ega bo`ladi. O`qishni tamomlab, o`zi tug'ilib o`sgan Rishtonga qaytadi. Bu vaqtlarda avlodan-avlodga o`tib kelayotgan kulolchilik san`atining noyob usullari yo`qolib borayotgan, ko`plab ustazodalar olamdan o`tgan bir davr edi. Sobiq Ittifoq siyosatiga ko`ra ming yillar davomida sayqal topgan ishqorli moviy tusli Rishton kulolchilik san`atini daromad manbaiga aylantirish maqsadida kulolchilik zavodi tashkil qilinadi. Shu zavodda bosh musavvir sifatida ish boshlagan Rustam aka bir xil qolipdan chiqib kelayotgan maxsulot kulolchilik san`atini rivojiga emas, aksincha uni inqiroz olib kelishini ta`kidlaydi. Biroq, zavod mutassadi rahbarlari ularning eshitishni ham istashmaydi. Natijada kulolchilik zavodining maxsulotlarini sotilishi keskin kamayib ketadi. Buni oqibatida esa kulollarning ayrimlari boshqa sohalarga o`tib ketsa, yana birlari esa bu hunarni befoyda kasb hisoblab, butunlay shug'ullanmay qo`yadilar.



tayyorlagan kulolchilik buyumlarida birorta ortiqcha detal ishlatilmaydi. Ulardagi bo‘yoqlar xuddi qadimda qilinganidek, tog‘ o‘simliklari qaynatmasidan olinadi. Bu esa buyum rangi o‘chmay jilosini yo‘qotmasligini ta’minlaydi.



Alisher Nazirov 1958 yilda Rishtonda tavallud topgan. 12 yoshidan boshlab kulolchilik sir asrorlarini o'rgana boshlagan. Bugungi kunda Rishton kulolchiligi maktabining mohir kulollaridan biri. Rishtonlik usta kulol Alisher Nazirov



Alisher Nazirov ko‘za yoki boshqa buyum yasayotganda loyga yuragining bir bo‘lagini ham qo‘shib qoradi. Ustaning uy-muzeyi va ustaxonasi bor.

– Kulolchilik san’ati qadimiy hunarlardan, - deydi Alisher aka. – Biz tayyorlagan mahsulotlar sifati bilan ajralib turadi. Chunki qizil, oq rangdagi idish-tovoqlarga qo‘rg‘oshin, qizil kesak bilan sirlanib ohor beriladi. Kulolchilik bilan oilaviy shug‘ullanamiz. Shuningdek, 20 nafar shogirdim bilan tayyorlagan suvenir va sopol idishlar Yevropa muzeylarida saqlanmoqda.


O'ZBEKISTON MILLIY AXBOROT
AGENTLIGI



Nabijon O'lmasovich Qodirov (1957.26.2, Rishton tumani) — **kulol**, rishton kulollik maktabining yirik vakili; O'zbekiston xalq ustasi (2001). 1969 yildan **usta kulol** Yo'ldoshali Ergashevga shogird tushib hunar o'rgangan. 1978 yildan mustaqil **usta**, tumandagi kulolchilik zavodida **usta**-rassom. mahalliy kulolchilik an'analarida buyumlar yaratadi, Rishton kulolchilik maktabida kichik shaklli buyumlarni tayyorlashni ancha mukammal namunalarni yaratdi.

Kulolchilik Sharqning eng qadimiy va navqiron san'atidir. Bu qora loy saxovat va xalollik extiyojini uz zimmasiga olgan farovonlik, tukinlik, rizq–ro'z, go'zallikni eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir.

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi.Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir–biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzok tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bo'lsada, uning

ko'rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi, saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunning birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik xunari loydan piyola, kosa, tovoq, ko'za kabilarni tayyorlaydigan soxa bo'lib, u uzoq tarixga ega.Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan bilganlar.Ular avval loydan idishlar yasab gulxanda qizdirib pishirganlar.

Tuproq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu xunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3 ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish–tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Neolit davrida idishlarning tagi uchlik kilib yasalib yerga sanchib kuyilgan. Eneolit davrida esa Sharq mamlakatlarida xamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlashgan[1]. VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyob va O'rta Osiyo mamlakatlaridan topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atda rivojlandi.Yangi ko'tarilish davri buldi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar yetishib chikdi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib, G'ijduvon, Panjikent, Samarkand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. 1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika va

---

[1]Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар). – Тошкент: Шарк, 2001. – Б.123

Samarkandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o'quv ishlab–chikarish ustaxonasi tashkil etilib, u mahalliy xalq amaliy san'at ustalari, shu katori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. 1943 yili Shahrisabzda o'quv ishlab–chikarish badiiy korxonasi ishga tushirildi[1].

Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgatdilar. Hozirgi kunda kulolchilik faniga yanada e'tibor kuchaymokda. O'zbekiston badiiy akademiyasiga karashli Respublika kolledjida, K.Behzod nomli rassomchilik va dizayn institutida, Nizomiy nomli TDPU BGFning amaliy san'at kafedrasida bu fan yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hademay bu ustalar yaratgan kulolchilik san'at asarlari xam muzeylardan joy olishiga ishonchimiz komildir.

Rishton O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida axolisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Fargona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta'siri ostida bo'lgan. Ushbu tumanda har kanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan, aloxida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo'la oladi.

Qizgish-sargish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun xududida 1–1,5 m chukurlikda katlam bo'lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatliligi maxalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagi tuproklarga aralashmagan xolda ishlab chikarishga jalb kilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yakinidagi toglardan har xil buyoklar, kvartsli kum va olovbardosh gillarni kazib olishgan. 1960 yillarda yukorida eslatib utilgan moviy sopol buyumlari ishlab chikariladigan an'anaviy markazlar barxam topa boshladi. Ana

[1]Ўзбекистон тарихи: Қискача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиков ва бошк.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарк, 2000.- Б.148

shunday sharoitda San'atshunoslarning Butunittifok konferentsiyasi (Fargona 1974 yil) kabul kilingan moviy ishkorli sopol idishlari ishlab chikarish an'analarini saklab kolish xakidagi karori amaliy axamiyat kasb etdi. Ushbu karor ustalarga ma'kul tushdi. Ular oldingi ishlab chikarishga kaytib buyumlarni bezashning an'anaviy shakllari va usullarini kayta tiklay boshladilar. Keyingi 20 yil ichida Rishton sopoli an'anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana kayta tiklandi. Ishkorli sir tayyorlash ham yo'lga qo'yildi.Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko'p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko'zga tashlanadi[1].

1970-90 yillardagi girix bezaklar orasida tursimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakllarning bir maromda joylashtirilishi doirasimon shakllarning zanjir shaklida bir tekis berilishi nuktali naqsh qora va ok kvadratchalarning navbat bilan o'rin almashishi shaklidagi naqsh egri va to'g'ri chiziklar shaklidagi doiracha va to'pbarggul shaklidagi mavhumiy geometrik bezaklar ko'p tarqaldi. O'simliksimon naqshlar ayniksa turli–tuman va sermazmundir. O'simlik dunyosiga oid mavzularni talqin kilishda ayniksa an'anaviy belgilar bilan bu mavzularning yangicha talqinlari nisbatan yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hayvonlarga oid va antropomorfik mavzular Rishton kulolchiligida «parchasi yaxliti uchun» tamoyiliga ko'ra takdim etilgan. Unda inson, hayvonlar va parrandalarning gavdasini ayrim unsurlari yordamida yaxlitlik goyasi aks ettiriladi. 1970–1990 yillar Rishton kulolchiligining rivojiga kuyidagi tamoyilni kayd kilish mumkin. Rishtonlik ustalar an'anaviy merosni astoydil e'zozlash bilan birga ancha dadillik va keskinlik bilan buyumlar shakllari talqini

---

[1]Темирходжаев Дж., Пўлатов Б. Ўзбекистоннинг машҳур кулолчилик мактаблари/ Тарих тафаккури. Тарихчи олимларнинг илмий-амалий маколалар тўплами. VIII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.159

xamda naqshli bezaklar harakteriga uzgarishlar kiritishyapti. An'anaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan tulakonli kilib kayta tiklash an'analarga so'siz rioya kilish urnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormokda.

Har bir ijodkorning ruhiy holatii, o'zi bajarayotgan buyumida uz aksini topmasdan kolmaydi. Kishi ruhiyatini ko'tarishda esa xonaning ozodaligi, jihozlarning kulayligi muxim rol uynaydi. Kulolchilik xonasini jihozlashda haykaltaroshlik xonalarini jihozlashning umumiy koidalaridan kelib chikkan xolda jihozlash qisman bo'lsada foydalanish maksadga muvofikdir. Har bir asbob–uskunalar, xom–ashyolar, ko'rgazmali kurollar, talabalarning tayyor ishlari, dastgohlar, elektropechlar tartibi bilan uz joyiga kuyilmogi lozim.

Kulolchilik ustaxonasida bevosita talabaning foydalanadigan maydoni 50-55 m^2 bulsa, har bir talabaning ish o'rni bir–biridan 60 sm, katorlar orasida 1 m dan uzoklikda bo'lsa, harakatlanish qulay bo'ladi. Ustaxonaga tabiiy yoro'g'lik tushishini ta'minlash, buning iloji bo'lmasa, kunduzgi yorug'lik lampalari bilan ta'minlash kerak.

Kulolchilik asarini yasash uchun talabadan mohir musavvirlikni, naqqoshlikni, haykaltaroshlikni talab etadi.

Har bir asbob-uskunani yoki dastgohni, elektropechni, xumdonlarni ishlatishning konun–koidalari mavjud. Talabaning bu texnologiya bilan tanishmagani turli baxtsiz hodisalarni kelib chikishiga sabab bo'ladi. Ishlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Xumdonda sopol buyumlar pishirishdan oldin xumdon atrofidagi buyumlar ko'zdan kechiriladi.Yong'indan saqlash choralari ko'rib chiqiladi.Elektroisitgichlarda ishlaganda uni isitishdan oldin barcha simlar, uzellarning butunligi ko'zdan kechiriladi.Agar ba'zi simlar izolyatsiyasi ochilib qolgan bo'lsa,

elektropechlarni ishlatishga ruxsat etilmaydi.Topilgan kamchiliklar tuzatilgandan so'ng ishlashga ruxsat beriladi.Elektropech ishlatilib, unga buyumlar kuyilib, eshiklari yopilgach uning issikligi asta-sekinlik bilan ko'tarilib boradi[1].Bu vaqtda pechning eshigini hohlagan vaqtda kayta-kayta ochish ta'kiklanadi. Pech va buyumlar ma'lum muddatda sovigandan keyin olinishi mumkin. Agar sopol buyum to'g'ri texnologiya asosida yasalgan bulsa, u xech kachon yorilmay chikadi. Dastgohda va xumdonda ishlash uchun mavjud qoidalarni o'zlashtirgan va ularga to'liq rioya qiladigan talabalarnigina maxsus daftarga imzo chekkandan keyin ruxsat etiladi.

1970-1990 yillar Rishton kulolchiligining rivojiga quyidagi tamoyilni qayd qilish mumkin. Rishtonlik ustalar ananaviy merosni astoydil ezozlash bilan birga ancha dadillik va kesqinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar harakteriga o'zgarishlar kiritishgan[1]. Ananaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to'laqonli qilib qayta tiklash ananalarga so'zsiz rioya qilish urnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda.

---

[1]Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўкитувчи, 1986.- Б.143
[1]Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре. - Ташкент: Фан, 1976. – С.148

II – bob bo`yicha xulosa.

Rishton kulolchilik san`atining rivojlanishida "Buyuk ipak yo'li" ning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanligi ko'zga tashlandi. Ipak yo'li bo'ylab joylashgan keyinchalik qo'rg'on vujudga kelib uning o'rnida aholi yashaydigan manzilgon bo'lib shakllangan Rishton keyingi davrlarda bevosita "Buyuk ipak yo'li" ta'sirida rivojlanganini ko'rdik. O`zining badiiy uslubi va ranglarining o`ziga xosligi bilan boshqa kulolchilik maktablaridan farqi an`analari va ifodaviy tilini davrlar sinovilardan omon saqlagan yetuk milliy kulolchilik maktablaridan biri ekanligida ko`zga tashlanadi. Buni O`zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi usta Sharofiddin Yusupov ijodida ko`rishimiz mumkin. San`atshunos olim Akbar Xakimov usta-kulol Sharofiddin Yusupovga "Paganini" –deb bergan ta`rifini o`zidan ham kulolchilikning sehrli ohangini xis qilish va qalb qo`ri bilan uni tinglash mumkinligini bildik. Usta qulida sayqal topgan buyumlar o`zining an`anaviyligini yo`qotmagan holda zamonaviy talablarga ham to`liq javob beradi. Bu ustoz haqida, uni serqirra ijodiga bag'ishlangan teleko`rsatuv va xujjatli fil'mlar tayyorlab o`rta umumta`lim maktablari o`quvchi-yoshlari, kasb-hunar kollejlari va oliy o`quv yurtlari talabalariga etkazish maqsadga muvofiq bo`ladi. Shuningdek, usta kulol Rustam Usmonov ijodidagi milliylik an`analari, Yaponiya davlati bilan yo`lga qo`ygan hamkorlik aloqalarini, Alisher Nazirovning o'ziga hos rang tasvir uslubini hamda ustoz-shogirt an'analarini davom ettirib kelayotganligini darslik va o`quv qo`llanmalarga kiritish ham maqsadga muvofiq bo`lar edi.

III. Rishton kulolchiligining mustaqillik yillaridagi rivoji

3.1 Istiqlol yillarida kulolchilik sohasining yangi bosqichga ko'tarilishi

«Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta`minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma`naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda».

I.A.Karimov

Mustaqillikka erishilgandan so'ng mumtoz milliy merosga munosabat tubdan o'zgara boshladi. Xukumat qarorlari bilan xalq ustasining maqomi mustahkamlanib, ko'pchilik hunarmandchilik maktablari, shu jumladan, kulolchilik maktablarining an'analari tiklana boshladi, bir qator xalq kulollari O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademiklari unvoniga sazovor bo'lishdi. Ular orasida toshkentlik usta Akbar Raximov, Rishtonlik usta – SHarafiddin Yusupov, G'ijduvonlik usta – Alisher Narzullaev, Samarqandlik usta – SHarif Azimov. Ustalar avlodining almashinuvi G'ijduvon va Urgutda deyarli sezilarsiz ko'chdi. Rishton ustalarining mahsulotlarida individual-ijodiy izlanishlar yaqqol ifodalanadi. Ular jamoa an'analari yo'nalishida ishlashsa ham, ijodiy izlanishda erkinroq bo'ladilar. Avvalgi mavzularni qo'llay turib, rishtonlik ustalar mahsulotlarning shaklini va kompozitsion tuzilmasini biroz o'zgartirib, oxir-oqibatda an'anaviy mavzularning yangi obrazli ifodalanishiga erishadilar. Bu xol ayniqsa SH. Yusupov, hamda M. Saidov, A. Nazirov, A. Usmanov va boshqalarning ijodida erqin namoen bo'ladi. Rishtonning zamonaviy kulolchiligi ham texnologiya va ishlab chiqarish, ham badiiy bezash va uslubiy xususiyatlar nuqtai nazaridan, an'anaviy kulolchilikni bugungi holatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning boy manbasi bo'lib hisoblanadi. Uning mahalliy badiiy xususiyatlari ko'pincha mahsulotlarning naqsh bezagining tavsifi bilan aniqlanadi. Mahalliy ustalarning mahsulotlarida individual-ijodiy izlanishlar

yaqqol ifodalanadi. Ular jamoa an'analari yo'nalishida ishlashsa ham, ijodiy izlanishda erkinroq bo'ladilar. Xolbuki, ularning yangiliklari nafaqat bezak tamoyillar, balki mahsulotlarning yangi shakllarini yaratish bo'yicha kiritilgan yangiliklar bilan bog'liq.

Farg'ona kulolchiligining mashxur markazlaridan biri – G'urumsaroy markazidir, u erda 1970-1980 yillarda uchta usta faoliyat yuritgan - M.Raximov, M. Turapov, S.Xakimov. Bugun G'urumsaroy kulolchiligining an'analarini M.Turapovning shogirdi V.Buvaev davom ettirmoqda. XIX asr erta g'urumsaroy kulolchiligining naqsh majmui bir nechta mavzularni o'z ichiga olgan – ko'za, to'rtbarglik, xochsimon yirik naqsh; Rishtondagidek singari bu erda ham maishiy buyumlar – qumg'on, pichoqlarni tasvirlash an'anasi mavjud bo'lgan.

Buxoro-Samarqand maktabi kulolchiligining asosiy xususiyati texnologik omil – qo'rg'oshinli sirlashni qo'llash bilan bog'liq.

Ushbu maktabning mahsulotlari o'zining shakllari bilan XX asrlarning oxiri – XXI asrning boshlarida avvalgi o'n yilliklar an'analarini rivojlantiradi. Buxoro – Samarqand maktabining markazlari kulolchilik mahsulotlarining naqshlar majmuidagi etakchi rolni o'simliksimon naqshlar o'ynaydi. Asosiy naqshlariga "islimi" – o'simlik shohlari naqshi, barglar, mevalar, turli o'simliklarning gullari - «jiydagul», «guli binafsha», «guli sanjar», «madoxili lola», «atirgul», «CHorbarg», «uch gul», «bodomgul», «kalampir» va x.k. kiradi. Geometrik naqsh kamroq qo'llaniladi. Zoomorf elementlarni, shu jumladan, qushlarning butun tasvirlari asosan G'ijduvon kulolchiligida uchraydi. G'ijduvon uchun «dumi burgut», «ilon izi», «boykush» singari naqshlar xos. Mazkur maktabning turli markazlarida bezak berish texnikasi o'ziga xos tavsifga ega. Masalan, G'ijduvon ustalari asosan mo'yqalam bilan bezak berishsa, Urgut ustalari ko'pincha o'ymakor naqshni ishlatishadi. Xom ashe, jihozlar, materiallar hamda tayer mahsulotni etkazib berish bilan bog'liq ma'lum bir moliyaviy-tashkiliy muammolarga qaramay, kulollarning yangi avlodi 1990-yillarning o'rtalariga kelib ajdodlarning an'analarini tiklaydi hamda mahsulotlarning texnologiyasi va badiiy bezalishiga yangi ijodiy

yondashuvlarni olib kiradi. Umuman olganda, badiiy bezakdagi izchillik saqlanib qoladi. Xozirda kulol ijodidagi individual o‘ziga xoslikni anglash kuchayib bormoqda. Shu bilan birga birlamchi arxetiplar (qadimiy va o‘rta asrlar davri) hamda ikkilamchi arxetiplar (XIX – XX asrlar boshidagi predmetli tasvir) bezaklashuv jarayoni davom etmoqda. SHuningdek, kulolchilikda zamonaviy badiiy jarayonlar ta’sirida rivoj topgan uchinchi avlod arxetiplari ham faollashmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan yangi plastik san’at shakllari va an’anaviy hunarmandchilik faoliyatining ijtimoiy shartlarining o‘zgarishi tabiiy holda mahsulotlar badiiy bezagining ma’lum transformatsiyasiga, O‘zbekiston badiiy sirlangan kulolchiligi naqsh majmuasi mazmunida islom komponentining tenglashuviga olib keldi.

O`zbekistonning mustaqilligi milliy madaniyatimiz, ayniqsa xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi taraqqiyotiga keng yo`l ochib berdi. Qadimdan rivoj topib kelayotgan naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o`ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik turlari yana gurkirab o’sa boshladi, uning milliy badiiy an'analari yanada rivojlanmoqda. San'atning unutilib ketgan ayrim turlari hisoblangan matoga gul bosish, suyak va tosh o`ymakorligi, zargarlik, pichoqchilik, gilamchilik turlari qayta tiklandi. Amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining yangi turlari chinni haykaltoroshligi, charmda miniatyura ishlash, inkrustasiya, qovoq shakliga naqshlar bilan ishlov berish kabi turlari paydo bo`ldi va bu yo`nalishlarda ustalar yuksak ko`taringilik va mahorat bilan mehnat qilmoqdalar.

O`zbekistonda milliy amaliy san'at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 sonli qarorida 1997 yilgi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab quvvatlash chora tadbirlari to`g'risida» gi qarori alohida ahamiyat kasb etdi. Ana shu qaror asosida «Musavvir» ilmiy ishlab chiqarish Markazi tashkil etilib, uning qoshida «Hunarmand» uyushmasi faoliyat ko`rsata boshladi. Bu uyushma o`z saflariga minglab tajribali, shuningdek, yosh ustalarni birlashtirdi.

Ularning ijodiy ishlari uchun har tomonlama shart sharoitlar yaratib bsrilmoqda, ma'naviy va moddiy yordam ko`rsatilmoqda. Uyushmaning deyarli barcha viloyatlarda bo`linmalari ochilgan bo`lib, u yerdagi ustalar mahalliy amaliy san'atni milliy badiiy an'analarini rivojlantirib yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqsalar. hozirgi zamon xalq ustalaridan A. Akbarov, A. Abdullayev, A Umarov, S. Rahmatullayev, A.Karimov, M. Murodov, B. Rahmonberdiyev, N. Oblaqulov va boshqa ustalar xorijiy mamalakatlarda o`tkazilgan qator ko`rgazmalarda o`z asarlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, Fransiyaning Parij shahrida, Olmoniyaning Berlin shahrida, Malaziyaning Kuala Lumpur shahrida, Yaponiyaning Tokio shahrida, Hindistoning Dehli shahrida, Moskva va Olmaota shaharlarida o`tkazilgan ko`rgazmalar shular jumlasidandir. Mustaqillik yillarida sobiq Ittifoq davridagi ko`plab ta'ziq ostida bo`lgan milliy amaliy san'at turlaridan, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, yog'och o`imakorligi, badiiy kulolchilik, kashtachilik kabi turlarining badiiy an'analarini tajribali ustalardan Fayzullayev, S. Rahmatullayev, A. Azlarov, M. Rahimov, S. Otajonov, A. Nazrullayev, 3. Obloberdiyeva, A. Raximov, I. Komilov, M. husainov, A. Sultonov, M. Usmonov, X. Nuraliyevlar davom ettirmoqchalar. Yosh iqtidorli ustalardan A. Rahimov (Toshkent), M. Rahimov (Rishton), N. Obloqulov (Urgut), A. Nazrullayev (G'ijduvon), M. Alimbayev (Buxoro), X. Xaqberdiyev (Samarqand) kabilar bediiy kulolchilik yo`nalishida samarali mehnat qilmoqdalar.

Rasm solish sohasida esa M. To`rayev, A. Ilhomov, B. Rahmonberdiyev, S. Shukurov, X. Nuraliyev, A. Karimov (Toshkent), A. Akbarov, M. Husainov (Namangan), J. Jamolov, Sh. Mahmudov, S. Mahmudov (qo`qon), 0. Ergashev, S. Akbarjonova (Andijon), M. Boboyev (Farg'ona), Respublikamizda shuxrat qozondilar.

Hozirda ganch o`ymakorligi Toshkentda tez rivoj topib poytaxtimizning turli jamoat binolarini bezatishda keng qo`llanilmoqda. Uning vakillari qatoriga A. Sultonov, A. Po`latov, M. Sultonov, M. Usmonov, M. Murodov, 3. Yusupov, U.

Tohirov, A. Umarov (Toshkent), B.Davlatov (Xorazm), A. Abdurahmonov (qo`qon) kabi ustalarni kiratish mumkin.Yog'och o`ymakorligi san'ati qadimdan Xorazm, Buxoro va Samarqandda rivoj topgan bo`lsada, hozirga kelib Toshkentlik ustalar bu yo`nalishda karvonboshilik qilmoqdalar. O. Fayzullayev, S. Raxmatullayev, A. Abduraxmonov, A. Azlarov, X. Odilovlar shular jumlasidandir. Xorazmlik X. Bog'ibekov, Andijonlik Y. O`taganov, qo`qonlik X. Umarov, A. Abdullayevlar ham yog'och o`ymakorligi bo`yicha yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar.

O`zbek kashtachilik san'atining asosini tashkil etadigan so`zana, joynamoz, do`ppi, nimcha, zarchopon kabilar tikish sobiq Ittifoq davrida tanazzulga yuz tutgan bo`lsa, horzirda bu sohada keskin burilish ro`y berdi. Kashtachi ustalardan X. g'ulomova (Samarqand), Obloberdiyeva (Shofirkon), S. Rahmatullayev (Surxondaryo), M. Atayeva ( Sirdaryo), Sh. Obloqulova (Urgut), N. Xonto`rayeva (Toshkent), S. Shomurodova (qo`qon), G. Yekabergenova (qoraqalpog'iston) kabilar amaliy san'atning bu turini oyoqqa turg'azishda jonbozlik ko`rsatmoqdalar. Kashtachilik sohasida bir qator viloyatlarda xususiy ustaxonalar ochilgan bo`lib, ularda ko`plab yoshlar san'at sirlarini o`rganmoqdalar va yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar. Zargarlik san'ati ham yo`qolib borayotgan san'at turlaridan edi. Uni tiklash va rivojlantirishda hozirda Toshkentlik ustalardan F. Dadamuhamedov, N. Xolmatov, G. Toshevalar jonbozlik ko`rsatmoqdalar. O`zbek xalq amaliy san'atida yangidan paydo bo`lgan yo`nalishlar hisoblangan chinnidan haykalchalar ishlash, inkrustatsiya, qovoqdan ishlangan idishlarni naqshlash, charm materiallarga miniatyura ishlash, gazmolga gul bosish, tosh o`ymakorligi kabi san'at turlari bo`yicha olib borilayotgan ishlar ham diqqatga sazovordir. Ayniqsa, pichoqchilik bo`yicha Andijonlik A. Muhiddinov, Namanganlik A. Abdullayev, tosh o`ymakorligi bo`yicha Nurotaning g'ozg'onidan E. Abdullayev, X. Yo`ldoshev, A. Haitovlar, charmda miniatyura ishlash bo`yicha Toshkentlik S. Po`latov, B. Yo`ldashevlar, qovoqdan ishlangan idishlarga minatyura ishlash bo`yicha Toshkentlik S. Ziyomov, B. Hojimetov, Sh.

Rixsiyevlar, gazmoga gul bosish bo`yicha Toshkentlik A. Rahimov, chinni haykaltoroshligi bo`yicha toshkentlik Sh. Mo`minova, misgarlik san'ati bo`yicha M. Madaliyevlarning milliy amaliy san'atni bu turlarini tiklash va rivojlantirishdagi xizmatlari katta bo`lmoqda. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, xalq amaliy san'atini rivojlantirish maqsadida Milliy rassomchilik va dizayn institutida Nukus, Buxoro, Namangan, Toshkent davlat pedagogika universitetlarida amaliy san'atdan malakali ustalar tayyorlaydigan guruhlar tashkil etilgan. Bu o`quv yurtlarini bitirganlar Respublikamizda amaliy san'at turini rivojlantirishda katta rol o`ynaydi. Amaliy san'atdan yuqori malakali ustalar yetkazib chiqaradigan o`rta maxsus o`quv yurtlari san'at litsey va kolledjlari Toshkent, BuxoroNavoiy, Samarqandda ochilgan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan san`at va madaniyatga, aholi turmush tarzini yaxshilashga juda katta e`tibor qaratildi. Jumladan, "O`zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi farmoni (1997 yil 23 yanvar), "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirish davlat chora-tadbirlari to`g'risida"gi farmoni (1997 yil 31 mart), "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g'risida"gi farmoni (1998 yil 12 yanvar`) hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham shular jumlasidandir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida yuksak ma`naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda ularning sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko`tarish masalasi ilgari suruldi. Bugungi rivojlanish davrida milliy hunarmandchilikka e`tibor ortib borayotgan bir vaqtda kulolchilikka ham e`tiborni yanada oshirib, ularning turfa xilligi, chiroyliligini, xaridorgir qilib ko`paytirishga katta hissa qo`shishimiz kerak. Agar hozirgi zamon o`zbek xalq amaliy san`atiga nazar tashlaydigan bo`lsak, xalq ustalarining estetik didini ifodalovchi mahorati, tajribasiga tayangan holda yaratayotgan badiiy buyumlari timlosida ko`rishimiz mumkin. Mamlakatimizda milliy hunarmandlarga soliq imtiyozi dastlab O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atini yanada

rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g'risida"gi PF-1741-sonli Farmoniga asosan tadbiq etilgan bo`lib, keyinchalik ushbu imtiyozning amal qilish muddati birinchi Prezidentimizning tegishli Farmonlariga asosan uzaytirib kelindi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi birnichi Prezidenti I. A. Karimovning 2010 yil 30 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini rivojlantirishni yanada qo`llab-quvvatlash to`g'risida"gi PF-4210-sonli farmonida uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlarini ishlab chiqarish bo`yicha "Hunarmand" uyushmasi a`zolari - yakka tartibdagi tadbirkorlarga belgilangan qat`iy soliqni to`lash yuzasidan soliq imtiyozining amal qilish muddati O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PF-4399-sonli farmoniga asosan 2014 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, mazkur imtiyoz O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2005 yil 28 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g'risida"gi PF-3588-sonli farmoni bilan tasdiqlangan hunarmandchilikning asosiy 25 ta faoliyat turi ro`yxati asosida qo`llanilgan. Tadqiqot mavzuimiz esa xunarmandchilik faoliyat turlarining sopol buyumlar va sovg'a esdalik buyumlari tayyorlash ni o`z ichiga qamrab oladi. Qolaversa, naqshli sirli bezaklar berish ga ham bevosita daxldor hisoblanadi. Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikada "Oilaviy tadbirkorlik to`g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo`lib, unda oilaviy korxona o`zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo`yicha yagona soliq to`lovini to`lashdan ozod qilinishi belgilandi. Rishton kulolchilik san`ati ham oilaviy tadbirkorlik sohasini o`z ichiga oladi.

Bundan tashqari birinchi Prezidentimiz isloxotlarni amalga oshirishda biz yoshlarga katta ishonch bildirganlar. SHu nuqtai nazardan qaralganda biz yoshlar ham o`z bilim, ko`nikma va malakalarimizni Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligiga bag'ishlashimiz zarur. Buning uchun olgan bilimlarimiz asosida yangi-yangi maxsulotlar olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bilan

shug'illanishimiz va shu bilan ushbu sohani rivojiga o`z xissamizni qo`shishimiz zarur.

Shundan kelib chiqib, ushbu magistrlik dissertatsiya ishi, qadimdan kundalik turmush tarzimizda keng qo`llanilib ustoz-shogird maktabi asosida avloddan avlodga o`tib kelayotgan hamda O`zbekiston kulolchilik san`atini olamga tanitishda o`zining munosib hissasini qo`shib kelayotgan Rishton kulolchilik san`ati, uning etuk vakillari hamda uni o`ziga xos tomonlari tadqiq qilishga qaratilgandir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng an’anaviy badiiy hunarmandchilikning kelgusi rivojinining ko‘p sohalaridagi tavsifini belgilab berdi. O‘zining suveren taraqqiyotining ilk bosqichlarida iqtisodiiy qiyinchiliklarga qaramay, davlat madaniyat va san’atning holati, shu jumladan, badiiy hunarmandchilik sohalari, xususiy tadbirkorlikning tiklanishi, amaliy san’at ustalariga iqtisodiy va soliq imtiezlarini berish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oldi, bu esa an’anaviy badiiy hunarmandchilikning takomillashuvi va tiklanishini rag‘batlantirdi. G‘oyaviy tavsifdagi holat ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi – milliy o‘z-o‘zini anglash jarayonlarining tarixiy jihatdan takomillashuvi madaniy merosga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otdi. 1993 yildan boshlab O‘zbekiston an’anaviy kulolchiligi inqirozdan chiqa boshladi. Rishton ustalari U. Ashurov, I. Komilov, Sh. Yusupov, A. Tairov, R. Usmonov, A. Isanov, N. Kadirov va boshqalar ishqorli sirlash texnologiyasini qo‘llab, mahsulotlarning an’anaviy shaklini tiklashda davom etdilar.

So‘nggi yillarda Rishton kulolchiligi an’analarining ko‘p sonli davomchilari paydo bo‘ldi, lekin ularning texnologiyasi va mahsulotlarining estetikasi mukammallashuvni talab qilar edi. Rishton kulolchiligining mumtoz an’analarini saqlab qolgan bir necha usta faol ishlab kelmoqda, ular orasida Sharofiddin Yusupov va Baxtiyor Nazirovni alohida aytib o‘tish joiz. Andijondagi vaziyatni barqaror desa bo‘ladi, u erda kulol usta Mirzabaxrom Abduvaxabov o‘z faoliyatini

davom ettirmoqda. G'urumsaroy kulolchiligi an'analarini izchillik bilan usta Masud Turapovning shogirdi Vaxobjon Buvayev rivojlantirmoqda.

Xivada mahalliy kulolchilik an'analarini mashhur Xiva kulollarining farzandlari – Madir qishlog'idan Odilbek Matchanov va qo'shni Kattabog' qishlog'idan Baxodir Otajonov davom ettirishmoqda. Afsuski, bu erda xozirda qator muammolar vujudga keldi. Xususan, xorazmlik kulollar ishqorli emas, qo'rg'oshinli sir bilan qoplangan moviy kulolchilikni yarata boshlashdi. Bu texnologik "yangilik" xorazm maktabiga xos bo'lmagan bezaklarning grafik chizmalarga o'xshashiga va sust koloritga olib keldi.

Ustalar avlodining almashinuvi G'ijduvon va Urgutda deyarli yengil o'tdi. Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabining mahsulotlari avalgi o'n yilliklar an'analari kesimida rivojlandi, ularni g'ijduvonlik ustalar Alisher va Abdullo Narzullayevlar va ularning shogirdlari, urgutlik usta Nugman Oblakulov va denaulik usta Zuxur Rasulov saqlab kelishmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan ustalar va markazlar asliga muvofiq ravishda, ya'ni mahalliy maktablarning xususiyatlari, ularning texnologiyasi va bezagini saqlab qolgan xolda rivojlanmoqdalar. Shuni aytish joizki, ularning hammasi – nasliy ustalar bo'lib, faqat "Ustoz-shogird" doirasidagina ta'lim olganlar.

Toshkentlik ustalar Akbar Raximov va uning o'g'li Alisher zamonaviy sirlangan kulolchilikdagi innovatsion yo'nalishni namoyish qiladilar, ular ushbu uslub asoschisi Muxiddin Raximovning an'analarini davom ettirmoqdalar. So'ngra bu yo'nalish uning o'g'li Akbar va nevarasi Alisher Raximovning ijodida an'anaviy texnologiyalar va yangi bezak tajribalar orqali davom ettirildi va boyitildi. Xuddi shunday innovatsion yo'nalishda buxorolik esh kulol Abduvoxid Karimov ishlab kelmoqda. U Afrosiyob va XVII asrdagi Buxoroning ko'k-moviy kulolchiligi an'analarini qayta tiklamoqda hamda ularni mualliflik mahsulotlari deya namoyish qilmoqda. Bu ustalar an'anaviy texnologiyani saqlab qolsalarda, mahsulotlarni badiiy bezashga mualliflik innovatsiyalarni olib kirmoqdalar va turli tarixiy davrlarning bezak sistemasini faol qo'llamoqdalar.

Shunday qilib, O‘zbekiston sirlangan kulolchiligidagi holatni, undagi autentik qatlamlarni saqlab qolish va innovatsiyali izlanishlarning vujudga kelishi nuqtai nazaridan, ikki yo‘nalishga ajratish mumkin. Bu, birinchidan, Rishton, Andijon, Gurumsaroy, Urgut, G‘ijduvon va Xiva maktablari va markazlarining mahalliy an’analariga asoslangan an’anaviy sirlangan kulolchilik. Ikkinchidan, bu innovatsiyali mahsulotlar bo‘lib, ularda kulol ustalarning individual-ijodiy tashabbusi, qo‘llanadigan uslublarning spektri va ma’lum bir mahalliy an’ana bilan bog‘liq bo‘lmagan bezak naqshlarning kengayishi yaqqol ifodalanadi.

Kulolchilikning qayta tiklanishi muammosi texnologiyalar, bezak va an’analarni tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator jihatlarni o‘z ichiga oladi. Chunonchi, Rishtonda, ustalarning tashabbusi va mahalliy xukumat idoralarining harakatlari sharofati bilan etakchi ustalar ijodini ommalashtirish ishlari sezilarli faollashdi, bir qator muzeylar va ijodiy studiyalar tashkil etildi. Ular qatoriga mashhur kulol Ibragim Kamilovning uy-muzeyi, 1997 yilda Rustam Usmonov tomonidan tuzilgan uy-galereya, 2005 yilda ochilgan Alisher Nazirovning ijodiy ustaxonasi va boshqalar kiradi.

1990 - yillarning boshida O‘zbekiston xalqaro huquqning mustaqil sub’ekti sifatida BMT, YUNESKO singari tashkilotlarning a’zosi bo‘ldi. Bu sohadagi ustivor yo‘nalishlarga an’anaviy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirish bilan bog‘liq ishlar (1995 yildagi Badiiy hunarmandchiligi Birinchi ko‘rgazmasi) kiritildi. Xuddi shu tamoyillar, 1993 yilda O‘zbekiston a’zo bo‘lgan YUNESKO faoliyatining ham asosini tashkil etadi. O‘zbekiston xukumati mamlakatning nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratadi va 2008 yilda mamlakatimiz YUNESKOning 2003 yildagi “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konvensiyasining ishtirokchi-davlatiga aylandi. Bu sohada YUNESKO va O‘zbekiston hamkorligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri 2001 yilda Boysunning madaniy makonining tan olingani bo‘ldi. Bunday qaror nafaqat Boysun hududining xalq madaniyatini, balki O‘zbekistonning butun nomoddiy madaniyatini qayd qilish va saqlanishiga turtki bo‘ldi.

YUNESKO loyihalari doirasida O‘zbekistonning turli tumanlarida hunarmandchilik bo‘yicha bir qator an’anaviy seminarlar va treninglar o‘tkazildi, mahalliy hunarmandchilik turlarini tiklash bo‘yicha Boysunda (An’anaviy hunarmandchilik markazi va Amaliy san’at muzeyi), Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Nukusda xunarmandchilik ustaxonalari va Markazlari tuzildi. SHunindek, O‘zbekistondagi YUNESKO vakolatxonasi milliy salohiyatni oshirish va san’atning an’anaviy turlarini ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni milliy va xalqaro miqesda tashkil etishda faol ishtirok etdi. YUNESKO o‘zbek mutaxassislari bilan bir qatorda an’anaviy hunarmandchilikni rivojlantirish va qayta tiklash hamda ularni ilmiy anglash va targ‘ib qilishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirdi. Bir qator ilmiy nashrlar – kitoblar, albomlar, maqolalar (shu jumladan, YUNESKO qoshidagi Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti orqali) va amaliy qo‘llanmalar chop etildi, horijiy ekspertlarni jalb qilgan holda seminar va treninglar tashkil etildi, markazlar tuzilib, turli yo‘nalishdagi, shu jumladan kulolchilikka oid ustaxonalar tiklandi.

Shuningdek, O‘zbekistondagi Shveysariya Rivojlanish va hamkorlik bo‘yicha agentligi dasturining tashabbusi bo‘yicha o‘tkazilgan, O‘zbekiston zamonaviy san’atining muhim muammolariga bag‘ishlangan bir qator seminar va kollokviumlarni aytish joiz.

Shuningdek, YUNESKO ning O‘zbekistondagi vakolatxonasining yordami bilan Toshkentda akademik A.Raximov rahbarligida “Usta-shogird” kulolchilik maktabi tashkil etildi. Bu maktabning maqsadi – xalq ustalariga ilmiy-metodik va amaliy erdam ko‘rsatishdan iborat. Kulolchilik maktabi negizida respublika va xalqaro seminarlar o‘tkaziladi, O‘zbekiston va horijiy mamlakatlar xalq ustalarining ko‘rgazmalari uyushtiriladi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ko‘pgina an’anaviy kulolchilik markazlari qayta tiklandi. So‘nggi yillar davomida mahorat sinflari, xalq ustalari ishtirokidagi trening va seminarlar o‘tkazildi. Ushbu tadbirlarning muhim tomoni amalietchilardan tashqari muloqotga olimlarni jalb qilish bo‘lib, buning natijasida

hunarmandchilikning ushbu turining rivojlanishi va tiklanishining barcha tomonlarini chuqur o‘rganishga erdam beradi. Tadbirlar dasturiga an’anaviy o‘zbek kulolchiligining turli maktablarining taqdimotlari o‘tkaziladi. Turli an’anaviy kulolchilik markazlaridagi ustalari rishtonlik, g‘ijduvonlik, andijonlik, g‘urumsaroylik, toshkentlik, urgutlik, samarqandlik va xorazmlik ustalarining mahsulotlaridagi bir-biridan farq qiladigan bezak majmualari va uslublarni solishtirish imkoniyatiga ega bo‘lishgan.

Bu turdagi tadbirlar – seminarlar, ko‘rgazmalar, ijodiy xizmat safarlari O‘zbekiston kulolchilik san’ati an’anaviy shakllarini qo‘llab-quvvatlash jaraenida asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qiladi va O‘zbekiston xalq kulolchiligi san’atining boy an’analari munosib ravishda rivoj topadi deb o‘ylashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xullas, O`zbekistonning mustaqillik yillarida o`zbek xalq amaliy san'ati o`zining yangi taraqqiyot bosqichiga kirmoqda. Azaldan mamlakatimizning madaniy markazlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro Toshkent, G'ijduvon, Marg'ilon, Xiva, Rishton, Shofirkon, Urgut, Xo`jayli,Qo`qon, Nurota, G’'urumsaroy, Asaka, Chimboy, Sho`rchi, Termiz, Urganch,Boysun, Denov, G'allaorol, Jizzax, Zomin, Namangan, Kosonsoy, Shaxrisabz, Kitob,Sherobod, Beshkent, Xonqa, Nukus kabi shahar va qishloqlarimiz ustalari o`zlarining qadimiy shuhratlarini tiklash maqsadida samarali mehnat qilmoqdalar.

3.2 Rishton kulollari - jahon nigohida

Mustaqillik yillarida milliy xalq hunarmandchiligimiz qayta tiklandi. Hususan, kulolchilikda ham juda ko'plab ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Istiqlol sharofati bilan juda ko'p milliy hunarmandlarimiz o'z ijod namunalarini butun dunyoga ko'z-ko'z qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Milliy hunarmandlarimiz o'z ijod na'munalari bilan turli hil halqaro anjumanlarda qatnashib, Vatanimiz dovrug'ini jahonga yoymoqdalar. Hususan, Alisher Nazirov ham juda ko'plab xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etib kelmoqda. Quyida usta Alisher Nazirov qatnashgan ko`rgazmalar solnomasini keltirib o`tamiz:

1989 – Germaniya. Gannover. Halqaro ko`rgazma.

1990 – Rossiya. Sankt-Peterburg. Rishton kulollari ko`rgazmasi.

1991 – Rossiya. Moskva. "An`an va ustalar" ko`rgazmasi.

1992 – O`zbekiston. Toshkent. "Navro`z-1992" Respublika ko`rgazmasi.

1993 - O`zbekiston. Toshkent. Rishton kulollari ko`rgazmasi.

1994 – Yaponiya. Kanadzava. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

1995 – O`zbekiston. Toshkent. YUNESKO dasturi asosida tashkil qilingan O`zbekiston xalq ustalari ko`rik-tanlovi.

1995 – O`zbekiston. Toshkent. Mustaqillik kuni munosabati bilan tashkil qilingan ko`rgazma.

1995- O`zbekiston. Toshkent. BMTning 50 yilligi munosabati bilan "Moviy afsona" mavzusida tashkil qilingan ko`rgazma.

1996 - O`zbekiston. Toshkent. O`zbekiston va Yaponiya xalqlari kulolchilik ko`rgazmasi.

1996 – Yaponiya. Komatsu. Rishton kulolari ko`rgazmasi.

1997 - O`zbekiston. Toshkent. "Mustaqil O`zbekiston" ko`rgazmasi.

1998 – Frantsiya. Parij. Halqaro kulolchilik ko`rgazmasi.

1999 – Qozog'iston. Alma-Ota. O`rta Osiyo xunarmandlari ko`rgazmasi.

1999 – Qirg'iston. Bishkek. Halqaro Hunarmandlar ko`rgazmasi.

2000 - Germaniya. Leyptsig. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2001 – Germaniya. Myunxen. Kulolchilik ustalari ko`rgazmasi.

2001 – Germaniya. Myunxen. Rojdestvo yarmarkasi.

2001- O`zbekiston. Toshkent. "Tashabbus -2001" tanlovi g'olibi.

2001 –O`zbekiston. Toshkent. Mustaqillik bayrami munosabati bilan tashkil qilingan Respublika ko`rgazmasi.

2002 – Qozog'iston. Alma-Ota. O`rta Osiyo xunarmandlari ko`rgazmasi.

2002 – Germaniya. Myunxen. Halqaro amaliy san`at yarmarkasi.

2003– Frantsiya. Parij. O`zbekiston amaliy san`ati ko`rgazmasi.

2003- Italiya. Rim. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2004- Yaponiya. Tokio. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2004- Rossiya. Moskva."Moviy afsona" Rishtonlik kulollar ko`rgazma.

2005- Frantsiya. Parij. YUNESKO. O`zbekiston madaniyati kunlari.

2005- O`zbekiston. Toshkent. Rishton an`anaviy kulolchiligi.

2006- Yaponiya. Tokio. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2006- Rossiya. Yaponiya. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2007- Ispaniya. Madrid. Amaliy san`at ko`rgazmasi.

2007- Rossiya. Novosibirsk. "Xo`ja Nasriddin izidan".

2008- O`zbekiston. Toshkent. "Yo`l g'ildiragi".

2009 - O`zbekiston. Toshkent. "Art-bazar". YArmarka-ko`rgazma.

2009- Frantsiya. Parij. YUNESKO. Toshkent shahrining 2200 yiligiga bag'ishlangan xalq xunarmandalri va amliy san`at ko`rgazmasi.

2010- O`zbekiston. Toshkent. "Charxpalak" Xalq hunarmandlari ko`rgazmasi.

2010- Tukmaniston. Toshovuz. O`zbekiston - Turkmaniston foruma doirasida tashkil qilingan ko`rgazma.

2011- O`zbekiston. Toshkent. "Navro`z-2001" xalq ustalari Festivali.

2012- Ispaniya. Madrid-Barselona. O`zbekiston xalq ustalari ko`rgazmasi.

2012-Rossiya. Ekaterinburg. O`zbekiston alq ustalari ko`rgazmasi.

2013- Rossiya. Krosnoyarsk. Surikov nomli muzeyda O`zbekiston ipagi va sopoli.

2013- Rossiya. Novosibirsk. 9-Halqaro Sibir keramikasi Festivali.

2014- Rossiya. Novosibirsk. 10-Halqaro Sibir keramikasi Festivali.

2014- Rossiya. Suzdal'. "Dunyo kulollari" Halqaro ko`rgazma-yarmarka.

2014- O`zbekiston. Toshkent. "O`zbekiston kulolchiligi afsonalari".

2014-Rossiya. Novosibirsk. "Ipak osmon sotida" O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2015- Avstriya. Vena. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2016 – Moskva, Rossiya. Anor gullaganda

2017 – Praga, Chexiya. Shaxsiy ko`rgazma

Yuqorida usta qatnashgan ko`rgazmalar salmog'i uning ijodi qanchalik ekanligini ko`rsatish bilan birga Rishton kulolchilik san`atini xorijda namoshiy etayotganligidan dalolat berib turadi.



An'anaviy shakllar va naqshlarni izchillik bilan to'lakonli kilib qayta tiklash, an'analarga so'zsiz rioya qilish o'rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbu skor lik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengay-tirish egallab bormoqsa.

Xozirgi paytda Rishtonda 1000 dan ortiq kulollar ijod qilmoqdalar. 1990 yillarning o'rtalarida ustalar Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida qator ko'rgazmalarda qatnashdilar. Shulardan 130 tasi "Hunarmand" xalq ustalari Assotsiatsi-yasining a'zolaridir. 1995 yilda Uzbekistan san'at muzeyi qoshida Rishton ustalarining "Moviy afsona" mavzuidagi katta retrospektiv ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Shu bilan birga, Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi ta-

shabbusi bilan 1994 — 1996 yillarda bir qator rishtonlik kulollar ishlab chiqarish markazlari bilan tanishib keldilar. Koma-su shahridagi "Kutani" kulollik markazida bo'lib, Asakura-san kulolchilik muzeyida Rishton kulolchilik maktabi namunalaridan ibo-rat doimiy ekspozitsiya tashkil etildi. A.Nazirov an'anaviy "Tashabbus -2001" tanlovi-da "Iilning eng yaxshi hunarmandi" nomina-siyasi bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

Rishton kulolchiligi maktabining yorqin nomoyondalaridan biri akademik Shamsiddin Yusupovdir. Istiqlol yillarida usta kulolning yaratgan nodir asarlari yuksak qadrlanib 1997 yilda akademik unvonini oldi. Uning asarlari nafaqat yurtimizda balki, butun jahon bo'ylab shuhrat qozondi. Mohir kulol yaratgan asarlar juda ko'plab halqaro yarmarkalar va festevallarda namoyish qilinib kelinmoqda. Quyida usta Shamsiddin Yusupov qatnashgan ko`rgazmalar solnomasini keltirib o`tamiz:

1988 – Fransiya. Parij. Halqaro ko'rgazma.

1988 yil Rossiya. Rostov. Halqaro hunarmandlar ko'rgazmasi

1989 – Germaniya. Gannover. Halqaro ko`rgazma.

1990 – Rossiya. Sankt-Peterburg. Rishton kulollari ko`rgazmasi.

1991 – Rossiya. Moskva. "An`an va ustalar" ko`rgazmasi.

1992 – O`zbekiston. Toshkent. "Navro`z-1992" Respublika ko`rgazmasi.

1993 - O`zbekiston. Toshkent. Rishton kulollari ko`rgazmasi.

1994 – Yaponiya. Kanadzava. Sh. Yusupovning shaxsiy ko`rgazmasi.

1995 – O`zbekiston. Toshkent. YUNESKO dasturi asosida tashkil qilingan O`zbekiston xalq ustalari ko`rik-tanlovi.

1995 – O`zbekiston. Toshkent. Mustaqillik kuni munosabati bilan tashkil qilingan ko`rgazma.

1995- O`zbekiston. Toshkent. BMTning 50 yilligi munosabati bilan "Moviy afsona" mavzusida tashkil qilingan ko`rgazma.

1996 - O`zbekiston. Toshkent. O`zbekiston va Yaponiya xalqlari kulolchilik ko`rgazmasi.

1996 – Yaponiya. Komatsu. Rishton kulolari ko`rgazmasi.

1997 - O`zbekiston. Toshkent. "Mustaqil O`zbekiston" ko`rgazmasi.

1998 – Frantsiya. Parij. Halqaro kulolchilik ko`rgazmasi.

1999 – Qozog'iston. Alma-Ota. O`rta Osiyo xunarmandlari ko`rgazmasi.

1999 – Qirg'iston. Bishkek. Halqaro Hunarmandlar ko`rgazmasi.

2000 - Germaniya. Leyptsig. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2001 – Germaniya. Myunxen. Kulolchilik ustalari ko`rgazmasi.

2001 – Germaniya. Myunxen. Rojdestvo yarmarkasi.

2001- O`zbekiston. Toshkent. "Tashabbus -2001" tanlovi ishtirokchisi.

2001 –O`zbekiston. Toshkent. Mustaqillik bayrami munosabati bilan tashkil qilingan Respublika ko`rgazmasi.

2002 – Qozog'iston. Alma-Ota. O`rta Osiyo xunarmandlari ko`rgazmasi.

2002 – Germaniya. Myunxen. Halqaro amaliy san`at yarmarkasi.

2003– Frantsiya. Parij. O`zbekiston amaliy san`ati ko`rgazmasi.

2003- Italiya. Rim. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2004- Yaponiya. Tokio. Sh. Yusopovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2004- Rossiya. Moskva."Moviy afsona" Rishtonlik kulollar ko`rgazma.

2005- Frantsiya. Parij. YUNESKO. O`zbekiston madaniyati kunlari.

2005- O`zbekiston. Toshkent. Rishton an`anaviy kulolchiligi.

2006- Yaponiya. Tokio. Sh. Yusopovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2006- Rossiya. Yaponiya. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2007- Ispaniya. Madrid. Amaliy san`at ko`rgazmasi.

2007- Rossiya. Novosibirsk. "Xo`ja Nasriddin izidan".

2008- O`zbekiston. Toshkent. "Yo`l g'ildiragi".

2009 - O`zbekiston. Toshkent. "Art-bazar". YArmarka-ko`rgazma.

2009- Frantsiya. Parij. YUNESKO. Toshkent shahrining 2200 yiligiga bag'ishlangan xalq xunarmandalri va amliy san`at ko`rgazmasi.

2010- O`zbekiston. Toshkent. "Charxpalak" Xalq hunarmandlari ko`rgazmasi.

2010- Tukmaniston. Toshovuz. O`zbekiston - Turkmaniston foruma doirasida tashkil qilingan ko`rgazma.

2011- O`zbekiston. Toshkent. "Navro`z-2001" xalq ustalari Festivali.

2012- Ispaniya. Madrid-Barselona. O`zbekiston xalq ustalari ko`rgazmasi.

2012-Rossiya. Ekaterinburg. O`zbekiston alq ustalari ko`rgazmasi.

2013- Rossiya. Krosnoyarsk. Surikov nomli muzeyda O`zbekiston ipagi va sopoli.

2013- Rossiya. Novosibirsk. 9-Halqaro Sibir keramikasi Festivali.

2014- Rossiya. Novosibirsk. 10-Halqaro Sibir keramikasi Festivali.

2014- Rossiya. Suzdal'. "Dunyo kulollari" Halqaro ko`rgazma-yarmarka.

2014- O`zbekiston. Toshkent. "O`zbekiston kulolchiligi afsonalari".

2014-Rossiya. Novosibirsk. "Ipak osmon sotida" O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2015- Avstriya. Vena. Sh. Yusopovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2016 – Moskva, Rossiya. Anor gullaganda

2017 – Praga, Chexiya. Shaxsiy ko`rgazma

2018 – O'zbekiston. Halqaro ko'rgazma



2018 yil 22—24 iyun kunlari usta kulollar yurti Rishton tumanida viloyat hokimligi, «Hunarmand» uyushmasi, Yoshlar ittifoqi hamkorligida O‘zbekistonda birinchi bor «Kulollar va kulolchilik mahsulotlari» I xalqaro festivali o‘tkazildi. «Xalqaro festivalda Samarqand, Andijon, Buxoro va Xorazm viloyatlari hamda qoraqalpog‘istonlik etuk kulol ustalar shajaralarining vakillari o‘n mingga yaqin kulolchilik mahsulotlari bilan qatnashdi. Ko‘rgazmaga qo‘yilgan asarlar Yaponiya, Fransiya, Vengriya, Belorussiya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston hamda Turkiya kabi xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan sayyohlarning hayratiga sabab bo‘ldi», – deydi Rishton tuman hokimining o‘rinbosari Abdusalom Siddiqov Farg‘ona vodiysidagi Rishton shahriga taxminan eramizdan avvalgi II yilda asos solingan. U azaldan kulollari va ajoyib sopol buyumlari bilan shuhrat qozongan. Rishtonda kulolchilik buyumlarini yaratish, pishirish va ishlov berishning betakror texnologiyasi ishlab chiqilgan. Rishton kulolchiligining yana bir afzalligi shundaki, vaqt o‘tgan sari ko‘plab mintaqalarda kulolchilik san’ati

an'analari unut bo'lgan esa-da, Rishtonda bu soha o'z texnikasi va uslubiga sodiq qolgan holda rivojlanavergan. Hozirda Rishtonda minglab kulollar mehnat qiladi. Rishtonlik ustalar yaratgan san'at asarlari dunyodagi turli muzeylar kolleksiyalariga kirgan. Bu san'at asarlari AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Polsha, Shvetsiya, Iroq, Eron, Misr kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ko'p marotaba namoyish qilingan.



ko'rgazmada namoyish etilgan na'muna

Bunday tadbirlar mahalliy hunarmandlarni dunyoga tanitadi, ularni yangi ijodiy ishlarga ilhomlantiradi. Ota-bobolarimiz bu hunarni o'rganib, shu orqali ro'zg'or tebratishni boshlaganlariga qariyb 300 yil bo'ldi. Mana, uch asrdirki, bizning sulolamizda o'ziga xos kulolchilik maktabi yaratilgan», – deydi kulollar sulolasining beshinchi avlodi Botirjon Bobojonov Rishton kulollari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar o'zining dizayni, tabiiy rangi va qalampir nusxali naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi. Arxeologlar tomonidan olib borilgan qazishmalar, Katta Farg'ona kanali qurilishi paytida Rishton shahri va Zohidon qishlog'i hududlaridan topilgan sopol buyumlar va uy ro'zg'or ashyolari, shuningdek, turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Rishton eramizdan avvalgi asrlarda ham madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan. Rishtonda usta

Ibrohimjon Komilov, Bobojon Nishonov, Hakimjon Sattorov, Sharofiddin Yusupov singari mashhur kulollar maktabi yaratilgan.


«Festivalda 100 turdan ortiq kulolchilik mahsulotlari bilan qatnashdim. Mahsulotlarimda boshqalar ishlatmagan milliy adras, atlas ranglaridan foydalanib, noan'anaviy gultuvaklar, suvenirlar, servislar, choynak-piyola, turli hajmdagi guldonlar yasayman», – rishtonlik kulol Iqbol To'laganov.

Mana shunday halqaro festivallar yurtimiz kulollarining jahonga bo'y cho'zishida ulkan hissa qo'shayapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yurtimiz kulolchiligiga hamda kulollariga bo'lgan qiziqish jahon hamjamiyatida ortib bormoqda. Hususan Rishton kulolchiligi maktabini yoritishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Rossiyalik etnograf olim Pavlovskiy Rishton kulolchiligi tarixini yoritishga harakat qildi. U o'zining maqolalarida mintaqa kulolchiligi hamda tayyorlanish uslublarini keltirib o'tadi. Bundan tashqari germaniyalik Nortis Sh.Yusupov faoliyatiga bag'ishlangan o'ziga hos qo'llanma yaratgan. A.Nazirov faoliyati va ijodi uning shajarasi, ustoz-shogirt an'anasi kabi masalalarni fransiyalik olim A. Kornik o'zining maqolalaridan birida keltirib o'tadi. Bir so'z bilan aytganda rishton kulolllari jahon hunarmandchilik shaydolarini o'ziga rom qilib kelmoqda.

Euronews telekanali «Postcards» deb nomlanuvchi turkum ko'rsatuvlar orqali o'zbek xalqi urf-odatlari, madaniy merosini keng yoritishda davom etmoqda.

2018 yilning 1-fevralidan boshlab telekanalda «O'zbekistondan otkritkalar: Rishton kulolchiligi» dasturi efirga uzatila boshlandi. Euronews xodimlari suratga olish jarayonida yurtimizning eng taniqli kulollaridan biri Rustam Usmonov ustaxonasida bo'lib, uning ishini kuzatdilar. Bunday e'tibordan shuni ko'rishimiz mumkinki, bizning milliy hunarmandchiligizni jahon hamjamiyati tan olib ulgurdi.



Yurtimizda bo'lib o'tgan halqaro festivaldan olingan namuna

3.3. Zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda

kulolchilik san`atining tutgan o`rni.

Yoshlar tarbiyasida asrlar mobaynida
Shakllangan milliy an`analarimizga,
ajdodlarimizning boy merosiga tayanaylik.
Shavkat Mirziyoyev

Respublikamiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo`lgani kabi, hunarmandchilik sohasida ham sezilarli o`zgarishlar sodir bo`ldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 1997 yil 31 martda e`lon qilingan "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g'risida"gi Farmoni buning yorqin dalil ekanligi haqida oldin ham to`xtalib o`tgan edi. Ushbu Farmonga binoan hunarmandlarning davlat solig'idan ozod qilinishi, ijod erkinligi, o`z mahsulotlarini erkin narxda sota olishi, xalqaro ko`rgazmalarda ishtirok etishi, badiiy tashkilotlarda qatnashishi hamda chet elda ijodiy ishlarni amalgam oshirishlari davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo`yilgan. Hunarmandchilikni rivojlanishi hozirgi mehnat taqsimotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Hunarmandchilik bevosita savdo-sotiq bilan bog'liq jarayon bo`lib, aholi gavjum yashaydigan joylarda amalga oshiriladi. Mamlakatimizning o`sishi va rivojlanishining hozirgi davrida yosh avlodni mehnatsevar, halol, mehr-muruvvatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa, bu o`rinda joylar qiyofasini belgilashda shu erlarda shakllangan, taraqqiy etgan va an`anaga aylangan hunarmandchilik maktablarining barpo etilishi yoshlar tarbiyasida, ular kelajagini belgilashda, kasbiy faoliyatga yo`naltirishda, muhimi, kasb va kasb ahliga hurmat-ehtirom ko`rsatish kabi fazilatlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, yoshlarga kasb-hunar o`rgatishda amaliy san`atdagi qadriyat va an`analar alohida o`ringa ega. Hunarmand usta shogirdlariga hanarning sirasrorlarini o`rgatib borar ekan, ularda ma`lum tarbiyaviy fazilatlarni,

jumladan, halol mehnat bilan pul topish, muvaffaqiyatsizliklarga bardosh berish, hunardan boylik orttirishgagina emas, balki jamiyat rivojiga hissa qo`shish, boshlagan ishini oxiriga etkazish, iqtisodiy bilim va tushunchalardan foydalanib tadbirkor va ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish hamda rost so`zlashga o`rgatib boradi. Dunyoda qanday hunar bo`lmasin, uning ustasi va shogirdlari bo`ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, misgarlik, pichoqchilik, bo`yrachilik, gilamdo`zlik, yog'och o`ymakorlik, savatchilik kabi hunarlarning o`ziga yarasha ustalari bo`lib, misgarlik bilan shug'ullangan ustani misgar, naqqoshlik bilan shug'ullangan ustani naqqosh, kulolchilik bilan shug'ulangan ustani esa usta-kulol deb aytilgan. Shogirdlar esa usta deb murojaat qilishgan.

Qadimda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o`rgatilmagan yakka shogird tartibida berilgan. Masalan:

· ota yoki ona hunarini egallash – ota-ona, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida;

· usta qo`lida yakka shogird shaklida;

· sex shogirdligi, ya`ni uyushgan ustaxonalarda, tsexlarda yakka shogirdlik tartibida o`rgatilgan.

Hozirgi vaqtda milliy hunarmandchilik yanada rivojlanib kelayotgan bir paytda milliy an`analarimiz asosida ustoz shogirdiga o`z hunarini o`rgatib kelmoqda. Lekin, yoshlarimiz orasida bir usta ozgina yaxshilik qilsa, darhol uni ustoz-ustoz deb qoladilar. Aslida-chi? Usta, "Ustoz" degan nomga loyiqmi? Ustoz kim? Kimlarni biz ustoz deyishimiz mumkin? Uning vazifasi nimadan iborat? Ustozlar qadimda qanday ta`lim-tarbiya bergan? Bunday savollarga javob topishda ayrim hollarda qiynalib qolamiz. Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblangan bo`lib, uni hurmatlab, e`zozlab kelingan. Ota-bobolarimiz tomonidan ustoz va shogirdlar uchun o`ziga xos odob-axloq, maxsus qonun-qoidalar, urf-odatlar, madaniyat ishlab chiqilgan bo`lib, bu qoidalarga qat`iy amal qilingan. Ustoz-shogird munosabatlarida o`ziga xos irimlar, duolari, milliy an`analar mavjud bo`lgan. Ustozning ham, shogirdning ham oldiga qo`yilgan o`ziga yarasha

vazifalar, burchi bo`lgan. Xalq hunarmandchiligida, xususan kulolchilikda ustozlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlari quyidagicha bo`lgan: Qadimdan ustozlar shaxsiy va kasbiy fazilatlarining mezoni bo`lib, unga qat`iy rioya qilib kelingan. Bu shaxsiy fazilatlar mezoni tarkibiga ustozning saxiy, odobli, mehr-shafqatli, marhamatli, ochiq yuzli, shirin muomilali, sabrli, talabchan, itoatli, qanoatli, to`g'ri so`z, poklik, muloyimlik kabi fazilatlari bilan shogirdiga namuna bo`lishi lozimligi belgilangan.

Hunarmandning kasb madaniyatiga quyidagilar kirgan:

· hunarni boylik orttirish maqsadida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo`shish maqsadida o`rganish;

· hunarni mehnatsiz daromadlardan asrash;

· ustozlar an`anasiga ehtiromda bo`lish;

· pirlarning roziligini olish;

· pirlarning duosini olish;

· mehnatga loqayd bo`lmaslik;

· mehnatsevarlik, halol mehnat qilish;

· intizomli bo`lish;

· muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik;

· hunarda aqlli tadbirkor bo`lish;

· rost so`zli bo`lish;

· pokiza bo`lish;

· bir ishni qiyomiga etkazmay ikkinchisiga o`tmaslik.

Hunarmand holi bo`lishi lozim bo`lgan xususiyatlar:

· nopok yo`llar bilan boylik orttiruvchilar bilan aloqada bo`lmaslik;

· boshqa hunarlarga nisbatan adovatda bo`lish va hasadgo`ylik, boshqalar muvaffaqiyatini ko`rolmaslik;

· jur`atsizlik, dangasalik, yalqovlik, erinchoqlik, isrofgarchilik, takabburlik, yolg'onchilik.

Ustozning kasbiy fazilatlariga o`z hunariga qiziqishi, o`z hunarini yoshlarga sidqidildan o`rgatishi, o`z hunariga yangiliklar kiritishi, shu hunari bo`yicha o`zidan keyin yaxshi, sodiq shogirdlar qoldirishi va shu kabi boshqalar kiradi.

Ustozning eng yaxshi kasbiy fazilatlaridan biri shogirdlar tayyorlashdir. Har bir hunarmand ustaning shogirdi bo`ladi. Hunarmandlar o`z hunarini avloddan avlodga an`ana tariqasida o`tkazib kelganlar. Ustoz o`zidan keyin bilimdon, iste`dodli shogird qoldirmasa, uning hayoti bekor o`tdi deyiladi. Usta qanchalik mohir, o`z hunarini yaxshi bilishidan qat`iy nazar, o`z bilimini, hunarini ishonchli odamga qoldirmasa, uning ishlarini davom ettiradigan kishi bo`lmaydi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy mashhur bir baytida quyidagi misralarni bejiz yozib qoldirmagan:

Hunarni asrabon netgumdir, oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir, oxir!

Qadimda hunarmand va xaridor o`rtalaridagi munosabatlar odobi, mezonlari mavjud bo`lgan. Ular quyidagilardan iborta bo`lgan: savdoda poklik, halollik, adolatlilik, to`g'rilik, xushfe`llik, nafsini tiyish, kambag'al, bechoralarga xayri ehson qilish, mahsulotning asl bahosini bilmaganlar bilan to`g'ri muomilada bo`lish, va`daga xilof ish qilmaslik, bajara olmaydigan ishga va`da bermaslik va shu kabi boshqalar.

Shu bilan birga shogirdning odob qoidasi ham mavjud bo`lgan:

· o`z ishiga yaxshi munasabatda bo`lish, ya`ni o`z hunarini sevish;
· o`z ishiga e`tiqod qo`yish va unga ishonish;
· ustoz oldida bo`lish, o`zining salbiy odatlarini tark etish;
· ko`rish lozim bo`lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish;
· eshitish mumkin bo`lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik;
· barcha noloyiq ishlardan qo`l tortish;
· ustozga ma`qul bo`lmagan kishilar bilan muomila qilmaslik.

Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari o`tmishda hunarmandlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular ustozga itoatda bo`lish, ustoz an`analarini davom ettirish,

ustozning pand-nasihatlariga amal qilish, ustozdan ibrat olish, sabr-toqatli bo`lishi, irodali bo`lish, ustozning yuzini erga qaratmaslik, aksincha, uning obro`sini ko`tarish, ustoz san`atiga iliq so`zlar aytish, ustozning dushmani bilan do`st tutinmaslik, ustozning oila a`zolarini hurmat qilish, ustozning qarindoshurug'larini hurmat qilish, ustozning ruxsatisiz hech narsaga qo`l tegizmaslik, birovning narsasiga ko`z olaytirmaslik, ustozga cheksiz hurmatda bo`lish va boshqalar.

O`tmishda ota-onalar ham farzandlariga hunar o`rgatayotgan ustozni hurmat-ehtirom qilganlar. ota-onalar va ustozlar o`rtasida munosabat madaniyati ham o`ziga xos xarakterga ega bo`lgan va ular quyidagi axloqiy tushunchalardan iborat.

Ota-onaning ustozga munosabati:

· ustozga muruvvat ko`rsatish;

· ustozning bergan tanbehini to`g'ri tushunish;

· farzandining hunar o`rganib, o`zida zarur narsalarni yetkazib berish;

· ustozni rozi qilish;

· ustoz bilan doimiy aloqada bo'lish.

Ustozning ota-onaga o`ziga xos munosabati:

· farzandga hunar o`rgatish uchun zimmasiga olgan vazifasini bajarish;

· o`z va`dasining ustidan chiqish;

· ota-onaga farzandining qobiliyati, xulq-odobi to`g'risida ochiq gapirish.

Yuqorida keltirilgan ma`lumotlar hammasi S. Bulatovning "Ustozning shaxsiy va kasbiy fazilatlari" ilmiy maqolasidan olingan14. S.Bulatovning o`zbek amaliy bezak san`atidagi an`analar, udumlar va ustoz-shogird an`analari haqida keltirilgan ma`lumotlari 60 bosma taboqqa yaqin hajmdagi "O`zbek xalq amaliy bezak san`ati" nomli yirik hajmdagi fundamental ilmiy tadqiqot asarida ilmiynazariy jihatdan batafsil tahlil etilgan. Bu ilmiy tadqiqot asarida o`zbek xalq amaliy bezak san`ati barcha turlarining tarixi, xususiyatlari, ularni tasniflovchi illyustrativ materiallar o`z ifodasini topgan. Biroq, unda ayrim san`at turlari ommabop tarzida bayon etilgan bo`lib, masalaning pedagogik va metodik jihatlari to`laqonli qamrab olinmagan. Shunday bo`lsa-da, ushbu ilmiy tadqiqot asari

keyingi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun eng asosiy manba bo`lib xizmat qilmoqda. Iste`dodli olim S. Bulatov o`z shogirdlari bilan birga o`zbek hunarmandchiligini o`rganish muammolari ustida, amaliy san`atning tarixi, etnografiyasi, falsafiy, ruhiy, tarbiyaviy tomonlari bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Amaliy san`atning qadriyat va an`analarining ahamiyati bugungi kun ta`lim tizimida juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga uning badiiy va ma`naviy ahamiyatini ham nazardan qochirmaslik kerak. Madaniyat va san`at badiiy hodisa bo`lgani uchun shubhasiz, ma`naviy ahamiyat kasb etadi. Zero, bu jarayon uzluksiz davom etuvchi jarayon sifatida san`at tarixi, uning vatan va millat tarixidagi o`rnini tadqiq etib boradi, bugungi kunni kuzatadi, ularning natijalarining sintetik tatbiqi evaziga ta`lim mazmunini takomillashtirib boradi, uning istiqbolini belgilab beradi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, san`at badiiy hodisa bo`lganligi sababli ma`naviy hodisa ham hisoblanadi va bevosita ta`lim sohasini takomillashtirib borishga o`zining ijodiy ta`sirini ko`rsatadi. Har qanday jamiyat ta`lim-tarbiyasiz, har qanday ko`rinishdagi ta`limtarbiya jamiyatsiz mavjud bo`lmaydi. Aynan ana shu falsafiy ta`rif ta`limni, uni tadqiq etuvchi pedagogika fanining ijtimoiy ahamiyat va mohiyat kasb etishini xarakterlaydi. Demak, har bir jamiyatning ijtimoiy muammolari qatorida madaniyat va san`atning ta`limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etish bilan bog'liq bo`lgan pedagogik muammolar mavjud. Uning mazmuni, ehtiyoji jamiyat taraqqiyotining ma`lum bosqichida ijtimoiy buyurtmasiga asosan belgilanadi.

Bugungi ta`lim tizimida yoshlarga xalq amaliy san`ati vositasida badiiy estetik tarbiya berishning o`ziga xos jihatlari mavjud bo`lib, o`z navbatida yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Chunki amaliy san`at mazmunida bizning uzoq o`tmishimiz, mumtoz merosimiz, milliy an`analarimiz mujassamlangandir. Shu bois umuminsoniy va milliy qadriyatlarni ajdodlarimizning ijodiy tajribalarini, ko`p asrlik an`analarini hisobga olgan holda ma`naviy barkamol avlodni shakllantirishda badiiy-estetik ta`lim va tarbiya

muammolari ham katta o`rin egalladi. Yoshlarning yuksak insoniy fazilatlari, ajdodlarimiz ma`naviy merosiga bo`lgan qiziqishi, ulardagi u yoki bu tug'ma qobiliyat yoshlik davridayoq shakllanishi mumkin. Bu borada xalq amaliy san`ati o`ziga xos mohiyat kasb etadi. Dunyodagi barcha millat va elatlarning urf-odatlari ma`naviy va moddiy qadriyatlari mavjuddir. Har bir millat va elatning ma`naviy dunyosi axloq-odob meyorlari, uning urf-odatlarida o`z aksini topadi va shaxsning ma`naviy shakllanishiga ta`sir etadi.

III bob bo`yicha xulosa.

Istiqlol yillarida milliy hunarmandchiligimizga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgarib, uning rivojlanishi uchun barcha zarur choralar ko'rilgan. Uzoq davom etgan mustabid tuzum inqirozi va yurtimizning mustaqillikka erishishi milliy hunarmandchiligimiz, jumladan kulolchilikning ham rivojini yangi bosqichga olib chiqdi. Yurtimiz bo'ylab juda ko'plab festivallar hamda ko'rgazmalar bo'lib o'tdi. Milliy merosni tiklash va uni qaytadan yuksaltirish uchun hukumatimiz tomonidan amalgam oshirilgan ishlarning bevosita guvohi bo'ldik.

Hunarmandlarimizga bo'lgan e'tibor kuchaytirilib, ularning erkin faoliyat yuritishi ta'minlandi. Kulollarimizning bir guruhi hukumatimiz tomonidan Davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Usta Alisher Nazirov ijodidagi millliylik orqali Rishton kulolchiligiga xos an`ana va milliylikni ko`rishimiz mumkin. Ustaning 1989-2017 yillar davomida qatnashgan ko`rgazmalarining xronologik jadvalini tuzib chiqqanimizda Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston kabi qo`shni davlatlar bilan bir qatorda Germaniya, Rossiya, Frantsiya, Italiya, YAponiya kabi davlatlarda juda ko`p marotaba ko`rgazmalarda qatnashib Rishton kulolchilik an`analari dovrug'ini olamga tanitayotganini guvohi bo`ldik.

Usta ko`zagar Odiljon Nigmatov ijodida yoshlarga berilgan e`tiborni o`rganib, ular yordamida kulollar sulolasi shajaraksini tuzib chiqdik. Zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda Rishtonlik kulolarning o`ziga xos tajriba maktabi sir-asrorlarini taxlil qilib, kerakli xulosalar chiqardik. Ular tomonidan tashkil qilingan tajribani ommolashtirshi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

I L O V A L A R

1-ilova

I. Kulolchilik san'ati markazlari[1]

1. Xorazm guruhi



[1]Bukulolchilik maktablarining birdan-bir farqi shundaki, ular ishlatadigan tuproq, ular yasagan buyumlarning shakli, buyumlarga tushirilgan naqshlar turli xilda bo'ladi.

2. Buxoro – Samarqand guruhi

G'ijduvon kulolchilik maktabi
O'ba kulolchilik maktabi
Samarqand kulolchilik maktabi
Urgut kulolchilik maktabi
Urmetan kulolchilik maktabi
Jizzax kulolchilik maktabi
Kitob kulolchilik maktabi
Shahrisabz kulolchilik maktabi
Kasbi kulolchilik maktabi
Denov kulolchilik maktabi
Qora tog' kulolchilik maktabi

3. Farg'ona guruhi

Rishton kulolchilik maktabi
Isfara kulolchilik maktabi
O'ratepa kulolchilik maktabi
Koni bodom kulolchilik maktabi
Namangan kulolchilik maktabi
Shexon kulolchilik maktabi
Andijon kulolchilik maktabi


2-ilova

Rishton kulolchilik maktabi namunalari











3-ilova

Naqshli oq ko'za. Er. av. 2000 yil. Vashington.
Sher-odamhaykali.

Er.av. 2000 yillar. Pekin. Gugun muzeyi





Umumiy xulosa va tavsiyalar

Magistrlik disertatsiyasi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi: Hunarmandchilikning bir bo'lagi bo'lgan kulolchilik tarixi ana shu hunarmandchilikning paydo bo'lishidan to hozirgi zamon bosqichigacha bo'lgan davr kulochilik taraqqiyotini o'rganadi, shu davr mobaynida yashab ijod etgan va ijod qilayotgan kulollar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishadi, ularning asarlarini tahlil etadi, taqqoslaydi.

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Kulolchilik san`ati va uni tarixini o`rganish insonlarni kundalik turmush tarzini, yashash sharoitini, urf-odatlarini, diniy va dunyoviy qarashlarini aniqlashga katta yordam beradi. Sopol buyumlari sodda bo'lsada, uning ko'rinishi qismlarning aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmuninig birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarining jahonga tanitib kelmoqda.

Sopol buyumlardan foydalanish temir, mis yoki shu kabi boshqalarga nisbatan inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi. Qolaversa, qadimdan otabobolarimiz arpa, sholi, bug'doy kabi boshoqli donlarni saqlashda sopol ko`zalardan, xumlardan foydalanib kelishgan. Chunki, boshoqli donlarni sopol idishlarda saqlash jarayonida ularning sifati, tarkibi umuman o`zgarmaydi. Sabzavot va mevalar ham sopol buyumlarda yaxshi saqlanadi. Rishton kulolchilik san`ati va uni kelib chiqish tarixi to`g'risidagi ilmiy manbaalar, ma`lumotlarni o`rganish jarayonida duch kelgan muammolarimizdan asosiysi Rishtonda arxeolgik qazishma ishlarini olib borilmaganligi bo`ldi. Shuningdek, Rishtondan etishib chiqqan usta kulollar ijodi yuzasidan fundamental tadqiqot ishlari olib borilmaganligi, ular haqidagi ilmiy manbaalarni entsiklopediya, darslik, o`quv

qo`llanmalarga kiritilmaganligi bo`ldi. Hattoki, ustazodalar sulollasining shajarasi ham tuzilmagan. Rishtonlik ustalar erishgan yutuqlar, Vatanimizda va undan tashqarida qatnashgan ko`rgazmalar haqida ma`lumotlar ham kam yoritilgan. Usta-kulollarning ijod namunalarini o`rganish va ularning o`ziga xos uslubini targ'ib qilish, o`sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish kerak. Shuning uchun ham Rishton kulolchilik san`atining tarixini va bugungi kunini o`rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Rishtonda kulolchilik rivoj topgan bo'lib, kulol bu erning dastlabki hunarmandi, asosiy kishisi sanalgan, uning dastgohida sayqal topgan idishlar bu yerdan o'tgan karvonning nazariga tushgan va unga yo'lda asqotgan. Rishton kulollari yasagan xumlarning har biriga 50-100 litrdan suv ketadi.

Rishton kulolchilik san`ati va uni kelib chiqish tarixi to`g'risidagi ilmiy manbaalar, ma`lumotlarni o`rganish jarayonida duch kelgan muammolarimizdan asosiysi Rishtonda arxeolgik qazishma ishlarini olib borilmaganligi bo`ldi. Shuningdek, Rishtondan etishib chiqqan usta kulollar ijodi yuzasidan fundamental tadqiqot ishlari olib borilmaganligi, ular haqidagi ilmiy manbaalarni entsiklopediya, darslik, o`quv qo`llanmalarga kiritilmaganligi bo`ldi. Hattoki, ustazodalar sulollasining shajarasi ham tuzilmagan. Rishtonlik ustalar erishgan yutuqlar, Vatanimizda va undan tashqarida qatnashgan ko`rgazmalar haqida ma`lumotlar ham kam yoritilgan. Usta-kulollarning ijod namunalarini o`rganish va ularning o`ziga xos uslubini targ'ib qilish, o`sib kelayotgan yosh avlodga etkazish kerak. Shuning uchun ham Rishton kulolchilik san`atining tarixini va bugungi kunini o`rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi xalq hunarmandlarining kulolchilik buyumlari yuz yillar davomida mashhur bo'lib kelgan. Rishton va Quva kulolchilik sanati maktabi qatorida G'urumsaroy kosiblarining ishlari ham shuhrat qozongan. Hozirgi paytda bu qishloq Namangan viloyati Pop tumanidagi kulolchilik ishi markazlaridan biri hisoblanadi.

Rishtonlik ustalar ananaviy merosni astoydil ezozlash bilan birga ancha dadillik va kesqinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar harakteriga o'zgarishlar kiritishyapti. Ananaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to'laqonli qilib qayta tiklash ananalarga so'zsiz rioya qilish o'rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda.

G'ijduvon shahrida o'nlab kulollar yashab ijod qilgan. G'ijduvon shahriga boshqa Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, Xiva, Urganch shaharlardan kelib ishlab, hunar o'rganganlar va malaka oshirganlar. Bu yerdan ko'pgina kulolchilik ishlarini Buxoro, Vobkent, Kattaqo'rg'on, Nurota, Qarshi shaharlariga olib borib sotganlar.

Rishton milliy kulolchilik ishlarini xalq ustalari davom ettirib kelmoqdalar. Ular buyumlarni ranglar uyg'unligiga, sirli koshinkor gullar ko'rkamligiga buysundirilgan holda bezaganlar. Bu ustalarning ishlari nafaqat O'zbekistonda balki boshqa chet ellarda xam mashhurdir, ular mamlakatimiz va boshqa chet el ko'rgazmalarining domiy qatnashchisi bo'lganlar.

Kulol, haykaltarosh va me'morlarning ijodiy hamkorligi yaxshi samara bermoqda, ular keyingi yillarda bir qancha ajoyib san'at asarlarni yaratdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Xalq so`zi" gazetasi, 2011. 22 yanvar.

2. Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi –T.: O`zbekiston, 2010. 56 b.

3. Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari - T., O`zbekiston. 1995l.

4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin -T.: O`zbekiston. 1996. 240 b.

5. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O`zbekiston, 1993.- 320 b.

6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz – T.: O`zbekiston, 2000. – 525 b.

7. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida –T.: O`zbekiston, 2008. – 368 b.

8. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat–yengilmas kuch–T.: Ma`naviyat, 2008.168 b.

9. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" – T.,

10. Abdullaev N. Istoriya iskusstv – T.: O`qituvchi, 1986. 208-bet

11. Asqarbek Akparov. Farg'ona vodiysi arxitekturasida amaliy san`atning ma`naviy – estetik ahamiyati. - N.: 2007. 3-bet

12. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g'risida"gi PF-1741- sonli Farmoni.

13. Isaboeva G. XIX asrda Qo`qon xonligida madaniy hayot. Tarix fan. nom. diss. – T.: O`zMU, 2008. B.142.

14. Temirxodjayev Dj., Po`latov B. O`zbekistonning mashhur kulolchilik maktablari. Tarix tafakkuri. Tarixchi olimlarning ilmiy-amaliy maqolalar to`plami. VIII jild. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B.155-158

15. Abdullayev N.U. "San'at tarixi" . 1-tom. Toshkent.: O'qituvchi, 1986 yil.

16. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . 2-tom. Toshkent.: San’at, 2001 yil.

17. Oydinov N. “O’zbekiston tasviriy san’atidan lavhalar” Toshkent.: O’qituvchi. 1997 yil.

18. M. Mirzahmedov. Boshlang’ich badiiy naqsh ishlash uslubiyati. Toshkent.: ”Uzbekiston,, 2002 yil.

19. Hasanov Rahim. Amaliy bezak san’ati mashg’ulotlari metodikasi. Toshkent.: 2003 yil.

20. S. Abdurasulov, N. Tolipov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Toshkent.: 2007 yil.

21. S. Bo’latov, N. Tolipov. Go’zallik falsafasi. Toshkent.: 2008 yil.

22. S. Abdurasulov, B. Boymetov. Tasviriy san’at. Toshkent.: 2006 yil.

23. Nigmatov B.v, Ermatova A.B. Naqshi nigorlar. Toshkent.: 2010 yil.

24. Inson manfaatlari hamma narsadan ustun. –T.: “Extremum-press”, 2017. 96 bet.

25. P.Sh.Zohidov. Me`mor san`ati. –T; G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1978, 35-bet.

26. S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati. –T; “Mehnat”, 1991, 142 b.

27. P.Sh.Zohidov. Me`mor san`ati. –T; G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1978, 35-bet.

28. Elmira Gul. Amaliy san`atda etnik-madaniy an`analar. San`at-98. 1-3-sonlar. 33-bet

29. Surayyo Alieva. Rishtonning moviy sopoli. San`at -98. № 1-3, 34-bet.

30. A.Amanullaev, Z.SHeraliev. Amaliy san`atdan sinfdan tashqari ishlar ilmiy pedagogik muammo sifatida. – “Xalq ta`limi” jurnali, 2007, 3-son. 135-137-betlar.

31. Sovet O`zbekiston san`ati 1987 № 7. G’urumsaroy kulollari. A.A.Xakimov

32. O`zbekiston Adabiyoti va san`ati 1992 № 47. Kulolchilik rivoyatini tinglab. M.Axmedov.

33. O’zbekiston Badiiy Akademiyatsi nashri. “O’zbekiston san’ati” majmuasi.

"Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririyati. T.: 2001.
34. S.Bulatov. "Xalq ta`limi" jurnali, 1998, 1-son, 64-67-betlar.
35. Xalq amaliy san`ati. 1997 yil 30 may "22-sonli
36. San`at -98. O`zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali № 1-3, 32-33-betlar.
37. Xalq hunarmandlari. Sovet O`zbekiston san`ati. 1987 yil №7-sonli
38. Pop tuman gazetasi 1993 yil №22 G'urumsaroy kulolchiligi. M.Matkarimov
39. Pop tuman gazetasi. 1993 yil № 22. Qo`sh san`at sohibi M.Matkarimov.
40. Pop tuman gazetasi 1993 yil 29 sentyabr. G'urumsaroy M.Matkarimov
41. Pop tuman gazetasi 1997 yil 30 may №22 G'urumsaroy kulolchiligi

Prezident Farmonlari va xukumat qarorlari:

1. "O`zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi farmoni. – T., O`zbekiston. 1997 yil 23 yanvar.
2. "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirish davlat chora-tadbirlari to`g'risida"gi farmoni. – T.; O`zbekiston. 1997 yil 31 mart.
3. "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g'risida"gi farmoni. – T.; 1998 yil 12 yanvar`

Xorijiy adabiyotlar

1. G. Derviz, L. Jadova, I. Jdanko, D. Mitlyanskiy. "Sovremennaya keramika narodnix masterov Sredney Azii". Al'bom. - M.; 1974.
2. A. Xakimov.. "Sovremennaya dekorativnoe iskusstvo respublik Sredney azii". - T.; 1988.
3. Pesherova E.M. Goncharnoe proizvodstvo Sredney Azii.–M-L.; 1989.–240 s
Internet ma`lumotlari.

Internet saytlari ma'lumotlari

1. www.e-tarix.uzG'vatan-tarixiG'475-vatan-tarixi.html

2.http:G'G'hunar.uzG'index.php?optionqcom_k2&viewqitem&idq34:urta-osio-naqqoshlik

3. http:G'G'images.rambler.ru

4. http:G'G'cookingknife.ruG'aShow.aspx?idq61

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kulolchilik

6. Ziyo_net.uz

7. www.uzinfoinvest.uz - «O`zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.

8. www.review.uz – "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining rasmiy sayti

9. www.eurasianews.com – EvroOsiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy cayti

10. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti

11. http://www.chemport.ru/acid=42

12. http://www.chemport.ru/acid=42

13. http://lib.mexmat.ru/books/8672/

14. content.mail.ru/arch/13081/1002506.htm

Tadqiqot natijalariga asosan chop qilingan ilmiy maqolalar:

1. I.Usmonaliyev. Rishton kulolchilik san`ati va an`analari. Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to`plami. II qism. T,; 2018. 98-101 bb

2.I.Usmonaliyev. Rishton kulolchiligining o'ziga xos hususiyatlari va hunarmandchilikdagi ahamiyati. Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubi maqolalar to`plami. Q.; 2017. 20-21 b.b

3. I.Usmonaliyev. Usta Alisher Nazirov ijodida milliylik. Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubi maqolalar to`plami. I qism. T.; 2018. 73-75 b.b

4. I.Usmonaliyev. Rishton mo'jizasi yohuda Rishton kulolchiligi tarixidan. Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubi maqolalar to`plami. I qism. T.; 2018. 81-83 b.b